

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Tarix-falsafa fakulteti

**Arxeologiya, qadimgi dunyo tarixi va
etnografiya kafedrası**

Axadov Sherzod Alisherovich

**QADIMGI DUNYO MIFOLOGIYASI VA SIG‘INISH
TUSHUNCHA MADANIYATI**

**5220200 – Tarix bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi
Malakaviy bitiruv ishi**

Ilmiy rahbar

Djurakulova D.M.

Rasmiy taqrizchi

Malakaviy bitiruv ishi arxeologiya, qadimgi dunyo tarixi va etnografiya kafedrasining 2011-yil 24-maydagi majlisida muhokama qilingan va YaDAKga himoya uchun tavsiya etilgan (№ 14-son bayonnoma).

Kafedra mudiri:

prof. Djurakulov M.D.

Malakaviy bitiruv ishi YaDAKning 2011-yil ____-iyundagi majlisida himoya qilingan va _____ ball bilan baholangan (№ ____-son bayonnoma).

YaDAK raisi

t.f.d. MATBOBOYEV B.X.

A‘zolari:

S A M A R Q A N D – 2011

R E J A:

KIRISH.

ASOSIY QISM:

I-bob. Qadimgi Sharq xalqlari mifologiyasi va sigʻinish tushunchalari (Qadimgi Misr, Mesopotamiya, Xitoy davlatlari misolida)

II-bob. Qadimgi antik dunyo mifologiyasi va sigʻinish tushunchasi (Qadimgi Gretsiya misolida)

XULOSA.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI.

KIRISH

Yer va Quyosh qayerdan paydo bo'lgan? Insonni kim yaratdi? G'alladan non olishni, ipak qurtidan matolar olishni kim o'rgatdi? Daryolarni egarlab, insonga xizmat qilishga kim majbur etdi?

Bunday savollar hamma vaqt insonlarni qiziqtirib kelgan. Biroq qadimgi odamlar bu savollarga to'g'ri javobni topa olmaganlar. Ular xudolar va g'ayritabiiy kuchga ega bo'lgan insonlar dunyoni yaratganliklari to'g'risidagi fantastik hikoyalarni so'zlashgan. Shu tarzda xudolar va qahramonlar to'g'risida afsona hamda asotirlar paydo bo'ldi, ularga sig'inish, topinish jarayonlari shakllandi.

Ibtidoiy jamiyat kishilarining tabiat haqidagi tushunchalari, jumladan, koinotning chaqmoq, momaqaldiraq, zilzila, bo'ron, to'fon, yong'in, oy va quyosh tutilishi kabi qo'rqinchli hodisalari bilan bog'liq edi. Ushbu qo'rqinchlar qurshovida yashagan ibtidoiy inson, shu hodisalar sababini anglamasdan, tabiatdagi har qanday «sirli» o'zgarishlarga ilohiy ma'no berib, butun borliqni ins-jinslar, dev-parilar va boshqa turli-tuman g'ayri tabiiy maxluqlar makoni tarzida tasavvur etgan, ular haqida benihoyat ko'p diniy afsonalar yaratgan.

Hayoliy tushunchalardan hosil bo'lgan afsonalarni – miflar, ularning yig'indisi mifologiya deb ataladi. Ajoyib poetik mahorat bilan yaratilgan mifologik rivoyatlar yunon og'zaki adabiyotida benihoyat ko'p. Bu miflar ibtidoiy insonning tabiat sirlari qarshisida zaifliklari tufayli tug'ilgan.

Qadimgi Sharq xalqlari, jumladan, Qadimgi Misr, Mesopotamiya, Xitoy xalqlari mifologiyasi eramizdan avvalgi IV-III asrlarda vujudga keldikim, yozuvning ixtiro qilinishi bilan ular turli jismlarga yozila boshlandi. Bu vaqtga qadar afsona va asotirlar insonlar xotirasida saqlanib, ajdodlardan avlodlarga o'tib kelgan. Ularni turli qabilalar vujudga keltirgan, ko'plab insonlar ularga qo'shimchalar kirgizgan, ayrimlari esa hikoyalarga aniqliklar olib kelganlar. Shu tarzda afsonalar yaratilgan.

Insonlar shuni bilishganki, olov topish, g'alla ekish, kanallar qazish, dambalar qurishni otalaridan, otalari esa bobolaridan, ularni esa ota-onalari va hokazolarga o'rgatishgan. Demak, insonlar biladigan barcha narsalarni ajdodlar, ota-bobolardan o'rganishgan, ulardan yetib kelgan. Ota-bobolarga g'ayritabiiy kuchlar bilan bog'liq holda ko'rsatilgan; ularni xudolar darajasiga ko'tarishgan; madhiyalar to'qishgan. Ularning donoliklari va buyuk qahramonliklarini e'tirof etib, afsonalar to'qishgan.

Ko'rib chiqilayotgan malakaviy bitiruv ishida qadimgi xalqlarning mifologiyasi va sig'inish tushunchalarining chambarchasligi va keyinchalik paydo bo'lgan dinlar va ulardagi diniy urf-odatlar, marosimlar ko'rib o'tilgan.

I-BOB.

Qadimgi Sharq xalqlari mifologiyasi va sig'inish tushunchalari (Qadimgi Misr, Mesopotamiya, Xitoy davlatlari misolida)

Qadimgi Misr. Misr har doim o'zining qulay ob-havosi va o'zining buyuk go'zal Nil qirg'oqlarida joylashgan shaharlari bilan hayratlantirib kelgan. Misr aholisi, asosan, qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanishganlar. Chunki aholining ko'pchiligini dehqonlar tashkil etgan va ularning hayoti Nil bilan bog'langan. Har yili sentabrda Nil toshgan. Daryo suvi qirg'oqqa ko'tarilib, uning quruq qatlamini hosildor qatlam qoplagan. Misrliklar ikki mavsumli ekin ekib olishganlar. Bunga, birinchidan, suvning qaytishi bilan ekin ekilishi bo'lsa, ikkinchidan, sug'orish kanallarining qurganliklari sabab bo'lgan. Misrliklar uzum, anjir, bug'doy, choy, yachmeni iste'mol qilganlar. Qadimgi misrliklar qo'y, ot, sigir kabi hayvonlarni parvarishlaganlar. Nil deltasi, shuningdek, Fayyum ko'li bo'yida yashovchi misrliklar, shuningdek, baliq ovlash bilan shug'ullanganlar.

Misrliklarda quruvchilik yaxshi rivojlangan. Piramidalar va uylarni bunyod etish uchun granit va marmardan foydalanishganlar. Gips va bo'r bilan ularga pardozi berganlar. Dehqonlar uyi g'ishtdan bo'lgan. Misrliklar oltin, kumush, bronza va qimmatbaho toshlardan qurilishda foydalanganlar.

Qadimgi misrliklar bir qancha fanlarni yaxshi bilishganlar. Ular fizika, matematika, astronomiya, mexanika, kimyo.

Misr quruvchilari mahorat bilan binolar barpo etganki, bu bugungi tomoshabinlarni hayratga soladi. Buning yorqin misoli sifatida Nubiyadagi Abu Simbel dahmasi hisoblanadi.

O'zining ishlanish usuli bilan ajralib turgan va bizning kungacha saqlanib qolgan Abu Simbel dahmasi nafaqat o'zining ajoyib arxitektura san'ati bilan, balki o'zining yirikligi bilan ham mashhurdir. Uning sirlarini o'rganish jarayonida Bannevalyu va Aristoflar arxeologik jihatdan o'rganganlar.

Bu dahma miloddan avvalgi 1260-yilda fir'avn Ramzes II hukmronligi davrida bunyod etilgan. Bu dahma, aftidan, hech kim bilmaydi. Quyosh xudosi Ra

uchun qurilgan. Chunki uning marmardan qilingan naqshda buyuk Raning aksi aks ettirilgan.

Dahmaga kirishning ro‘parasida muqaddasxonaga kirish eshigi topilgan. U xona unchalik katta bo‘lmay, uzun xona edi. Bu bino Raning eng muqaddas xonasi deb nomlangan. Lekin u xonada hech kim bo‘lmagan, bu joy misrliklar uchun eng sirli joy hisoblangan. Xonaning orqa tarafida katta odam haykali bor. Har yilda bir kun – yigirma birinchi oktabrda yillik bayramda Ramzes II xalq oldiga chiqishga majbur bo‘lgan. Buning uchun podsho haykal qoldirib, uni dahma oldiga o‘rnatgan. Yigirma birinchi oktabr kuni aynan butun yil davomida shu kuni dahma eshigidan tushgan nur Ramzes II ni haykal orqali siymosini jonlantirgan. Mana shu butun dahmaning siri hisoblangan.

Misrliklarga yozuv va hisob yaxshi ma‘lum bo‘lgan. Papiruslardan iyerogliflarni yozishda foydalanganlar. Papiruslarga xudo ismlari va fir‘avn saylovi bayon etilgan. Shuningdek, papiruslardan yozish uchun ishlatishdan tashqari, ulardan etikdo‘zlikda ham foydalanganlar. Ustalar ulardan vaqtinchalik poyabzallar tayyorlaganlar.

Qadimgi Misr xalqi u dunyo hayotiga ishonganlar. Podsho va fir‘avnlarni shu uchun ularning tanasini mo‘miyolashgan. Mo‘miyolash jarayoni ikki oydan ziyod davom etgan. Tana maxsus qorishma bilan yaxshilab ishlov berilib, mato bilan o‘ralib, qadimiy sarkofarga qo‘yilgan.¹

Qadimgi Misr iyerogliflari nafaqat misrshunoslarni, balki oddiy o‘quvchini ham qiziqtiradi. Misr iyerogliflarini tilga kiritgan inson mashhur misrshunos olim Fransua Shampolon bo‘lib, u o‘zining uncha katta bo‘lmagan brashurasida iyerogliflarni mohiyatini ochib bergan. Shampolon Jan Fransua (24.12.1790, Fijak – 4.03.1832, Parij) fransuz olimi, misrshunoslik asoschisi. Shuningdek, 1923-yilda Petrogradda Natalya Davidovna Flittner iyerogliflarni qattiq tadqiq etib, ularni qaytadan ishlaydi. Natalya Davidovna Flittner (14.09.1879, Peterburg –

¹ История Древнего Востока. Под ред. Кузищина В.И. –М., 1979, 76-77-66.

16.07.1957, Leningrad) rus ta'rifchi-sharqshunosi, sayohatchi, tarix fanlari doktori, professor.

Inson va tirik mavjudotning xohishi va intilishi deyarli bir narsa – ovozdir. Qaraydigan bo'lsak, insonlar dastlab ovoz orqali aloqa qilgan. Dastlabki odamlardan biri homo sapiensialarda urug' a'zolari o'rtasidagi nutqi bo'lib, u orqali bir-birini xavf-xatardan ogoh etishda foydalanganlar. Keyinchalik yozuvni inson yaratgan.

Qadimgi Misr yozuvini yaratuvchisini donishmandlar, donolar va xudolar deb bilishgan.

Inson dastlab fikrlarini, nutqini saqlashda ishora va belgilardan foydalangan. Odamlarning asosiy belgilariga buyumlar kirgan. Bulardan eng mashhuri daraxtlarga qo'yilgan nishon bo'lgan. Bu narsa tug'ilgan vodiy hissi tufayli bo'lgan. Bu kabi belgilar bugungi kunda «belgi yodgorliklar» bo'lib qolgan. Bu belgilarni qadimgi misrliklar sopol buyumlar bezashda ishlatishgan. Belgilar turli ma'noni bildirgan: «Bu mening hududim» yoki «Xavfli! Qoch!»

Insonlarning fikrlari doimo ikki ko'rinishda bo'ladi. Birinchisi, jonli bo'lsa, ikkinchisi, mavhum bo'ladi. Jonli fikr natijasida badiiy san'at vujudga kelgan. Qadimgi odam o'z belgilarini qo'yish orqali buni yaratgan.

Yuz yillar davomida rasmlar orqali alohida buyum va ichki kechinmalar bayon etilgan. Qadimgi misrliklar ham tasvir orqali fikrlarini bayon etishganlar. Ularda quyosh nuqta atrofidagi aylana orqali, o'z qavmi odamlari esa inson tasviri orqali ifodalangan. Qachonki belgili yozuvlar paydo bo'lgandan so'ng tasvir orqali fikr almashish tugagan.

Endi arxeolog Kvebel Yuqori Misr – Iyeranonpoldan topgan Narmer paletkasini ko'rsak, paletka bu usti kvadratlarga bo'lingan shaffof (tiniq) plastinka bo'lib, unga sudyalari Misrdagi birinchi suloladan bo'lgan fir'avn Narmurga bag'ishlab yozganlar.

Uning bir tomoniga fir'avn Narmerning Yuqori Misrning tojini kiyib turgan holda, chap qo'li bilan tiz cho'kib turgan odamni sochini tutgan, o'ng qo'lida esa

harbiy gurzi ko‘tarib turibdi. Bu paletkani yasagan usta barcha narsaga, hatto eng kichik detallarga ham ahamiyat bergan.

Qadimgi misrliklarga uchta yozuv turi ma’lum bo‘lgan:

— belgi;

— turli buyumlar vositasidagi tasviri;

— to‘liq ramzli yozuv (masalan, Narmer paletkasi).

Qadimgi Yunoniston, Finikiya va Isroil aholisi tovushli yozuv turiga o‘tgan davrda ham Qadimgi Misrda bu yozuvlar saqlangan. Bunga Kliment Aleksandriyskiyning yozgan xati saqlangan (Kliment Aleksandriyskiy 216-yilda vafot etgan).

Dahmaga kirgan chet elliklar aynan yunonlar uning go‘zalligini ko‘rgan, lekin ular belgilar mohiyatini tushunmaganlar. Bu kabi qiziquvchi yunonlardan biri Gerodot bo‘lib, u Qadimgi Misr haqida katta ahamiyatga ega ma’lumot to‘plagan. U o‘zining asarlaridan biri (2-kitobi Yevterpa)da Ellada va Misr aholisining xulq-atvorini solishtirgan. U yozadi: «Elladaliklar chapdan o‘ngga qarab yozadilar va o‘qiydi, misrliklar esa o‘ngdan chapga qarab yozadilar, bundan ular o‘ng qo‘li bilan yozadilar, ellinlar esa chap qo‘li bilan yozadilar».

Misr bilan dunyoning asosiy tanishuvi Isoning tug‘ilishidan V asr avval Aleksandr Makedonskiy bu qadimiy davlatni egallab olgandan so‘ng ro‘y berdi. Shunda dunyo ahli iyeroglif bilan tanishdi. Yunonlar alifbo tizimi oddiy va qulay edi. Shuning uchun yunon alifbo yozuvi misr iyeroglifini siqib chiqardi. Iso tug‘ilgan yildan ikki ming yil oldin bu misr yozuvi urf darajasiga ko‘tarilgan. Fir’avnlr diplomatik aloqalarda ushbu yozuvdan foydalanganlar.

Iyeroglif yozuvining so‘nggi qoldiqlari imperator Feodosiy davrida, ya’ni IV asr oxirigacha ishlatilgan. Keyinchalik u shunchaki mamlakat belgisi va qiziq tasvirlar bo‘lib qolgan. Iyerogliflar o‘zgargan holda – so‘nggi misr yozuvi bir qancha kichik xalqlar yozishgan va bu yozuv tarkibiga yunon harflarining bir qanchasi kiritilgan. Bu vaqtga kelib xalq yozuvi batamom yo‘q bo‘lib ketgan edi.²

² Гросс П. Талисмания и мифология Древнего Мира. Ростов-на-Дону, 2007, 53-55-66.

Klassik Sharq dinining tarixi ko'plab yozma va arxeologik manbalardan yaxshi ma'lum.

Qadimgi sharq xalqlari, ayniqsa, Misr va Mesopotamiya xalqlari sinfiy rivojlanishning va buyuk sivilizatsiyalar vujudga kelishi yo'liga boshqalarga qaraganda erta o'tadi. Bularning barchasi Qadimgi Sharq dinida o'z izini qoldiradi. Ularda uzoq vaqt arxaik jihatlar saqlanib qoladi.

Primitiv va murakkab formalarning uyg'unlashuvini Qadimgi Misr dinida ko'rishimiz mumkin.

Ko'pchilik tadqiqotchilarning fikricha, Misr dinining eng qadimgi formasi mahalliy nomlarning xudo – homiysi bo'lgan. Ushbu mahalliy nomlar kultlarida chuqur arxaik xususiyatlar saqlanib qolgan. Har bir nom o'zining muqaddas hayvonini hurmatlagan. Ular, ko'pincha, aralash ko'rinishda, zooantropomorf ko'rinishlarida bo'lgan.

Eng janubiy nom – Elefantida qo'yni, Denderda – sigirni, Siutda – shoqolni, Germopolda – ibis va pavianni, Fayyum vohasida – timsohni, Bubastida – mushukni ilohiy sanashgan. Nexenning homiysi ma'buda – kalxatni, Nexebni yonida esa suv nilufar gulini e'zozlashgan. Shimoliy Misrda – Butoda muqaddas ilonni, qo'shni Pe jamoasi – asalariga topinishgan.

Antropomorfizatsiya jarayoni kechadi: mushuk ma'buda Bastet (mushuk boshli), lochin – xudo Gor, ibis boshli Tot, it boshli Tubis, timsoh boshli Sobeka, sher boshli Soxmet, sigir boshli Xator kabilar.

Umummisr xudolarining eng qadimgisi lochin Gor bo'lib, unga Iyerakonpol va Edfada topinishgan. Ushbu viloyatlardan chiqqan podshohlar «Gorni hurmatlovchi», Misrning birinchi birlashtiruvchilari edi (1- va 2-sulolalar). Ular o'zlarining qabilaviy ilohini umummisr quyosh xudosiga aylantiradi. Podshohlikning poytaxtini Memfisga (3-sulola) ko'chirish bilan Misrning rasmiy xudosi Ptah bo'ladi. 5-sulola hokimiyat tepasiga kelgach, Gemeopolning bosh xudosi Atum bo'ladi. 11-12-sulolalar davrida Fivaning yuksalishi, mahalliy xudo

Amonni butun Misr xudolar panteoning boshiga qo'yadi. 26-sulola vakillari davrida ma'buda neyt bosh xudo hisoblangan.

Boshqa mahalliy xudolar aniq bir funksiyaga ega bo'lganlar va insonlarning ma'lum bir faoliyatiga, kasbiga rahnamolik qilgan. Masalan, germopollik xudo Tot (ibis) yozuvchilar va olimlar; siutlik Anubis – oxirat podsholigi, latopollik Soxmet – urush ma'budasi, koptlik Min chet elliklar homiysi sifatida ko'rilgan.³

Misr mifologiyasi juda boy bo'lgan bo'lsa kerak, lekin bizgacha uning kichik bir ko'rinishlari yetib kelgan. Unda misrliklarning diniy taassurotlari o'z ifodasini topgan. Mifologiya Misr dinining asta-sekinlik bilan rivojlanishini kuzatish imkonini beradi, shuningdek, bir-biridan ustun bo'lishi uchun mahalliy kulturning kurashini kuzatadi.

Misrliklarda kosmogonik miflar ko'p bo'lib, ular bir-biriga qarama-qarshi edi. Har qanday muzofotning dunyoning paydo bo'lishi haqidagi afsonasi bo'lgan hamda mahalliy xudoga asosiy rol ajratilgan. Ushbu afsonalardan eng qadimgisi Memfis ilohiyot traktatida bizgacha yetib kelib, u 3-4-sulolalar davrida, Memfis poytaxt bo'lgan vaqtda yozilgan. Ushbu traktatda dunyoning paydo bo'lishida mahalliy xudo Ptax (Pta) asosiy o'rinni egallab, Gor, Tot va boshqa xudolarni siqib chiqaradi.⁴

Gemeopollik kohinlik dunyoning yaratilishini o'zlarining Quyosh xudosi Ra (Atum)ga olib borib taqaydilar. Gemeopollik kosmogoniyaga qaraganda, Raning o'zi otasi, ibtidoiy tartibsizlik (xaos) Nun tomonidan dunyoga keltiriladi. Ushbu xaosdan Ra o'z-o'zidan ko'payib, birin-ketin oliy xudolar, odamlar va hayvonlarni dunyoga keltiradi. U xudo Shu (shamol)ni hamda Tefnut (uning ayol qo'shimchasini), ulardan esa Geb (yer), Nut (osmon) va boshqa xudolar – buyuk to'qqizlikni yaratadi. Ra insonlarni o'zining ko'z yoshlaridan yaratadi. Quyosh – Raning bir ko'zi bo'lsa, oy – uning ikkinchi ko'zi. Gemeopol kosmogoniyasi o'zaro tug'ilish va sehrli paydo bo'lish darajasini ko'rsatadi. Bu yerda evolyutsion g'oyaning ma'lum bir qismi bor edi. Boshqa bir afsonaga ko'ra, Geb va Nut, Yer

³ Токарев С.А. Религия в истории народов мира. –М., 1965, 332-336-бб.

⁴ Овчинникова А.Г. Легенды и мифы древнего Востока. –Санкт-Петербург, 2002, 14-16-бб.

va Osmon, birlamchi davrda o‘zaro jips bo‘lib, bir-birining quchog‘ida saqlaganlar. Xudo Shu (havo) ularni bir-biridan ajratib, Nutni yuqoriga ko‘taradi.⁵ Ushbu mifning ko‘rgazmali tasviri saqlangan. Shu narsa xarakterliki, ilohiy juftlik yer – osmon, misrliklar boshqa xalqlardan farqli, osmonni – ayol, yerni – erkak sifatida qaraganlar. Ushbu jihat matriarxat qarashlaridan kelib chiqsa-da, umuman, gemeopol quyosh mifologiyasi ko‘proq patriarxal mafkurani aks ettiradi.

Umuman, boshqacha kosmogonik va antropogonik tasavvurlar ham mavjud edi. Janubiy Misrda xudo Xnumga sajda qilganlar, u insonlarni kulolchilik charxida yasagan, degan fikrlar bo‘lib, bunga hunarmandchilik rivojlanishi ta’sir ko‘rsatgan. Shuningdek, dunyoviy tuxum to‘g‘risida afsonalar bo‘lib, emishki, Quyosh va umuman butun dunyo tuxumdan paydo bo‘lgan. Ushbu tasavvurlar misrliklarning eng arxaiik kosmogoniyasi bo‘lsa kerak.

Tabiat ko‘rinishlarini mifologiya aks ettirishda birlamchi o‘rinni quyosh egallaydi. Misrliklarning Solyar miflari xilma-xildir. Bir afsonada quyosh mushuk ko‘rinishida ulkan ilon bilan kurash tushadi. Boshqa bir afsonada Ra (Quyosh) bilan yer osti iloni Apop bilan kurashi aks ettiriladi. Bu esa quyoshning sutkalik harakatini va uni g‘arb tomonga botishini aks ettiradi. Misrliklarning mifologik tasavvurlari quyoshni har kungi yo‘lini qayiqda yurishini aks ettiradi (Misrda qayiq asosiy harakatlanish manbai edi). Quyosh turli xil jonzotlar sifatida ko‘rsatilgan: skarabey qo‘ng‘izi, lochin, ilon, mushuk.

Osmonni misrliklar ayol obrazi – ma’buda Nut yoki sigir timsolida ko‘rsatib, sigir tanasida quyosh qayig‘i, oy va yulduzlar ifodalangan.

Misrliklarda osmon va yerdagi tabiat ko‘rinishlari mifologik tarzda aks ettirilgan: Oy, Havo, Yer, Nil, Sahro. Nil vohasining hosildorlik, rahmdillik xudolari bilan bir qatorda, yovuz kuchlar ham: Set (Setxa), Saxmet kabilar ifoda etiladi.

Yovuz Set misrliklar mifologiyasida alohida o‘rin tutadi. Osiris haqidagi afsonada u Osirisning akasi bo‘lib, uning o‘limini kutib yashovchi yovuz kuchni

⁵ Овчинникова А.Г. Легенды и мифы древнего Востока. –Санкт-Петербург, 2002, 19-23-бб.

ifoda etadi. Yangi topilgan (1931-y.) afsona Set va Gorning Osiris merosi to'g'risidagi bahsini ifoda etadi. Ushbu afsonada nafaqat tabiat ko'rinishlari – sahroning yovuz kuchlari va vohaning hosildorligi bilan bo'lgan kurashi, balki ijtimoiy motivlar: Osirisning o'g'li o'zining akasidan merosni olmoqchi bo'lganligi, ya'ni oilaning urug'dan ustun bo'la boshlaganini ko'ramiz.

Madaniy qahramonlar haqidagi miflar keng ko'lamli bo'lib, misrliklarda ushbu qahramonlar faqatgina xudolar edi. Xuddi shu o'rinda germopollik xudo – ibis Totni, ya'ni yozuvchilar va olimlar homiysi, qaysikim, u yozuvni, fanni ixtiro qilganligini, muqaddas kitoblarni tuzganligini e'tirof etadilar. Shuningdek, Osirisning murakkab obrazida ham madaniy qahramonning aniq ko'rinishini ko'ramiz: afsonaga ko'ra, Osiris Misr podshosi bo'lib, insonlarni dehqonchilikka, vino ishlab chiqarishga o'rgatadi. Madaniy qahramon obrazi bilan hosildorlik va dehqonchilik xudosi obrazlari yagona obrazga birlashib ketadi.

Boshqa afsonalardan xudolar tomonidan insonlarni jazolash to'g'risidagi afsonasi qiziqarlidir. Ushbu afsonalarning mafkuraviy ma'nosi shunda ediki, insonlar o'zlarining gunohlari mavjudligi va turli kulfatlarni xudolar qahri deb sanashida edi. Agar Old Osiyo xalqlarida jazolash motivi mifologik toshqin hisoblansa, Misrda esa boshqacha edi. Toshqin to'g'risidagi afsona qariyb barcha Afrika xalqlari uchun yot edi, shuningdek, misrliklarga ham. Misrliklar uchun Nil daryosining toshqini ijobiy sanalib, ular suvning ko'tarilishini halokat deb hisoblashdan uzoq edilar. Misrliklarning fikricha, xudolar tomonidan yuboriladigan jazo boshqacha formada namoyon bo'ladi. Insonlarning qabih ishlaridan g'azabga kelgan xudo Ra ularga qarshi o'zining «ko'zi»ni – qizi Xator, so'ngra ma'buda Saxmet – sher boshli, qahrli urush ma'budasini yuboradi. Qonxo'r ma'buda insonlarni ayamay qira boshlaydi, bundan xavotirlangan Ra ayyorlikka borishga majbur bo'lib, ma'budani pivo bilan to'ydiradi. Mast bo'lib qolgan Saxmet uxlab qoladi va o'zining qonli ishini to'xtatadi.⁶

⁶ Токарев С.А. Религия в истории народов мира. –М., 1965, 349-б.

Misr dinida eng katta rolni jodugarlik (magiya) o'ynaydi. Ko'plab matnlar, tasvirlar hamda ashyoviy qoldiqlardan ma'lum bo'lishicha, Misr xalqlari hayotida va Misrning butun tarixiy davrlarida jodugarlik qo'llanganligi ma'lum. Davolovchi – saqlovchi magiya tibbiyot bilan uzviy bog'liqlikda bo'lgan. Misr tibbiyoti, ayniqsa, retsepturasi nisbatan yuqori o'rinda tursa-da, bunga qaramasdan, jodugarlik, sehrgarlik tasavvurlari bilan butunligicha qamralgan edi. Hatto ebers papirusi (12-sulola, mil. avv. 2000-yil) – eng mulohazali tibbiyot, traktatida, retseptlar bilan birgalikda, kasalliklar uchun afsunlar ham keltirilgan. Yangi podsholik davrida (er. avv. XVI asrdan boshlab) Misr tibbiyoti butunlay jodugarlik tasavvurlari va uslublari bilan qamraladi, bu esa davolash amaliyoti butunicha kohinlar qo'liga o'tganligidan dalolat beradi. Davolash sehrgarligiga saqlovchi, qo'riqlovchi sehrgarlik qo'shiladi. Ayniqsa, ilonlar va hasharotlar chaqishidan, timsohlar va turli xil hayvonlardan saqlash uchun sehrgarlik vositalari va afsunlaridan ko'plab foydalanilgan. Davolash maqsadlarida turli tumorlar, dori-darmonlar, sehrgarlik tasvirlaridan foydalanishgan. Ob-havo sehrgarligi ham amaliyotda qo'llanilgan. Masalan, Quyosh dushmanlari bilan kurashda jodugarlik amallari qo'llanilgan. Xuddi shunday marosimlardan Raning dushmani Apopning qulatilish kitobida gapirilib, unda Fiva ibodatxonalaridagi kohinlar har kuni afsonani o'qish mobaynida «quyosh charaqlab turishi» uchun sehrgarlik marosimlarini o'tkazganlar va afsunlarni o'qib turganlar. «Qora» jodugarlikning ham turli usullari ma'lum bo'lgan: jodugarlik afsunlari va marosimlari dushmanlarning mo'mli figurkalari ustida sehr-jodu qilish va nihoyat Misrda o'tganlar uchun bajo keltiriladigan sehrgarlik o'ta keng tarqalgan, ya'ni narigi dunyoda mayitning yaxshi kun kechirishi uchun marosimlar o'tkazilgan.

Misrliklarda sehrgarlik tasavvurlari toza holda emas, balki xudolar obrazlari bilan murakkablashtirilgan holda keltiriladi.

Misrning diniy hayotida kohinlar asosiy o'rin egallashgan edi. Diniy urf-odatlar ular tomonidan bajarilgan.⁷

⁷ Токарев С.А. Религия в истории народов мира. –М., 1965, 350-б.

Misr dini o'ta konservatizmligi bilan ajratib turadi. Biroq tarixiy shart-sharoitlarning o'zgarishi bilan hamma narsalar ham o'zgarmas emas edi. Rivojlanishning umumiy yo'nalishida mahalliy kultlarning umumdavlat va umumxalq kultlariga birlashib, umummisr xudolar va uyushgan, takomillashtirilgan kohinlikning paydo bo'lishiga olib keladi. Lekin shu bilan birga, to oxirigacha, chegaralangan mahalliy kult saqlanib qolgan va ular o'zlarining ilohalariga, urf-odatlariga, muqaddas joylariga va ixloslariga ega bo'lishgan. Ikkinchidan, umumiy yo'nalishning rivojlanishi ijtimoiy qarama-qarshiliklarning kuchayishi, sinfiy tengsizlik, dinning jabr-zulmga o'ta borilishi, yopiq kastaga aylanib borayotgan va hukmron sinfnining bir qismi bo'la boshlagan kohinlikning kuchayishi bo'lsa, uchinchidan, sust darajada bo'lsa-da, asta-sekinlik bilan Misr dinining yopiqlikdan, chegaralanganlikdan chiqa boshlashi, ya'ni Misrning xalqaro siyosatida va madaniy aloqalardagi kengayishida namoyon bo'ladi.

Aslida, O'rta podsholik davridan boshlaboq, Misrning ekspansiyasi bilan, qo'shni xalqlar bilan uchrashuvi natijasida Misr panteonida o'zga xudolar ham paydo bo'ladi. Shu asnoda, masalan, Nubiya xudolari Dedun, Bes, liviyalik ma'buda Neyt kabilar paydo bo'ladi. Balki sahro xudosi Set giksoslarning xudosi bo'lishi mumkin edi, chunki giksoslar hukmronligi davrida uning kulti tarqaladi; keyinchalik u misrliklar uchun yovuzlik ilohi hisoblangan. Biroq shu narsa ma'lumki, 1-sulolalar davridayoq Misrning shimoliy-sharqiy chegaralaridagi viloyatlarda ushbu xudoga sig'inishgan. Misrdagi 18-sulola davri, buyuk bosqinchiliklar davridayoq Osiyodagi semit xalqlarining xudolari: Vaal, Astarta va boshqalar paydo bo'ladi.

O'zga xudolarning misrga kirib kelishi bilan bir vaqtda teskari holat – Misr xudolarini o'zga mamlakatlarda e'tirof etishlari kuzatiladi. Finikiya, Suriya va hatto Gretsiyada Amon, Osiris, Isida va boshqalar kulti maydonga keladi.⁸

⁸ Токарев С.А. Религия в истории народов мира. –М., 1965, 354-355-66.

Qadimgi Misr davlatining bir necha asr davomida rivojlanishi sabab, turli xil sig'inishlarning ahamiyati va xarakteri o'zgargan. Qadimgi ovchilar, chorvadorlar va dehqonlar e'tiqodlari aralashgan, ularga urushlar, mamlakatning turli markazlarining rivojlanishi, qulashi kabilar ta'sir qilgan.

Bir vaqtning o'zida Misr dini uchun ibtidoiy tasavvurlarning uzoq vaqt mavjudligi, hamda ko'pgina qadimgi sig'inishlarning butun Qadimgi Misr tarixi davomida o'z ahamiyatini yo'qotmaganligi xarakterlidir.

Turli yerlarda e'zozlanadigan ko'plab xudolar har xil tabiat kuchlari va ijtimoiy hodisalarni ifodalaganlar. Osmonni ayol yoki sigir, yer va havoni ma'bud sifatida tasavvur qilganlar. Qushboshli Tot yozuv va sehrgarlik xudosi bo'lgan, ma'buda Maat esa, dunyoda tartib o'rnatgan. Tabiat hodisalari turli xudolar munosabati sifatida qabul qilingan.

Qadimgi misrliklar ba'zi xudolar hayvon yoki qush ko'rinishida bo'ladi deb o'ylaganlar. Lochin ko'rinishidagi Xorni qadim zamonlardan qudratli osmon xudoligi tasavvurlari bilan bog'laganlar. Davlat tashkil topgach, Xor endilikda o'zlari ham Xorlar deb ataladigan fir'avnlr homiysi bo'ladi. Xor kultining podsholik bilan birlashishi, Osirisga sig'inishning rivojlanishi bilan bog'liq. Marhum podsho sifatida Xor Osiris miflari doirasiga kirgan. Shu bilan birga, turli joylarda sig'inish obyekti bo'lgan lochinlar, bu yerda paydo bo'lgan mahalliy quyosh xudolari bilan birlashganlar.

Ibtidoiy xudo – hayvonlarga sig'inilganligi: xudolarning tanasi odamniki bo'lishiga qaramay, boshi qush yoki hayvonnikidek ko'rinishda (Xatxorda sigir, Satitda ohu, Amonda qo'y shoxi va h.k.) saqlanganligida kuzatiladi. Keyinroq hayvonlar va qushlar xudolarning yuraklari hisoblana boshlagan va ibodatxonalarda saqlangan. Hayvonlar u yoki bu xudoni gavdalantirishini tan olish uchun, ularning muayyan rangi, shoxi yoki muayyan shakldagi dog'i bo'lishi kerak edi.⁹

Misrda nisbatan ko'proq qadrlanadigan hayvonlardan biri ho'kiz edi. U qadimdan hosildorlik va ishlab chiqaruvchi kuchlarning ramzi sifatida qabul qilingan. Ho'kizga sig'inish bir qator joylarda bo'lgan hamda o'sha joylardagi asosiy mahalliy

⁹ Гросс П. Талисмания и мифология Древнего Мира. Ростов-на-Дону, 2007, 78-79-бб.

sig'inishlar bilan birlashgan. Masalan, Memfisda Apis (ho'kiz) mahalliy xudo Ptaxning «yuragi»ga aylanadi; Geliopolda Osiris kulti bilan bog'liq ho'kiz Mnevis, quyosh xudosi Rani ifodalagan; Germontisda esa, mahalliy xudo Mentuning «tirik obrazi» ho'kiz Buxis bo'lgan.

Amon xudosi qadimdan qo'y bo'lgan, u ham ho'kiz kabi qadimdan hosildorlikni ifodalagan. Ilohiy qo'ylar ibodatxonalarda xudolar qatorida yashagan. Masalan, Esnada, Elefantinda va 21-nomda qo'ylar xudo Xnumni, Geliopolda esa, xudo Xerishafni gavdalantirgan¹⁰. Qo'y e'zozlanadigan muhim joy Mendesda ilohiy qo'y Banebdjed – «Djed hokimiyatining yuragi» (ya'ni, Mendes) deb atalgan.

Qora qo'ng'izga sig'inish ham keng tarqalgan. Tabiat hodisalarini anglash jarayonida quyosh diskini itaruvchi qo'ng'iz obrazi paydo bo'ladi. U, shuningdek, uchayotgan va quyoshni tashiyotgan holda tasvirlanadi. Qo'ng'iz ko'tarilayotgan quyosh Xeprini ifodalagan, u bilan hayotga va tiriklikka bo'lgan umid bog'liq bo'lgan. Qo'ng'izlarga quyosh xudolari ibodatxonalarida sig'inganlar.

Ma'buda Xatxor ramzi sigir bilan bog'liq. Odatda Xatxor ba'zan sigirning shoxi va qulog'i bo'lgan ayol, ba'zan esa, sigir boshli ayol sifatida tasvirlangan. Osmon sigir kabi tasavvur qilinganligi uchun, Xatxor osmon sigiri hisoblangan. Unga ma'buda sifatida sig'inganlar va uni hosildorlik bilan bog'laganlar. Xatxorni xudo daraxti kabi tasavvur qilinishi ham shu bilan bog'liq.

Turli xudolar bilan ilohiy mushuk, maymun, ilon, ixnevmonlar bog'langanlar. Ilohiy hayvonlar va qushlar o'lgach, ularning jasadi mo'miyolangan, so'ng matoga o'ralib, qopqog'ida o'lgan hayvonning tasviri tushirilgan tobutga qo'yilgan. Misrning ko'p joylarida hayvonlarning keng qabristonlari topilgan. Fayyumdagi timsohlar, Memfisdagi ho'kiz – Apislar, Germontisdagi ho'kiz – Buxislar qabristoni ular orasida nisbatan mashhurlaridir.

Qadimdan ko'pgina markazlarda quyosh xudolariga sig'inishgan. Ular turlicha ifodalangan: ba'zida osmonda uchayotgan qanotli gardish, ba'zan katta qo'ng'iz, ba'zida lochin, gohida esa, lochin boshli kishi ko'rinishida gavdalantirilgan. Bu xudolarning nomlari turlicha bo'lgan, lekin xudo Ra, Atum, Xepri yoki Xor deb

¹⁰ История Востока. Восток в древности. В шести томах, том I. Стр. 176.

atalishidan qat'iy nazar, sig'inishda ular buyuk yorituvchini nazarda tutganlar. Ba'zan, Xepri – ertalabgi, Ra – kunduzgi, Atum – kechki quyosh deb tushuntirilgan.

Quyosh xudosi Ra o'z ahamiyatini juda erta topgan. Har kuni kechasi quyoshning yo'qolishi va ertalab ko'tarilishini ular uning yutib yuborilishi va osmon sigiri yoki osmon ayoli Nut tomonidan qayta tug'ilishi bilan bog'laydilar. Shu bilan bir qatorda, boshqa tasavvurlar ham bo'lgan: masalan, Ra qayig'ida kunduzi osmonda g'arbiy tog'largacha suzgan, kechasi esa, boshqa qayig'ida yer ostida suzgan. Tungi suzish nihoyasiga yetgach, Ra yana kunduzgi qayig'iga o'tadi va tog'lardan o'tib yana osmonda paydo bo'ladi. Lekin o'tish uchun quyosh dushmani – ilon Apep bilan kurashishi kerak. Agar Ra kurashda yutsa, osmonga chiqadi. Bu hammani tiriltiruvchi va qo'riqllovchi kult juda erta mahalliy xudolar ahamiyati chegarasidan chiqdi va podsho sig'inishi bilan bog'liqligi sabab Ra butun misrliklarning davlat xudosi bo'ladi.

Geliopol shahri quyoshga sig'inish markazi bo'lgan. Misr tarixining oxirigacha davlat rasman quyoshga sig'ingan, agar qaysidir davrda boshqa bir xudo asosiy ahamiyatga ega bo'lganda ham, misrliklar uni tezda quyosh xudosi Ra bilan birlashtirganlar (Amon-Ra, Sebek-Ra, Mentu-Ra).

O'rta podsholik davridan boshlab, ya'ni Misrni Fiva nomi birlashtirgan davrda, Amon kulti katta ahamiyatga ega bo'ldi¹¹. Bu kult qayerdan kelib chiqqanligi aniq emas: bir tomondan Amon shubhasiz, tabiat ishlab chiqaruvchi kuchlari xudosi Minga yaqin; boshqa tomondan esa, Amon 15-yuqori Misr poytaxti Shmunu shahrining qadimgi xudolari orasida uchraydi. Amon kulti u yerdan Fivaga yangi sulolani va poytaxtni mustahkamlash uchun keltirilgan. Fiva xudolari Mut va Xensu uning xotini va o'g'li hisoblangan. Fiva bir necha asrlar davomida poytaxt bo'lganligi sababli, Amonga sig'inish ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan. Amonning ahamiyatini yanada oshirish uchun u Ra bilan birlashtirilgan va Amon-Ra nomi bilan u podsho kultiga mustahkam bog'lanadi va hatto yaratuvchi-xudo sifatida ham tanilgan. O'rta va Yangi podsholik davri boshlaridagi siyosiy vaziyat va kayfiyatga javoban Amon oddiy kishilar himoyachisi va homiysiga aylandi. Lekin uning asosiy xususiyati – bu

¹¹ История Востока. Восток в древности. В шести томах, том I. Стр. 177.

«xudolar podshosi», bosib olish va shafqatsiz hukmronlik qilish edi. Podshoning u yoki bu harakatlari Amonning xohishi deb tushuntirilgan va hatto uning nomidan tez-tez sud o'tkazilgan.

Podsho va uning rasman ilohiylashtirilgan hokimiyatiga sig'inish misrliklar dinining asosiy xususiyatlaridan biri hisoblangan. Qadim zamonlardan fir'avn podsho xudosi Xorning yerdagi elchisi deb hisoblangan. Xorning ismlari uning unvonlariga kirgan. Qadimgi podsholik davridayoq podsholar Raning o'g'illari hisoblangan, ularning ismlari esa, papiruslarda va yozma manbalarda doira bilan ajratilgan. Fiva katta siyosiy o'ringa ega bo'lgan va Amon misrliklarning ijtimoiy xudosiga aylangan davrda podsho uning o'g'li deb e'lon qilingan. Uning tug'ilishi ibodatxona devorlarida tasvirlangan. Fir'avn mamlakat va mustamlakalar bilan chegaralanibgina qolmay, u tabiat hodisalariga ham hukmronlik qilgan. Shuningdek, fir'avn davlatning ijtimoiy dehqonchilik bayramlarida asosiy rol o'ynagan: Nil toshqini davrida ko'tarilish haqidagi farmon bo'lgan papirusni suvga uloqtirgan, yer haydashni boshlab bergan, hosilni yig'ish davrida ekinning birinchi bog'ini kesgan.

Marhum podshoga sig'inish xudo Osiris bilan bog'liq bo'lgan. Osiris haqidagi mif turli manbalar asosida tiklangan. Unga ko'ra Osiris qachonlardir Misrda podsho bo'lgan va odamlarga dehqonchilik va bog'dorchilikni o'rgatgan. Uning akasi xudo Setx o'zi hukmron bo'lish uchun uni o'ldiradi. Osirisning o'g'li otasining merosi uchun kurashadi. Uzoq davom etgan bahslardan so'ng xudolar Xorni haqiqiy merosxo'r deb tan oladi, Osiris esa, yerosti saltanati hukmdoriga aylanadi. Osiris Nil daryosi suvini ifodalagan va arpa, uzum kabi o'simliklar bilan bog'liq bo'lgan. Qadimdan misrliklar tirik podsholarning Xor bilan aloqalari bo'lgani kabi marhum shohlarning ham Osiris bilan aloqasi bor deb ishonganlar.

Osirisga, asosan, Busiris va Abidosda sig'inishgan. Bu yerda toshqin davri oxirida Osiris taqdiri ko'rsatiladigan bayram o'tkazilgan. Bunda uning o'limi, Isidaning uning tanasini qidirishi, aza tutishi va ko'milishi ifodalangan.

O'limidan keyin, fir'avn Osirisga o'xshatilgan va hatto unga tenglashtirilgan. Bu e'tiqodlar piramidalardan topilgan marhum podsho marosimlari haqidagi matnlarda qayd etilgan. Bu, shuningdek, toj kiydirish marosimida podsho Xor, Osiris esa, mumiyolangan marhum podsho sifatida gavdalantirilishida ham namoyon

bo'ladi. Uzoq vaqt davomida Osiris podsholik xudolari qatorida bo'lgan, faqat Qadimgi podsholik davrining oxiri va ayniqsa, O'rta podsholik davridan Osiris barcha vafot etganlar xudosiga aylanadi¹². Nafaqat podsho, balki oddiy odam ham sehr-jodu yordamida Osirisga aylanishi va abadiy hayotga ega bo'lishi mumkin edi. Yerosti dunyosining mavjudligiga bo'lgan ishonch quyoshga sig'inish bilan aralashib ketgan. Ra ham Osiris kabi abadiy hayot manbai hisoblangan.

Yerosti hayoti haqidagi e'tiqodlar qadimgi va nisbatan yangi tasavvurlarning murakkab aralashmasi bo'lib, ko'pincha bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan yoki bir-birini rad etgan. Odamning bir nechta «joni» bo'ladi deb hisoblashgan. Ulardan biri – odamning egizi, ka – qabrda bo'lgan. Odam boshli qush kabi tasvirlangan Bu ba'zi maxsus marosimlar amalga oshirilganda tana birlashishi va murda tirilishi kerak edi. Buning uchun tanani mumiyolab saqlash va mustahkam qabr qurish kerak edi. Misrliklar qabrni toshdan yasaganlar yoki qoyalarga joylashtirganlar. Lekin ko'mish davrida marosimlar va murdaga yerosti dunyoda kerak bo'ladigan buyumlar hamda oziq-ovqat yetarli bo'lmagan. Abadiy hayotga ega bo'lish uchun doimiy ravishda qurbonliklar keltirish kerak edi. Kohinlar, qabr uchun xarajatlarni vorislar, birinchi navbatda, to'ng'ich o'g'il qilishi kerak bo'lgan. Shuning uchun podsho va mulkdor kishilar tomonidan yerlar ajratilgan bo'lib, ulardan marosimlarni o'tkazish uchun daromad kelgan.

Misrliklar e'tiqodi bo'yicha ism katta rol o'ynagan, uning yo'qotilishi yerosti hayotida to'g'rilanmas zarar keltirgan, shu sababli misrliklar uning saqlanib qolishiga ahamiyat berganlar. Ra va ilon to'g'risidagi mif xuddi shu e'tiqod bilan bog'liq. Unda Isida ayyorlik bilan Raning haqiqiy ismini bilib oladi va shuning bilan uning ustidan hukmronlikni o'rnatadi.

Yangi podsholik davrida bundan oldin aniq bo'lmagan yerosti sudi haqidagi tasavvurlarning shakllanishi nihoyasiga yetgan. Misrliklar uchun xarakterli bo'lgan sud g'oyasi etik va magik elementlar bilan bog'liq bo'lgan. Shunday qilib, gunohlarni tan olmaslik haqidagi yozma qaydnoma, go'yo ularning gunohini yo'q

¹² История Востока. Восток в древности. В шести томах, том I. Стр. 178.

qilgan, yer ostidagi Osiris sudida yurak taroziga tashlanganda tarozining muvozanatda turishi buni tasdiqlagan.

O'lim va undan keyingi holatni yerda mavjudlikning davomi deb hisoblaganlar. Bunga shunchalar ishonganlarki, hatto yerosti dunyoda kishini o'limdan saqlaydigan maxsus duolar ham mavjud bo'lgan. Marhumlar va tiriklar o'rtasidagi muloqot nafaqat qurbonlik va ibodat vaqtida, shuningdek, marhumga yozma shaklda iltimos va shikoyatlar qilinganda ham yuz bergan. Marhumlarning tiriklar ishiga aralashishi mumkinligi kundalik ish hisoblangan. Marhum baxtsizlik va kambag'allikda yordam bera oladi deb qattiq ishonganlar. Marhumlardan sud ishida yutish, kasalni davolash, nasl qoldirishni so'raganlar. Oxirgisi, ayniqsa, muhim bo'lib u marhumning odamlar orasida qolishini ta'minlagan.

Madhiyalar, yozma qaydnomalarda ko'pincha dunyoning qurilishi haqidagi fikrlar uchraydi. Bu haqidagi fikrlar har xil bo'lib, ularning yaratilish vaqti va joyi turlicha tushuntiriladi¹³. Yaratuvchi Atum haqidagi Geliopol mifi, shuningdek, Ptah haqidagi Memfis bashorati bilan bir qatorda, ibtidoiy okeanda tepalikning ko'tarilishi va unda quyosh xudosiga hayot bergan nilufar gullarining o'sishi haqidagi e'tiqodlar ham mavjud edi.

Shunga qaramay, Geliopol bashorati keng tarqalgan, chunki qadimda bu shahar siyosiy va diniy markaz bo'lgan. Unga ko'ra, Atum-Ra nomi ostida quyoshga birlashgan Atum, ilk xudolar juftligi: Shu – havo va Tefnut – namlik xudolarini tupurib tashlagan. Ulardan o'z navbatida, Geba – yer va Nut – osmon xudolari, ulardan esa Osiris, Isida, Setx vujudga kelgan. Bu xudolar Geliopol panteonida muhim o'ringa ega bo'lgan «Buyuk to'qqizlik»ni tashkil qilgan. Keyinroq, Misrda davlatchilik davri vujudga kelgach, Memfis bashorati paydo bo'ladi¹⁴.

Qadimgi Mesopotamiya. Mesopotamiya (Ikki daryo oralig'i) – Tigr va Yefrat orasidagi tekis viloyat, pastki va o'rta oqimda joylashgan.

Shimol bilan Sharqda Mesopotamiyani Arman va Eron tog' tizmalari, G'arbda Suriya sahrosi va Arab yarim dashti o'rab turadi. Janubda esa Fors qo'ltig'i oqib o'tadi.

¹³ История Востока. Восток в древности. В шести томах, том I. Стр. 179.

¹⁴ История Востока. Восток в древности. В шести томах, том I. Стр. 180.

Janubda qadimgi sivilizatsiya markazi joylashgan, u Qadimgi Vaviloniya deb nomlanadi. Vaviloniyaning shimoliy qismi Akkad yurti, janubida shavkatli Shumer joylashgan.

Mesopotamiyaning shimolida Assuri ham joylashgan. Birinchi Shumer manzilgohi taxminan mil. avv. IV ming yillikda Mesopotamiya janubiy chekkasida paydo bo'lgan. Lekin bu yerda birinchi shumerlar o'rnamagan, degan fikr yo'q emas.

Shunisi achinarliki, hammaga taniqli nom bilan, ayniqsa, Tigr etaklarida va Yevfratga – shumer tiliga umuman aloqasi yo'q. Shumerlar bu nomlarni akkad tilida gapiradigan qabilalardan o'zlashtirgan bo'lishi mumkin. Bu shundaymi yo'qmi aniq emas. Qisqa qilib aytganda, bu xalqning muammosi birgina tili bilan bog'liq emas.

Vaqlar o'tib shumerlar butun Mesopotamiyani egallashdi. Bog'doddan tortib, Fors qo'ltig'igacha. Shu paytgacha tushunarsiz edi – shumerliklar qayerdan kelishdi?

Shunday bo'lishiga qaramasdan, ular o'zlari Fors qo'ltig'ida joylashgan Dalmun orolidan Mesopotamiyaga kelishganiga ishontiradilar.

Shumer tili boshqa tillar bilan qarindoshlik aloqalarini o'rnatmagan. Shumerliklar tili o'zga etrusk, kavkaz, turk tillariga oz bo'lsa-da, o'xshamas edi; shumerliklar mixxatsimon yozuvni, g'ildirak va kulolchilik charxini ixtiro qilganlar deb hisoblanadi.

Ular birinchi bo'lib g'isht pishirishni va sug'orilish shahobchalarini qurishni o'rgandilar. Uzoq vaqlar Mesopotamiyaning shimoliy qismini Suriya cho'li va Old Osiyo qabilalari egallab yotishardi. Ular o'zlarini semitlar deb atashardi va chorvachilik bilan shug'ullanardi.¹⁵

Yuqorida aytganimizdek, semit qabilalarining tili akkad tili bo'lgan. Mesopotamiyaning janubiy hududida joylashgan semitlar babil tilida gaplashgan, shimoliy qismidagilar esa akkad tilining ossur shevasida gaplashgan.

¹⁵ Косидовский З. Когда Солнце было богом. –М., 1978, 78-80-бб.

Ko'p yillar shumerliklar semitlar bilan yonma-yon yashashgan. Miloddan avvalgi III ming yillik oxirida butun Janubiy Mesopotamiyani egallashdi. Ular shunday qilib, asta-sekin akkad tili butunlay shumer tilini siqib chiqardi. Shu tariqa dunyodagi qiziq tillardan biri butunlay yo'qoldi. Hammasi u darajada yomon bo'lgan emas edi. Uzoq yillar shumer tili davlat idoralarida qonuniy til bo'lib hisoblangan.

Bu til XXI asrgacha (miloddan avvalgi) davom etdi. Faqatgina bu mil. avv. II ming yillikda butunlay o'ldi. Lekin bu ularni o'z tillari bilan birga yo'qolib ketdi degani emas. Bunga qarshi shumerliklar madaniyati va dinini vavilonlar bilan saqlab qolishdi.

Shunisi qiziqki, ilk diniy va madaniy boyliklarni o'zlashtirib olib, ularga sodiq qolishdi. Miloddan avvalgi III ming yillikning oxirlarida g'arbiy semit chorvador qabilalari Mesopotamiyaga kirib kela boshlashdi. Ular amoreylar edi.

«Amur» - akkad tilida biror narsa anglatmaydi, faqatgina birgina Suriyada «g'arb» ma'nosini anglatadi. Amorada bir qancha qabilalar yashaydi. Ba'zi birlari sutiylar deb nomlangan. Akkadliklarda bu ko'chmanchi deb nomlanadi.

Dyali daryosining yuqorisida va Urum ko'li yaqinida hozirgi Eron Ozarbayjoni va Kurdiston hududida guti qabilalari istiqomat qilgan.

Mesopotamiya shimolida yoki shimoliy Mesopotamiyada ayni vaqtda xurritlarning Mitanni davlati paydo bo'ldi. Miloddan avvalgi II ming yillikda u Yaqin Sharq davlatlari orasida eng kattasi edi.

Albatta, Mitannida xurritlardan tashqari yana indoariy qabilalari ham istiqomat qilishardi. Katta sovet ensiklopediyasida indoaris tilini shunday talqin qilishgan: Hind (indoariys) tili, hind-yevropa oilasining qadimgi hind tarmog'idan kelib chiqqan.

Dard tili va eron tillari bilan yaqin qarindoshlik indoeron lingvistik jamiyatini yuksaltirgan.

Avval butun Hindistonning shimoliy qismi va Pokistonga, shuningdek, Seylon – Janubiy yarim orol Nepalga yoyildi.

Xurrit tili arman tog‘ tizmasida yashaydigan urart qabilalari bilan yaqin qarindoshlikdan paydo bo‘ldi.

Miloddan avvalgi III-II ming yillikda xurrit – urart qabilalari xiyla keng hududda istiqomat qilishardi. Ular Shimoliy Mesopotamiyadan Markaziy Kavkazgacha cho‘zilgan edi.

Vavilon va shumerliklar bu yurtni Subartu deb atashardi. Xurritliklar akkad mixxatsimon yozuvidan foydalanish bilan bir vaqtda akkad va xurrit tillarida ham yozishgan.

Taxminan mil. avv. II ming yillikda Shimoliy Arabistondan oromiy qabilalari Shimoliy Mesopotamiya, Shimoliy Suriya va Suriya cho‘llariga kirib kelganlar. Ular Janubiy-G‘arbiy Mesopotamiyada va G‘arbiy Suriyada uncha katta bo‘lmagan talay knyazliklarni tuzdi. Bir qancha vaqtlar o‘tgach, oromiylar Suriya va Shimoliy Mesopotamiyaning amor va xurrit aholisi bilan aralashib ketdi.

Miloddan avvalgi VIII asrda oromiy knyazligi hududini Ossuriya bosib oldi. Miloddan avvalgi VII asrda butun Suriyaliklar aramey tilida so‘zlashgan. Bu shunchaki yuz bergan emas. Oromiy tili yozma munosabatlarga ko‘proq qulay edi.

Miloddan avvalgi IX asrda Xaldey qabilalari Janubiy Mesopotamiyaga bostirib kirdi, tez vaqtda deyarli butun Vaviloniyani bosib oldi.

Oromiy tili Vaviloniyada eronliklar Mesopotamiyani bosib olgunga qadar mavjud bo‘ldi. Bu mil. avv. 539-yilda yuz berdi. Akkad tili esa faqat katta shaharlarda saqlanib qoldi.

Agar biz ancha oldinga qaytib, ya’ni ilk insonlarning anglash qobiliyatini ko‘rib p‘tsak, ilk eneolit kishisining anglash qobiliyati fikrlash va emotsional jihatdan ancha rivojlangan edi. Lekin bunda borliqni emotsional solishtirish metafora prinsipi bo‘yicha asosan umumlashtirish usuli bilan, ya’ni, ikki yoki undan ortiq narsalarning biror bir umumiy belgisiga ko‘ra o‘xshatish yoki tenglashtirish yo‘li bilan amalga oshirilgan (quyosh – qush: quyosh ham, qush ham uchadi; yer – ona). Shu yo‘sinda borliqning yaratilishini nafaqat metaforik (majoziy) tushuntiruvchi, balki emotsional kechinmalarni ifodalovchi miflar ham paydo bo‘lgan. Bog‘liqlik yetarlicha

isbotlanmaganda, amalda «simpatik magiya» qoʻllanadi, yaʼni mantiqan bogʻliqlikning qay darajada ekanligi ahamiyatga ega boʻlmaydi.

Shu bilan bir qatorda, odamlar oʻzlarining hayotiga, mehnatiga taʼsir qiladigan tabiat, hayvon va narsalarning «xususiyat»larini aniqlab, baʼzi qonuniyatlarni anglay boshlaydi. Lekin bu qonuniyatlar ularga qandaydir gʻayrioddiy mavjudotlar tomonidan yuborilgan degan fikrdan nariga oʻtmaganlar. Bu qudratli mavjudotlar ularning tasavvurida ideal bir narsa yoki ruh sifatida emas, balki real mavjud narsa sifatida gavdalangan. Shuning uchun, ularning xohishiga binoan harakat qilish, ularga xushomad qilish kerak deb hisoblangan. Qayd etish lozimki, oʻsha davrda mantiqan asoslangan yoki magik asoslangan harakatlarning barchasi: odam hayoti va ishlab chiqarish uchun bir xil foydali deb bilganlar. Ular oʻrtasidagi farq shunda ediki, mantiqiy taʼsir amalda empirik qarash bilan izohlansa, magik taʼsir mifologik tarzda izohlangan: u qadimgi odamning xudolar yoki ajdodlar qilgan biror ishini qaytarishni nazarda tutgan; chunki tarixiy oʻzgarishlar sekin rivojlangan oʻsha davrda xudolar va ajdodlar qilgan ishlarni takrorlash qonun darajasida boʻlgan. Bunday harakat va tushunchalar mezoni amaliy mantiqda qoʻllanmagan.

Magik faoliyat – tabiat qonunlariga emotsional, ritmik «xudolar» soʻzi, qurbonlik qilish, qator marosimlar oʻtkazish yoʻli bilan taʼsir oʻtkazishga harakat qilganlar. Bu jamiyat hayoti uchun foydali ijtimoiy mehnat kabi muhim hisoblangan¹⁶.

Neolit davrida atrof-muhitning baʼzi mavhum bogʻliqliklari va qonunlari haqida tushunchalar paydo boʻlgan. Ehtimol bu inson, hayvon, oʻsimliklarning harakatlari geometrik akslantirilgan tasvirlashda oʻz ifodasini topgan boʻlishi mumkin. Hayvonlar va odamlarning tartibsiz oʻyib tashlangan magik tasvirlarini mavhum naqsh (ornament)lar egallagan. Bunda tasvir hali oʻzining magik vazifasini yoʻqotmagan va shu bilan birga, odamning kundalik faoliyatidan ajratilmagan edi. Uy xoʻjaligi uchun kerak boʻladigan har bir buyumni yaratishda: bu idish yoki rangli taqinchoq, xudolar yoki ajdodlar haykali boʻlishidan qatʼiy nazar badiiy ijoddan keng foydalanilgan. Bu buyumlardan, ayniqsa, magik bayramlar yoki koʻmish

¹⁶ История Востока. Восток в древности. В шести томах, том I. Стр. 67.

marosimlarida (murda ulardan yerosti dunyosida foydalanishi uchun) ko'p tayyorlangan.

Uy, shuningdek, sig'inish buyumlarini tayyorlash jarayonida qadimgi ustani badiiy qobiliyat (buni sezish yoki sezmasligiga bog'liq bo'lmagan) boshqargan va shu bilan birga, rivojlangan¹⁷.

O'sha davr dunyoqarashi kabi, san'ati ham ularning e'tiqodlari (kult) bilan bezalgan. Qayd etish kerakki, Qadimgi Mesopotamiya ijtimoiy e'tiqodi haqida so'z ketganda, shumer dinini faqatgina tizim bo'lgan deyish qiyin. To'g'ri, hamma joyda umumiy koinot Xudolari qadrlangan: «Osmon» An (akkad. Annu); «Yer hukmdori» dunyo okeani xudosi Enki (akkad. Eyya); «Shamol hukmdori», yer kuchlarining xudosi Enlil (akkad. Ellil), u shuningdek, markazi, Nippurda bo'lgan shumer qabilalari ittifoqining xudosi; shuningdek, juda ko'p «ona-ma'budalar», Quyosh va Oy ma'budalari bo'lgan. Lekin har bir jamoaning o'z xudosi – homiysi kattaroq ahamiyatga ega bo'lgan. Don, chorva, uy olovi, yegulik ombori, kasallik va falokat bilan bog'liq son-sanoqsiz mehribon va yovuz xudolar bo'lgan. Ularning ko'pchiligi haqida turli jamoalarda turlicha, asosan, bir-biriga qarama-qarshi miflar hikoya qilingan.

Hamma xudolar uchun ham ibodatxonalar qurilavermagan, faqat asosiy jamoa homiysi hisoblangan ma'bud yoki ma'budalarga atab qurilgan. Ibodatxona yoki platforma devorlari bir-biridan teng uzoqlikdagi bo'rtma naqshlar bilan bezatilgan (bu usul keyingi davr qurilishlarida ham takrorlanadi). Ibodatxona uch qismdan iborat bo'lgan: markaziy qismi uzun hovli ko'rinishida bo'lgan. Uning ikki tomonidan ma'budlar tasvirlari simmetrik tarzda joylashtirilgan. Hovlining bir tomonida mehrob, ikkinchi tomonida qurbonlik qilish uchun stol bo'lgan. Bu davr Yuqori Mesopotamiya ibodatxonalari planirovkasi ham taxminan shunday bo'lgan¹⁸.

E'tiqodlariga oid matnlar qatoriga ajoyib poemalar: «Inananing jahannamga borishi»dan tortib to «Dumuzaning o'limi»gacha barchasida vafot etayotgan va tirilayotgan xudolar hamda marosimlar bilan bog'liq miflar aks ettirilgan. Sevgi ma'budasi Innin (Inana, akkad. Ishtar) cho'pon xudo (yoki qahramon) Dumuzini

¹⁷ История Востока. Восток в древности. В шести томах, том I. Стр. 68.

¹⁸ История Востока. Восток в древности. В шести томах, том I. Стр. 69.

sevib qoladi va unga turmushga chiqadi. Dumuzi ovda halok bo‘ladi va Ishtar uning ortidan yerosti dunyosiga boradi. U yerda Ishtarga 60 kasallik yuborgan va uni qorong‘ulikka mahkum qilgan Ereshkigalning tutquniga aylanadi. Yerda esa, bu paytda hayot to‘xtab qolgan, muhabbat bo‘lmagan, bemehrlik, sukunat hukm surgan. Bundan qo‘rquvga tushgan xudolar Ishtarni qaytarishni talab qiladilar va qiyinchilik bilan bunga erishadilar. Shuningdek, ular hayot suvini qo‘lga kiritadilar va ma‘buda yerga qaytgach, uni Dumuzining murdasiga to‘kadi va u tiriladi. Shundan so‘ng yerda hayot qayta jonlanadi.

Shumer adabiyotida yanada kengroq tarqalgan asarlar etiologik (ya‘ni, tushuntiruvchi) miflar bo‘lib, ularda dunyoning yaratilishi haqida tasavvurlar berilgan. Lekin ilk Shumerda olamning yaratilishi haqida arzigulik fikr bo‘lmagan (yoki ular yozib qoldirilmagan).

Shumer adabiyotining yana bir sevimli mavzusi – yerda hayotning tashkil topishi, unda tartib va yaxshilikning paydo bo‘lishidir. Bu mavzu yerdagi tartibni nazorat qilishi kerak bo‘lgan xudolarning yaratgan narsalari, xudolar iyerarxiyasining tashkil topishi, tirik mavjudotlar tomonidan yerning o‘zlashtirilishi va hatto, alohida qishloq xo‘jaligi qurollarining yaratilishi haqidagi juda ko‘plab hikoyalar bilan to‘ldirilgan. Asosiy yaratuvchi xudolar odatda Enki yoki Enlil bo‘lgan.

Ko‘plab etiologik miflar muzokara shaklida yaratilgan. Muzokara u yoki bu xo‘jalik sohasi, yoki xo‘jalik qurollari o‘rtasida boradi, ular bir-birlariga o‘zlarining qanchalik ajoyibligini isbotlashga harakat qiladilar.

Bundan tashqari, ba‘zi miflarda xudolarning odamlarga qarshi kurashlari aks ettirilgan. Chunki xudolar ko‘pligi, qudrati, donoligi, faolligidan xavotirga tushadilar. Shumer miflariga ko‘ra xudolar odamlarni kamaytirishga harakat qilganlar: Ular odamlarga yovvoyi hayvonlar, qurg‘oqchilik, 60 turli kasalliklar, ular orasida eng dahshatlisi – vaboni, yuborganlar, shuningdek, o‘zaro urush keltirib chiqarganlar. Xudolar odamlarning tillarini aralashtirib yuborganlar va ular bir-birlarini tushunmay qolganlar. Lekin eng katta baxtsizlik qariyb barcha odamlarning qirilishiga sabab bo‘lgan «butun dunyoni suv bosganligi» haqidagi mif hisoblangan.¹⁹

¹⁹ История Древнего Востока. Под ред. В.И.Кузищина. –М., 1979, 181-б.

Ikkidaryo oraliq'i sivilizatsiyasining eng qadimgi yodgorliklari er. avv. IV ming yillikka borib taqaladi. U shumerlarga – qadimgi semitlarga bo'lgan Mesopotamiya aholisiga tegishli edi. Qadimgi shumer jamoalari – alohida kichikroq posyolkalar bo'lib, dehqonchilik rayonlari bilan qurshab olingan edi. ular birlamchi territorial uyushmalar bo'lib, o'zlarining jamoaviy kultlariga ega bo'lganlar. Har bir jamoada xudo – saqlovchi bo'lib, u o'sha joyning hukmdori bo'lgan hamda jamoa knyazi – patesi misolida o'zining xizmatkoriga ega bo'lgan. Patesi bir vaqtning o'zida ham kohin, ham hukmdor edi.

Eng qadimgi davrda shumerliklarning jamoaviy kulti – er. avv. III ming yillikning boshlarigacha – jamoaning mustaqil kulti bo'lgan. Ushbu jamoalar ancha avvalroq mayda urug' yoki hududiy guruhlardan tashkil topgan. Ayrim misollarda jamoa (qabila) patronlarining obrazlarini tashkil topganligini ko'ramiz. Qadimgi Lagash shahrida saqlovchi – xudo Ningirsu sanalgan (Girsu hukmdori). Girsu esa kichikroq posyolka bo'lib, Lagash sostaviga kelib qo'shiladi. Boshqa bir Lagashga kelib qo'shilgan posyolkaning homiysi ma'buda Bau edi. Bu posyolkalarning birlashuvi natijasida, ma'buda Bau Ningirsuning xotini degan tasavvur paydo bo'ldi.

Shumer davrida xuddi shu yo'l orqali hamda mahalliy tasavvurlarning bir-biriga qo'shilishi va kombinaesiyalashuvi natijasida umumxalq xudolari vujudga keladi. Ular orasidan ulug'vor uchlik: xudolar Anu, Ea va Enlil ajralib turar edi. Ushbu obrazlarning kelib chiqishi murakkab va noaniqdir. Anu – shumercha «an» (osmon) – osmonni ifoda etgan. Enlil nomining etimologiyasi bahsli, shumercha «lib» (shamol, ruh, soya) epitelar oladi: «toshqin podshosi», «shamol tog'i», «mamlakat shohi» va boshqalar. Xudo Ea dengiz bo'yi jamoalarida ulug'langan, u baliqchilar homiysi sanalgan. Uni odam – baliq shaklida tasvirlashib, afsonalarda insonlarni boshqa xudolardan asrovchi sifatida gavdalanadi. Mamlakatning siyosiy birlashuvida ushbu uchta xudo umumxalq ilohlariga aylanadi. Ularga epitelar muhrlanib qoladi: Anu – olis va tushunib bo'lmaydigan, Enlil – qudratli va viqorli, Ea – avliyo va donishmand.

Ular bilan mahalliy ilohlar orasidagi geniologik bog'lanishlarni kohinlar izlay boshladilar. Ningirsu Enlilning o'g'li, ma'buda Innina Sinning qizi, keyinchalik Anuning rafiqasi va hokazo deb e'lon qilinadi.

Shu narsa qiziqki, eng ilk davrlarda ham xudolar antropomorf tarzda tasvirlangan. Misrdan farqli, Mesopotamiya zoomorf xudolarni bilmagan; odam-baliq ko'rinishidagi xudo Ea bundan mustasno. Mesopotamiya hayvonlar kultini ham qariyb bilmagan. Umuman olganda, totemizm izlari sust ko'rsatilgan. To'g'ri, muqaddas hayvonlar – ilon, ho'kizlar bo'lgan, albatta. Masalan, muqaddas ho'kizlar ko'pincha odam boshli qilib tasvirlangan.

Semitlar davriga kelib, qadimgi shumer xudolari o'zlarining nomlari bilan ko'pincha saqlanib qolgan. Shuning bilan birgalikda yangi nomlar bilan qator xudolar paydo bo'ladi. Ayrim vaqtlarda semit nomlari eski shumer xudolariga beriladi, ayrimlari ikkala nomni ham uzoq saqlaydilar. Xuddi shunday ma'buda Inninuni Ishtar (akkadliklarda – Eshtar, assiriyaliklarda Istar, g'arbiy semitlarda – Ashtart, Astarta) deb, Larsa xudosi Utu quyosh bilan bog'liq bo'lib, Shamane – quyosh (yahudiylarda – Shemesh, arablarda – Shams, amorey va assiriyaliklarda Samsu, Samos deb atashganlar. Ningirsu xudosini Ninurtu deb ataydilar.

Bobil shahrining ko'tarilishi bilan uning homiysi xudo Marduk birinchi o'rinni egallaydi. U xudolar to'dasining boshida turadi. Bobil ibodatxonalaridagi kohinlar Mardukning boshqa xudolar ustidan yuqori turishi to'g'risidagi afsonalarni to'qiydilar. Buning ustiga ular monoteistik ta'limotning bir ko'rinishini tuzmoqchi bo'ladilar, ya'ni Marduk xudosidan boshqa xudo mavjud emas, boshqalari esa Mardukning turli ko'rinishidir, deb e'tirof etishadi. Masalan, Ninurta – Marduk kuchi, Nergal – urush, jang Marduki, Enlil – hokimiyat Marduki va hokazo. Monoteizmga bunday intilish siyosiy markazlashuv natijasida yuz beradi: Bobil podsholari bu vaqtga kelib, butun Ikkidaryo oralig'ini qo'lga kiritish boshlashadi va Old Osiyoning qudratli hukmdorlariga aylana borishadi. Biroq monoteizmni o'rnatish imkoni bo'lmadi, chunki mahalliy kultlarning kohinlari qarshilik bildiradilar, avvalgi xudolar oldingidek qadrlanadi.

Boshqa Qadimgi Sharq davlatlaridagi kabi Ikkidaryo oralig'ida ham hokimiyat vakili diniy sig'inish obyektiga aylanadi. Shumer patesilari kohinlar ham edi: ular xudolarning suyukli vakillari, ular nomidan idora qilish huquqiga ega kishilar edi.

Barelyeflarda podsholar, odatda, xudolar bilan yuzma-yuz turgan holda hamda xudolar atributlari bilan tasvirlanganlar. Naramsin stelasida podsho shoxli bosh kiyimda iloh sifatida tasvirlangan. Xammurapi qonunlari stelasida podshoning Shamash xudosi qo'lidan qonunlarni olayotganligi aks etgan.

Davlatning rasmiy xudo – homiylari va podsho kultlari bilan birga boshqa kultlar, ya'ni o'ta qadimgi va xalq kulti saqlanib qolgan edi. Avvalambor, dehqonchilik kultlari, hosildorlik va o'simlik kulti. Ayol ilohalar, hosildorlik ma'budasi – Ishtar hurmat qilingan. Ishtarining erkak qo'shimchasi sifatida Dumuzi (Tammuz) – o'simliklar timsoli aks etib, u to'g'risidagi afsonada uning o'limi, yer osti dunyosiga tushishi, yer yuziga qaytib kelishi. Ushbu miflarning bo'laklari ma'lum, xolos. Dumuzi suv ilohi Apsuning o'g'li sifatida ko'rinadi va to'liq ismi – Dumu-zi-Apsu, ya'ni Apsuning haqiqiy o'g'li ma'nosida. Dumuzining o'limini ayollar faryodlar bilan eslash udumi bo'lgan. Yoz oylari (iyun-iyul) Dumuziga bag'ishlangan.

Buning barchasidan shu narsa aniq bo'ldiki, Dumuzi – dehqonchilik xudosi, uning o'limi va tirilishi – dehqonchilik jarayonini namoyon qiladi.

Bobillik kohinlar halok bo'layotgan va hayotga qaytgan Dumuzining kultini o'zlarining Marduk xudosiga o'tkazishga harakat qiladi: bir matnda aynan Marduk (Bel) yer osti podsholigi darvozasi oldida halok bo'ladi va xotin-ma'budasi uni hayotga qaytaradi.

Semitlar dumuzi – Tammuzni «Hukmdor» - Adoni (grek va lotin formasi - Adonis) deb ataydilar, uning kulti keyinchalik butun Old Osiyo bo'ylab tarqaladi.

Eng qadimgi davrdan boshlab, jamoalarning birlashuvi va birinchi davlatlarning vujudga kelishi bilan kohinlarning alohida tabaqasi paydo bo'ladi. Kohinlar – ibodatxonalar xizmatchilari bo'lib, o'z qo'llarida anchagina boylikka

ega bo'lgan, jamiyatning ta'sir ko'rsatuvchi qatlami edi. Ular mashhur oilalardan kelib chiqqan. Kohinlik unvoni merosiy bo'lgan. Ulardan marosimiy talablar so'ralgan, ya'ni ko'pgina dinlarda uchraydigan talab – jismoniy kamchiliklarsiz bo'lishlari kerak edi.

Kohinlar bilan bir qatorda kohin ayollar ham bo'lib, shuningdek, ibodatxona xizmatchi ayollari ham bo'lishgan. Ulardan ko'pchiligi sevgi ma'budasi Shitar kulti bilan bog'liq bo'lib, ibodatxona fohishalari (iyerodulalar) bo'lganlar. Boshqa bir tomonda esa kohin – xaram xodimi bo'lib, ular ayollar kiyimlarini kiyishgan va ayollar raqslarini ijro etishgan.

Kult qat'iy tartib va qoidalarga bo'ysundirilgan. Bobil ibodatxonalari, odatda, zinapoyali bo'lib, salobatli edi.

Kohinlar bir vaqtning o'zida olimlar ham edi. Ular bilimlarini monopolizatsiyalashtirib, irrigatsiya – dehqonchilik xo'jaliklarini tashkillashtirib, yuritishga qaratilgan edi. Daryolarning mavsumiy toshqinini kuzatish uchun sistematik ravishda samo jismlarini kuzatish kerak edi. Shuning uchun Bobilda astronomiya fani erta rivojlanadi.²⁰

Yuqoridagi vazifalar bilan shug'ullanayotgan kohinlar, albatta, bu voqea-hodisalarni din va mifologiya bilan bog'laydilar. Xudolarning astralizatsiya jarayoni erta kechadi. Xudolar va ma'budalar, mahalliy homiylar osmon jismlari bilan o'xshatilina boshlaydi. Larsa xudosi Utu Shamash nomi bilan butun mamlakat unga sig'inadi; Ur xudosi – Sin oy bilan bog'liq; boshqa buyuk xudolar – planetalar; Nabu – Merkuriy, Ishtar – Venera, Nergal – Mars, Marduk – Yupiter, Ninurda – Saturn. Aynan xudolarni planetalar nomi bilan nomlash bobilliklardan greklarga, rimliklarga o'tib, hozirgacha saqlanib kelinmoqda. Yil oylari ham xudolarga bag'ishlangan.

Eng qadimgi davrda Bobilda kosmogonik afsonalar bor edi. Ayniqsa, bir mifologik matn yettita sopol tablichkalarda saqlangan bo'lib, «Enuma elish» deb

²⁰ Рубинштейн Р.И. Древний Восток. –М., 1974, 82-86-бб.

nomlanadi. Afsonada dunyoning boshlanishi, xudolar, ularning dunyoni tartibga solishdagi kurashlari aks etadi.

Bu yerda ibtidoiy kaos – Apsu haqida gapirilib, yer osti qa'ri va yer osti suvlarini jamlagan erkak obrazi; Tiamat – to'rt oyoqli va qanotlari bor maxluqsifat ayol obrazi; Mummu – ular tomonidan bo'ysundirilgan ruh. Lamu va Laxamu – eng keksa xudolar juftligi. Afsonada aytilishicha, xudolarni kaos kuchlari bilan kurashdilar. Eng qiziqarlisi shundaki, Tiaman o'zining ko'p sonli yovuz kuchlarini xudolarga qarshi ko'targanida xudolar unga qarshi chiqishga qo'rqadilar. Faqatgina Marduk xudolarni himoya qilishga kirishadi hamda g'alaba qozongan taqdirda barcha xudolardan ustun bo'lish shartini qo'yadi. U qo'rqinchli maxluq Tiamatni o'ldirib, tanasini ikkiga bo'ladi hamda yer va osmonni vujudga keltiradi. Shundan bo'yon Marduk xudolar orasida birinchi bo'ladi. Bu afsona bobillik koinlar tomonidan tuzilib, xudo Mardukni boshqalardan yuqori turishini ko'rsatadi.

Boshqa afsonaviy matnlarda Adap ismli birinchi insonning paydo bo'lishi (uni xudo Ea yaratgan) haqida gapiriladi; uning xatosi tufayli boqiy umrni yo'qotganligi to'g'risida so'z boradi.

Ayrim afsonaviy motivlar mashhur Gilgamesh eposida saqlangan. Bu yerda birgina epizodga nazar solsak, Gilgameshning o'zi ajdodi bo'lmish Ut-Napishtim bilan «dunyoning chetida» uchrashishi. U Gilgameshga qo'rqinchli toshqin haqida gapirib beradi: xudolar yer yuziga toshqin jo'natadilar; ushbu toshqindan Ut-Napishtim oilasi va hayvonlari bilan qutulib qolishadi. Eaning maslahati bilan ulkan qayiq yasaydi va jon saqlab qoladi. Ushbu afsonaviy motiv va uning alohida qismlari «Bibliya»dagi toshqin voqeasiga o'xshash. Bu esa yahudiylarning bobilliklardan o'zlariga singdirgan afsonalari deb qarashimiz mumkin.

Osmon xudolari va diniy qahramonlar tasavvurlaridan tashqari, Ikkidaryo oralig'i xalqlari orasida quyi ruhlarga ishonch-e'tiqod kuchli edi. Ular ko'pchilik holda yovuz, halokatli edi. Ruhlar – yer ruhlari, havo, suv ruhlari – Anunaki va Igish: insonni turli kasalliklarga chalintiruvchi, kulfatlar keltiruvchi ruhlar. Ular

bilan kurashish uchun kohinlar turli duolarni tuzganlar. Eng xavfli boʻlib, «yer qaʼrining yetti ruhi» turli xil kasalliklar manbai hisoblangan. Duolarda ularning ismlari va mutaxassisliklari sanab oʻtiladi: Ashakku – insonning boshiga zarar keltiradi, Namtaru – tomoq, yovuz Utukku – boʻyin, Alu – koʻkrak va hokazo kasalliklarni chaqiradi.

Yovuz kuchlardan, ruhlardan saqlanish uchun koʻplab duolardan tashqari, tumor-apotropeyalardan foydalanishgan. Apotropeya sifatida yovuz kuchlarning oʻzlarining tasvirlari oʻta dahshatli qilib chizilgan hamda uni koʻrgan ruh qoʻrqib, qochib ketadi deb hisoblashgan.

Bundan tashqari, turli-tuman sehrgarlik marosimlari oʻtkazilib turilgan. Duolar bilan bir qatorda ushbu marosimlarning tavsifi matnlarda bizgacha koʻplab yetib kelgan. Ular orasida davolovchi, saqlovchi, zarar keltiruvchi, harbiy marosimlar mavjud. Davolovchi sehrgarlik odatda xalq tabobati bilan chambarchas bogʻliq boʻlgan. Ayrim retseptlarda ularni bir-biridan ajratib boʻlmaydi, biroq sehrgarlik, afsungarlik ayrimlarida yaqqol namoyon boʻladi.

Masalan, koʻz kasallanganda sehrgarlik retseptidan bir misol keltiramiz: «7 ta va 7 ta tugun tugasiz, duoni oʻqiysiz, qora yungdan boʻlgan tugunni kasal koʻzingizga bogʻlaysiz, oq yungdan boʻlgan tugunni sogʻlom koʻzingizga bogʻlaysiz...»

Harbiy sehrgarlikka oid matndan fragment keltiramiz: «dushman podshoga va uning mamlakatiga qarshi boʻlsa... podsho qoʻshinning oʻng tarafida yurishi kerak. (Qurbonlik keltirib) yogʻdan dushmanning tasvirini yasaysan, yuzini yerga qaratasan (qochishi uchun)». Bundan keyin dushman figurasi yoqiladi yoki yoʻq qilinadi. Odatda jodugarlar oʻzining qurbonining tasvirini yoqishgan, yerga koʻmishgan, choʻktirishgan – bu esa endi harbiy sehrgarlik boʻlmay, balki zarar keltiruvchi afsungarlik hisoblanadi.

Bobilda mantika tizimi – turli xil fol koʻrish tizimi oʻta rivojlangan edi. Kohinlar orasida alohida mutaxassis – folbinlar (baru) bor edi; ularga nafaqat alohida shaxslar, balki podsholar ham murojaat qilishgan. Baru tush taʼbirini

aytishgan; hayvonlar, qushlarning uchishi, suvdagi yog‘ dog‘larining formasi bo‘yicha va hokazo fol ochishgan. Biroq Bobildagi mantikaning eng xarakterli jihati shunda ediki, qurbon qilingan hayvonlarning ichki a‘zolari, ayniqsa, jigari orqali fol ochish edi. Ushbu usulning texnikasi (gepatoskopiya) o‘ta mohirona bo‘lib, jigarning har bir qismi o‘z nomiga ega edi, grafik sxemalari mavjud edi, inson jigarining sopol modellari fol belgilari bilan yasalgan edi. Keyinchalik ushbu texnika xetlar va etrusklardan rimliklarga o‘tgan.

O‘zga dunyo to‘g‘risidagi bobilliklarning tasavvurlari o‘ta aniq emas edi. Mavjud ishonchlarga ko‘ra, o‘lganlarning ruhlari yer osti dunyosiga ketadi, u yerda hech bir umidsiz hayot kechiradilar. Bobilliklar dinida narigi dunyo to‘g‘risida tasavvurlari rivoj topmagan edi. Mesopotamiya xalqlarining butun diniy e‘tiqodlari yerdagi hayotga qaratilgan bo‘lib, u insonga narigi dunyoda sovg‘a-salom va tinchlikni va‘da bermagan. Bu xarakterli jihat edi. Misr dinida ham o‘ta sust va keyingi davrdagina insonga yerdagi yaxshi ishlari uchun narigi dunyo yaxshi hayot va‘da beriladi. Sinfy jamiyatlar tarixining ilk etaplarida bunday momentlar yo‘q edi, bunday qarashlar keyinchalik sinfiy qarama-qarshiliklarning keskinlashuvi natijasida paydo bo‘ladi.

Ossuriya imperiyasi davrida (er. avv. VIII-VII asrlar) Mesopotamiya dinida o‘zgarishlar kam edi. Ossuriyaliklar iqtisodga ham, madaniyatga ham qariyb hech bir yangilik olib kelmaydilar. Zabt etilgan Bobil aholisidan uning yuqori madaniyatini, yozuvini, shuningdek, dinini ham o‘zlariga singdiradi. Ossuriya hukmronligi davrida o‘sha Shumer-bobil xudolari hukmronlik qiladi. Bobilning qudratli kohinligi o‘zining pozitsiyalarini saqlab qoladi. Bosqinchi ossuriyaliklar ulardan to‘plangan bilimlarni, duolarni, diniy matnlarni, afsonalarni o‘rganishgan. Shumer-bobil diniy mifologik matnlarning ko‘pchilik qismi ossuriyaliklarning redaksiyasida «Anishurbanipal kutubxonasi»dan yetib kelgan. Lekin xudolar panteoni ossuriyaliklarning qabilaviy va milliy ilohlari bilan to‘ldiriladi. Ularning qabilaviy xudosi Ashur (Assur) – tipik jangavor xudo – davlatning rasmiy homiysiga aylanadi. Bu esa barcha oldingi kulturning saqlanishiga xalaqit

bermadi. Ashur kultining keng tarqalishiga, ossuriyalik kohinlarning qudratining sustligi edi. Ashurning bosh xizmatchisi, podshoning o'zi bo'lib, u ushbu xudo homiyligi ostida bo'lgan. Ashur kulti sof davlat kulti hisoblangan. Ossuriyaliklar orasida momaqaldiroq xudosi Ramman (Adad) kulti ommabop edi.

Ossuriyaliklar ayrim Bobil xudolariga harbiy xarakterdagi jihatlarni o'tkazmoqchi bo'ladi. Hosildorlik va muhabbat ma'budasi Ishtar, ularda endilikda qahrli harbiylar ma'budasiga aylanadi.

Ossuriyaliklar hukmronligi qulashi bilan Ossuriyaning xudolari, ayniqsa, Ashur xudosi o'z mavqeilarini yo'qotadi. Mesopotamiya dinida ularning izlari ham qolmaydi.

Bobil dinining o'zi uzoq va mustahkam holda saqlanib keladi. Bu esa bobillik kohinlarning keng qamrovli bilimlari tufayli, ayniqsa, astronomiya, xronologiya, vaqt o'lchovi, metrologiya kabilarni bilishlari tufayli edi. Bular bilan birgalikda diniy-mifologik tizim mamlakat tashqarisida ham tarqaladi. U yahudiylar, neoplatoniklar, ilk xristianlar diniy tasavvurlariga ta'sir etadi. Antik va ilk o'rta asrlar davrida bobillik kohinlar o'ta chuqur donishmandlik bilimdonlari sanalishgan. Ayniqsa, Bobil demonologiyasi o'zidan keyin ancha zaharli urug'larni qoldiradi: butun o'rta asrlar Yevropa fantasmagoriyalari ular asosida bo'lgan, ya'ni yovuz ruhlar, «jodugarlar»ni ta'qib qiladigan inkvizitorlarning asl ildizlari ushbu manbalarga kelib taqaladi.²¹

Shumerliklar yashagan butun vaqtda ham diniy sistema shakllangan emas. Shumerliklar o'sha vaqtdagi aksariyat xalqlar kabi ko'p xudolarga sig'inishgan, u yoki bu tabiat hodisalaridan himoya qilishadi deyishgan.

Jasorat qilgan eng ahamiyatli shumer xudolarini sanab o'tamiz:

An (shum. osmon) – osmon jismlari va yulduzli osmon xudosi, butun panteon xudolarining boshi sanaladi.

²¹ Токарев С.А. Религия в истории народов мира. –М., 1965, 357-370-66.

Anzu (shum. Bulutlar bilan uchuvchi shiddatli qush) – arslon boshli, burgut panjali qush tangri, insonlar taqdiriga javobgar panteon vakili, Lagash va Urukda homiy tangri.

Antu (shum. mahbuba) – Anning sadoqatli xotini.

Aruru (shum. unumdorlik) – xudolarning va odamlarning oqsoqoli.

Asarluxi (shum. kuch va hayot beruvchi) – Vavilon homiysi.

Ashshurit – Ashshurning sadoqatli xotini.

Ashshur – bir xil nomdagi shaharlar homiysi.

Ban – harbiy xudo Ningirsuning sadoqatli xotini, Lagashning to‘la huquqli xo‘jayin ayoli.

Bel (shum. hokim) – shumer xudosi, Enlilning diniy matnlardagi ikkinchi bir nomi.

Belit – Mardukning sadoqatli xotini.

Gatumdug (shumer ayoli) – odam yaratuvchisi.

Geshtinanna (shum. osmon jismlarining eng yorqin qismi) – uzumchilik homiysi.

Gilgamesh (shum. qahramonlik ko‘rsatish) – ilohiylashgan uruk hukmdori, Shumer va Vavilonning eng mashhur qahramonlik eposi. Yer osti olamining farmonlari bilan boshqaruvchisi.

Girra (shum. yorug‘) – chaqmoq xudosi.

Gula (shum. shavkatli) – shifo beruvchi homiy, Asarluxining sadoqatli xotini.

Damkina (hukmdorning vafodor xotini) – xudo Enkinning sadoqatli xotini.

Dumuzi (shum. Abzuning sadoqatli o‘g‘li) – xudo Inanning vafodor turmush o‘rtog‘i, bahor va qurbonlik qilish homiysi.

Jababa – shumerliklarning Kesha shahri homiysi, harbiy iloh.

Igigi (shum. osmon jismlarini yelkasida ko‘tarib yuruvchi) – xudo, osmon homiysi.

Inana (shum. osmon jismlarining to‘la huquqli xo‘jayini) – shonli urushlar va sevgi xudosi, shumer shahri Urukning homiysi.

Ishtar (shum. boshqaruv so‘zlari) – taqdir belgilovchi va diplomat homiysi.

Ishkur (shum. havo almashinuvi) – shamol, yomg‘ir, momaqaldiroq, dovul, bo‘ron tarqatuvchi xudo.

Ishtar (shum. jasur) – shavkatli urushlar va sevgi ilohi, bir vaqtda ham erkak, ham ayol uchun.

Ishxara (shum. yaratuvchi) – yaratuvchanlik va sevgi ilohi.

Kulla (shum. ko‘tarilish) – quruvchilarning homiysi, ilohi.

Lugalshulpala (shum. yoshlik) – chehrasi Yupiternikiga o‘xshash bo‘lgan iloh.

Marduk (shum. nur sochuvchi buzoq) – Vavilonning oliy ilohi.

Nabu (shum. buloq) – donishmandlik va xat-savodxonlik ilohi, Mardukning o‘g‘li.

Nammu (shum. buzg‘unchilik, vayron) – tartibsizlik ilohi, Enkning onasi.

Nanna (shum. osmon jismlarining xo‘jayini) – Ur shahri homiysi, Oy xudosi.

Nanshe (shum. uyqu va xotirjamlik) – mahrumlik homiysi, tush sharhlovchisi.

Naru (shum. suv) – daryo, ko‘l, dengiz homiysi.

Nergal (shum. Muqaddas Shakar hukmdori) – Yerosti dunyosining xo‘jayini.

Ninazu (shum. hayot xo‘jayini) – jon beruvchi tabiatga va jon oluvchi iloh.

Ningirima (shum. buloq xo‘jayini) – afsungarlik homiysi.

Ningersu (shum. xonim) – Lagashning to‘la huquqli egasi, dehqonchilik va urush homiysi.

Ningishxida – so‘nggi yo‘lda odamlarga yo‘l ko‘rsatuvchi xudo.

Ninzadim (shum. yaraqlash) – zargarlik homiysi.

Ninigilamga (shum. daraxtga ishlov beruvchi) – duradgorlik homiysi.

Ninkarrar (shum. shifobaxsh) – shifobaxshlik homiysi.

Ninlil (shum. tirikchilik) – Nippura xo‘jayini va homiysi.

Ninmesharra (shum. Ue xonimi) – Enmes’harrining sadoqatli xotini.

Nipurta (shum. yer xonimi) – dehqonchilik homiysi.

Ninshubur (shum. to‘ng‘iz) – ikki jinsli xudo. Inanni va Ananing sadoqatli xizmatkori.

Nisaba (shumercha – oziq-ovqat xonimi) – boshoqli o‘simlik homiysi, bilim olish, xat-savod, osmon belgilari homiysi.

Nusku – Nippur shahrida Ninurte ibodatxonasini boshqaruvchisi.

Siris – Pivo pishiruvchilarning homiysi. Ninkasining o‘g‘li.

Utu (shum. quyosh) – Quyosh va adolat ilohi.

Xendursagga (shum. o‘liklarni boshqaruvchi) – yer osti dunyosi darvozaboni.

Xumbaba (shum. o‘lim) – serjahl maxluq.

Sarpanitu (shum. zeb-ziynat) – Vavilon xo‘jayini, Mardukning sadoqatli xotini.

Shara (shum. azob tortuvchi) – Umm shahrining xo‘jayini va urushlar xudosi.

Enlil – Qirol hokimiyati va boshqa yerlar homiysi.

Erbilulu – sug‘orish sistemasi va kanallar homiysi.

Enki (shum. yer xo‘jayini) – yer osti xo‘jayini va san’at homiysi.

Enkidu – Gilgameshning sadoqatli xizmatkori.

Enmesharra (shum. Menning janobi) – keksa xudo, yer osti olamida yashovchi)

Ennugi – Buyuk Yer osti dunyosining xo‘jayini.

Ereshkigal (shum. yer xo‘jayini) – Nergulening sadoqatli xotini bo‘lishi bilan bir vaqtda yer osti dunyosi xudolaridan.

Erra – o‘lim va vayronagarchilik xudosi.²²

Sehrgarlik shumerliklar hayoti va tirikchiligida katta o‘rin tutgan. Ularga himoyalash uchun tilsim va tumorlardan foydalanish odatiy hol. Eng qadimgi shumerliklar tumorlari Mesopotamiyadan topilgan. Ularning tayyorlangan vaqti miloddan avvalgi 26-25 asrlarga to‘g‘ri keladi. Ular turli xil hayvonlarning tasvirlangan haykallaridir.

Tumorlar ichida boshqalari ham uchray turadi:

- serhosillik ramzi;
- erkak kishining ramzi;
- serpushtlik ramzi: ho‘kiz, baqa, cho‘chqa, echki va ot;
- g‘alaba va kuchlilik ramzi: arslonlar va qoplon.

Shumerliklarning tumorlariga qanday qaramaylik sehrgarlik va afsungarlik belgilarini ko‘ramiz. Shumerliklarning sehrgarlari tumorlarning kuchi o‘zining xo‘jayinini o‘limdan, qo‘rqinchli balolardan, falokatlardan asrashiga ishonardi.

Keyingi vaqtlarda Mesopotamiyada tamg‘alar silindr va konussimon nusxada tayyorlana boshlandi. Xususan, shu tamg‘alarning o‘zi tumorlar hisoblangan. Ularda muqaddas ramzlar tasvirlangan.

Ko‘pincha ular oltin va qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan:

- giatsint (qizil yoki sariq rangli tosh);
- aqiq;
- zumrad;
- topaz (qimmatbaho asl tosh).

Ishlatiladigan toshlar o‘zgacha yo‘l bilan tanlab olinardi. Shumer afsungarlari toshga qaraganda muqaddas olamga bog‘liqlikni ko‘rishi kerak edi.

Yanvarda tug‘ilganlar «sehrgar» afsungarlar fikricha, giatsint va tog‘ xrustalidan,

Fevraldagilar – amestist va sapfirdan yasalgan.

Martdagilar – yashma va geliotropdan

²² Гросс П.Талисмания и мифология древнего мира – Ростов-на-Дону, 2007, 17-21-66.

Apredagilar – karped va sapfirdan

Maydagilar – agal yoki topazdan

Iyundagilar – izumrud yoki opaldan yasalgan.

Iyuldagilar – oniks yoki rubindan yasalgan.

Avgustdagilar – maxsus izumruddan yoki oniks, karneddan yasalgan.

Sentabrdagilar – xrezolitdan yasalgan.

Oktabrdagilar – berill yoki akvamarindan yasalgan.

Noyabrdagilar – topaz va giostintdan yasalgan.

Dekabrdagilar – xrizopraz yoki rubindan yasalgan tumorlarni taqib yurishlari kerak edi.

Akvamarin. Ko‘kimtir va zangori sovuq rangli; akvamarin ko‘rish uchun foydali. Akvamarin suv bilan muloqotda bo‘ladigan odamlarga eng yaxshisidir.

Jangda g‘alabani, sayohatda xavfsizlikni ta‘minlovchi – akvamarin toshi hisoblanadi.

Olmos. Olmos kasallik va og‘riq ustidan g‘alaba, jasurlik, mustahkamlik, begunohlik ramzi hisoblanadi.

Olmos shumerliklar fikricha, shahvat va g‘azabni bo‘ysundiruvchi, o‘ziga ishonch va kuch beradigan tosh, ikki urushayotgan tomonlarning qay birida katta olmos toshi bo‘lsa, o‘sha tomon g‘oliblikka erishiladi deb hisoblangan.

Olmos qo‘liga taqqan ayol tug‘ruqdan yengil qutiladi. Kim olmos ko‘zli tumor taqib yuradigan bo‘lsa, butun dunyoda uni so‘zi qadrlanadi, yomonlikdan qo‘rqmaydi, hamma narsalarni eslab qoladigan bo‘ladi, har doim xursand yuradi.

Bunday tumorga ega odam chaqmoq zarbasidan yaralanishdan qo‘rqmasa ham bo‘ladi.

Ametist. Ametist – mastlikdan osmondagi xudolar ramzi tushirilgan bo‘lsa, panas bo‘lishdan saqlardi.

Ametistli tumorlarni sevimli odamlarga sovg‘a qilishgan, chunki ular yomon o‘ylarni yo‘qotar, hayolni, fikrlashni yaxshilardi va barcha ishlarda yordam beradi hamda shu bilan bir qatorda sepkil va husnbuzarlarni yo‘qotadi deb hisoblashgan.

Feruza. «Baxt toshi» - uni Sharqda shunday deb atashardi. Feruza sadoqatli sevgi ramzi. U baxt toshi boʻlib, er-xotinini yarashtiradi. Koʻp ilmiy izlanishlar boʻyicha Feruza sevgidan oʻlgan odamlarning suyagidan paydo boʻlarkan.

Agar feruza rangi oqaradigan boʻlsa, uni sovgʻa qilgan odamni yuragi unga nisbatan toraygan boʻladi.

Yaqinda oʻladigan odamning qoʻlida Feruza xiralashadi. Ertalab turib Feruzaga qaralsa, tashvishdan ozod boʻladi.

Shumer afsungarlarining mushohadasiga koʻra, koʻrishni yaxshilaydi, ayniqsa, ertalablari.

U yurakni quvvatlashtiradi, qoʻrqinchdan uzoqlashtiradi. Kimda feruza toshli tumori boʻlsa, dushman bilan kurashda gʻolib boʻlardi, ilondan himoyalaydi, zarbasidan asrardi. Kimning feruza toshli tumori boʻlsa, hech qachon pulda kamchiligi boʻlmagan. Uning soʻzini atrofdagilar oʻzgacha diqqat bilan eshitishgan.

Giatsint. Giatsint – xaridor va artistlarning toshi hisoblanadi. Uning egasini har yerda omad kutadi, yurakdan qabul qilishardi.

Qadimgilar aytishicha, u tinch uyqu chaqiradi va yaxshi tushni va kuchni koʻpaytiradi.

Marvarid. Marvarid – ezgulik va umrboqiylik belgisi boʻlib, baxt va tinchlik olib kelgan.

Marvaridning yarqirab turishi tumor egasining sogʻligʻiga va kayfiyatidan kelib chiqadi.

Marvarid egasining oʻlimidan soʻng xiralashadi.

Zumrad. Shumerliklar mushohadasiga koʻra, zumrad koʻrishni yaxshilaydi va aqlni yorqinlashtiradi.

Zumrad taqqan inson uyqusizlik va sogʻinchdan yiroq boʻladi. Yomon tush koʻrmaydi. Kasallik uni yengib olsa, u sinadi.

Zumrad koʻpincha folbinlarga yordam bergan.

Opal. Vafosizlik va injiqlikni bildiradi. U baxtsizlik keltiradi deb hisoblashgan.

Rubin. Jo‘shqin va qizg‘in sevgi ramzi. Sharqliklar fikricha, rubinli tumor taqib yurish odamlar ichida buyuk bo‘lish va ularning hurmatiga sazovor bo‘lishni bildirgan.

Qon ketishini to‘xtatadi, jarohat va tutqanoqdan asraydi, havoni tozalaydi, chaqmoq urushidan asragan, havoni o‘zgartirgan, yomon ruhlarni haydaydi.

Yerda paydo bo‘ladigan tosh boshlanishida rangsiz bo‘ladi, keyin sariq rangni oladi. Yashil, ko‘k va oxiri qizil rangiga kirib pishadi.

Aytishlaricha, Rubin har ming yillarda o‘z rangini o‘zgartiradi. Oxiri yetti ming yildan keyingina to‘liqlikka ega bo‘ladi.

Sapfir. Donishmandlik va kamtarlik, sadoqatlilik toshi hisoblanadi. Sapfir ko‘zli tumor taqib yuradigan insonni hasaddan melanxoliklikdan asraydi. Yurakni quvnatadi, taqdirning va atrofdagilarning mehrini o‘ziga qaratadi.

Serdolik. Bu tosh atrof-muhit xataridan, zilziladan asraydi. Uni taqib yurish qon ketishni to‘xtatgan.

Yantar. Yoshlarga kuch-quvvat bag‘ishlab, yomon ko‘zdan asragan. Badanning sarg‘ayishidan, siqilishdan asrar va yurak urushi hamda qon aylanishini yaxshilaydi.

Agar farzand kutayotgan ayol yantarni taqib yursa, uning tug‘rug‘i yengil kechadi.²³

Qadimgi Xitoy. Qadimgi Xitoy sivilizatsiyasining asosiy xususiyati, uni savodxonlik va o‘qimishlilikka sig‘inish tashkil etishida edi. Qadimgi Xitoy falsafiy qarashlarining asosiy yo‘nalishi gumanitar omilning muhimligidan tashqari, insonni tabiat gultoji deb tan olinishida edi. Inson zakovatining qadr-qimmati, inson tabiatining mehribonligi konfutsiylik ta’limoti g‘oyalarida keltirilgan. Dao falsafasining mohiyati bo‘lgan ekologik fikrlashning aktualligini

²³ Гросс П.Талисмания и мифология древнего мира – Ростов-на-Дону, 2007, 24-28-66.

esa, butun insoniyat faqat bugungi kunlarga kelib tushuna boshladi. Buyuk ijod namunalari Qadimgi Xitoy dunyosiga she'riy dialektik dunyoqarashni berdi.

Qadimgi Xitoyda davlat va sinfiy jamiyatning vujudga kelishi va rivojlanishi ahamiyatli darajada ideologiya va madaniyatning rivojlanishiga sabab bo'ldi²⁴.

Ilk falsafiy tasavvurlar er. avv. VIII asrga oid bo'lgan «Xunfan» («Buyuk reja») traktatida o'z aksini topgan. Unda besh «element» – suv, olov, daraxt, metall, tuproq to'g'risida ta'limotlar bayon qilingan. Tayszi, in va yan hamda dao ta'limotlarida besh «element» haqidagi g'oyalar kosmogonik miflardan kelib chiqqan. Kosmogonik miflar ichida ilk, tartibsiz holatdan tabiat va insonning paydo bo'lishi to'g'risidagi asosiy konsepsiya, bo'linish va aylanish berilgan. Ulardan birinchisi ilk ikki unurning boshlanishi, tabiat ruhlari In va Yanning yaralishi hamda Yan osmonni, In esa yerni boshqara boshlaganligi va ular birgalikda odamlarni yaratganliklari haqidagi mifdir. Ikkinchisi barcha mavjudotlarning paydo bo'lishi bu transformatsiya natijasidir deb tushuntiradi. Odam Nyuy ismli ma'buda tomonidan loydan yaratilgan.

Yana bir mashhur miflardan biri Pangu haqidagi mif bo'lib, u birinchi odam hisoblanib samoviy tuxumdan chiqqan. U bolg'a bilan tuxumni ikkiga bo'lgan hamda barcha yengil va toza narsalar osmonga ko'tarilgan, og'ir va iflos narsalar esa pastga tushgan va yer tashkil topgan. Pangu vafotidan so'ng uning tanasidan dunyo yaraladi: ko'zlaridan – quyosh bilan oy, qo'l-oyoqlaridan – dunyoning to'rt tomoni, qonidan daryolar, terisi va tuklaridan – daraxt va o'tlar, tishlari va suyagidan – metall va toshlar, teridan – yomg'ir va shudring, chaqnoq ko'zlaridan – chaqmoq, ovozidan – momoqaldiroq, nafasidan – shamol va bulutlar, soqoli va sochlaridan – yulduzlar to'plami paydo bo'lgan. Bu mifning boshqacha talqinlari ham mavjud²⁵.

Xitoyning diniy strukturasi Shan-In davrida (mil. avv. 2-ming yil.) vujudga kelgan. Ularda ham xudolar ro'yxati ancha uzun bo'lgan va yer sharining boshqa hududlari kabi ular ham xudolari uchun qonli qurbonliklar (odamlarni ham) keltirishgan. Uzoq vaqt davomida Xitoyda asosiy xudo Shandi hisoblangan. Inlar uni nafaqat oliy xudo, balki o'zlarining buyuk ajdodi deb hisoblashgan. Inlarning

²⁴ История Востока. Восток в древности. В шести томах, том I. Стр. 462.

²⁵ История Востока. Восток в древности. В шести томах, том I. Стр. 463.

fikricha, Shandi fir'avn yoki kohin ko'rinishida ularni shunchaki boshqarmagan, balki o'z xalqiga g'amxo'rlik qilgan. Shandiga ko'pincha qanday qilib hosilni ko'paytirish mumkinligi haqida va harbiy masalalarda murojaat qilganlar. Shandining avlodlari hisoblangan In sulolasi hukmdorlari ancha katta maqbaralarda kurollar va otlar, xotinlari va qullar, ro'zg'or buyumlari va yeguliklar bilan dafn etilgan. Bularning barchasi Shandi avlodining yo'li boshqa dunyoda tekis va muhtojliklarsiz bo'lishi uchun qilingan. O'lgan Van (yerosti dunyosida Shandi ruhiga yaqin xudolar)larga qurbonlik keltiriladigan kunlarda Xitoy xudojo'ylari ma'lum miqdordagi odamlarni kechirishni so'raganlar. Oliy xudolar qatoriga, shuningdek, Budda, Lao-Szi, Konfutsiy singari real tarixiy shaxslar kirgan. Bular orasida xitoyliklar, so'zsiz, Konfutsiyni birinchi o'ringa qo'yganlar. Xitoyning katta-kichik shaharlarida unga atab ibodatxonalar qurilgan va ularning soni bir yarim mingga yetgan. Budda, Lao-Szi, Konfutsiydan tashqari xitoyliklarning ijtimoiy xudolari qatoriga donishmand Xuandi, uning aql bo'yicha safdoshi Fusi, Maytreyya, Guan-in, Uch podsholik davridan boshlab muhim sarkarda bo'lgan urush xudosi – Gun-di, buyuk Nefrit imperatori Yuyxkan Shandi, shuningdek, kambag'allar xudosi Tudi-sheni kabilar ham kirgan²⁶.

Konfutsiylik mil. avv. VI-V asrlarda vujudga kelgan. Uning asoschisi shandun podsholigida tug'ilgan Li – O'qituvchi Kun hisoblanadi. Konfutsiylik ta'limoti qadimiylikni targ'ib qilishi va ajdodlarga, shuningdek, totemlarga sig'inishning katta ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Ta'limotda mifologik va ijtimoiy-antropomorfik g'oyalarning ta'siri saqlanib qolgan. Tabiat hodisalari hukmdorning faoliyati va jamiyatning ruhiy-axloqiy holatiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq degan tasavvurlar mavjud edi. Konfutsiylikning butun mohiyati Osmon – Yer – Inson modelida namoyon bo'ladi. Konfutsiylik osmon (Tyan)ni oliy xudo, osmon xohishi yuqori axloqiy kuchga ega bo'lgan (Tyanmin) deb hisoblagan va hukmdorlarni osmon o'g'illari (Tyanszi) kabi ilk chjou an'anaviy diniy (ateistik) tasavvurlarini qabul qildi.

²⁶ Гросс П. Талисмания и мифология древнего мира. Ростов-на-Дону, 2007. стр. 151-152.

Konfutsiylik ta'limoti bo'yicha jamiyat va davlat tuzumi dunyo tuzilishi kabi o'zgaras va abadiydir. Odamlarni osmon axloqan mukammal (ularga faqat aristokrat bo'lib tug'ilganlarni kiritgan) «boshqaruvchilar» - «olijanob kishilar»ga (szyunsm) va boshqaruvchilarni «to'ydirishi va ularga xizmat qilishi» kerak bo'lgan; yuqoridan jismoniy mehnat qilish buyurilgan tabiatan axmoq kishilar, «boshqariluvchilar» - «past (tabaqali) kishi»larga (syaomin) bo'lib bergan. Konfutsiylik diniy rituallarga va ijtimoiy-iyerarxik tuzumga, ya'ni, quyidagilar yuqoridagilarga, kichiklar kattalarga so'zsiz bo'ysunishini talab qilgan²⁷.

Konfutsiylikka qarama-qarshi ravishda daosizm ta'limoti vujudga kelgan. Qadimgi daosizmning ijtimoiy ideali «tabiiylikka» qaytish, ya'ni, ibtidoiy holat va jamoaviy tenglikka – «oltin asr»ga qaytish edi. Daolar boylikka va aslzodalik dabdabalariga, xalqni kambag'allikka olib boradigan soliqlarga, hukmdorning zolimliklariga qarshi isyonlar qiladilar. Daolar «buyumlarning tabiiyligini» buzmaslikka chaqiruvchi «uvey» nazariyasini ilgari surdilar. «Daodszin» doimo «Dao donoligining mukammalligi – faoliyatning majburiy emasligidir» deb ta'kidlardir.

Qadimgi daolar yerning obyektivligini tan olganlar, osmonni ilohiylashtirishga qarshi bo'lganlar, osmon ham yer kabi tabiatning bir bo'lagi deb o'rgatganlar. Lekin, Laoszi xudolarning mavjudligini inkor qilmagan. Daolarning ta'kidlashicha, dunyo kichik bo'linmas bo'laklardan tashkil topgan va doimo o'zgarib turadi, hamma narsa o'zining qarama-qarshi ko'rinishiga o'tadi: «Bo'sh to'ladi, egri-to'g'riga, eski-yangiga aylanadi». Inson buyumlarga o'zi, tabiiy holatda rivojlanishiga qo'yib berishi kerak.

Daolar ajdodlar va ularning e'tiqodlariga sig'inganlar. Osmonga, yerga, tog'larga, kamalakka va boshqa tabiat hodisalariga qurbonlik keltirishga qarshi bo'lganlar²⁸.

«Chjango» davrida konfutsiylikka qarshi harakat qilgan moistlar maktabi shakllandi. Uning asoschisi Mo Di edi. Konfutsiylardan farqli ravishda moistlar

²⁷ Токарев С.А. Религия в истории народов мира. –М., 1965, 465-б.

²⁸ Токарев С.А. Религия в истории народов мира. –М., 1965, 467-б.

osmon xohishini bilish mumkin va inson qismati taqdirga bog'liq emas, uni odamning o'zi yaratadi deb ta'kidlaydilar.

«Chjango» davrida individual adabiy ijod namunalari paydo bo'lgan. Badiiy prozaning rivojlanishida masallar asosiy rol o'ynagan. She'riyatning ilk namunalari ham shu davrga oid. Xalq og'zaki an'analari, birinchi navbatda syujetlar va obrazlar xazinasiga boy bo'lgan miflar qadimgi Xitoy og'zaki manbasi hisoblanadi. Chu podsholigida Xitoyning birinchi shoiri Buyuk Syuy Yuan (348-278) yashagan. Uning she'rlari nafis shakli va chuqur ma'nosi, mifologik obrazlarga boyligi bilan ajralib turadi.

Konfutsiylik va daosizm falsafiy ta'limotlarining diniy ta'limotga aylanish g'oyasi, Xan imperiyasida chuqur madaniy tanaffusning yaralishini muqarrar qilib qo'ydi. Biroq so'nggi xan sivilizatsiyasi uchun qadimgi Xitoy hududida paydo bo'lgan etik dinlar emas, balki buddaviylik dini asosiy ideologik va ijtimoiy-psixologik o'rinni egalladi. Xitoyga eramizga yaqin paytda kirib kelgan buddaviylik tez orada ma'lum doiralarda o'z o'rnini topdi. Biroq qadimgi xitoy imperiyasi qulagach, buddaviylik dini butun Xitoyda tarqalib ketdi va uning keyingi davrida hamda o'rta asr madaniyatining rivojida o'z ta'sirini ko'rsatdi.²⁹

Xitoy dini to'g'risidagi eng qadimgi arxeologik va yozma manbalar er. avv. ikki minginchi yillikka, Shan (Shi) sulolalar davriga to'g'ri keladi. Bu davr patriarxal-quldorlik davlatining primitiv shakli bo'lib, hali urug'chilik munosabatlari kuchli saqlangan edi. O'sha davrdan ko'plab fol ochish suyaklari saqlanib qolgan: hayvonlar kuraklari, toshbaqa qalqonlari. Ularning soni 100 mingdan ziyod: 30 foizi Qadimgi Xitoy iyerogliflari bilan qoplangan bo'lib, ularni o'qish o'ta qiyinchiliklarni tug'dirdi. Yozuvlar qisqa, ularning ko'pchiligida fol ko'rmoqchi bo'lgan odamning savollari yozilgan edi. Savollar dehqonchilik, ob-havo, urush, ov, qurbonliklar va hakovzolarga taalluqli. Yozuvli yoki yozuvsiz suyaklar va toshbaqa qalqonlarni olovga tashlashgan hamda kohin-folbin vujudga kelayotgan siniqlarning formasini ko'rib javob bergan; bunday usul Osiyo xalqlarining ko'pchiligiga hozirda ham ma'lum. Yozuvlarda ko'pincha «xudo» (Di

²⁹ Токарев С.А. Религия в истории народов мира. –М., 1965, 470-б.

yoki Shandi) esga olingan. Masalan: «Bu yil xudo yetarlicha yomg'ir yuboradimi?», «Van (Knyaz) shaharni garovga qo'ymoqchi, xudo bunga rozimi?» va h.k.

Shu bilan birga, arxaik, totemistik topinishlar ham mavjud edi. Keyingi davr matnlaridan Shanlarning totemi syuan'nyao qushi (qaldirg'och?) bo'lganligi ma'lum. Sinolog G.G.Stratanovich manbalarda yana qator totemistik topinishlarni o'rganadi. Mfol suyaklarida qabilalarning totemistik topinishlari ko'rsatilgan: ot qabilasi, it qabilasi, qo'y qabilasi. Totemlar ham hayvonlar, ham o'simliklar bo'lgan bo'lishi mumkin edi, keyinchalik ular folklorda va diniy simvolikada aks etadi.

Kohin – professionallarning mavjudligi to'g'risida ma'lumot bo'lib, ular turli mutaxassisliklarga ega edilar: bu – folbinlar, ish – ob-havo to'g'risida yozuv olib boruvchilar, u – jodugarlar, chju – qurbonlik keltiruvchilar.

Diniy topinishlar va marosimlarda sinfiy bo'linish keskin ko'rinadi. O'lgan podshohlar va knyazlar dabdaba bilan ko'milib, ularning yonlariga o'ldirilgan (qurbon qilingan) qullarni ham qo'yganlar.

Shan – in' davridagi diniy tasavvurlar tug'risida ma'lumot kam.

Keyingi davr – Chjou (er.old 1122-255 yy) ning diniy e'tiqodlari haqida ma'lumotlar ko'proq. Chjou qabilasi In' qabilasini qulatgandan so'ng, bir muncha kengroq va qudratliroq davlat barpo etadi. Bu vaqtga kelib yirik quldorlar ajralib chiqadi. Mashhur urug'lar o'zaro kurashib, Chjou podshosini hamma vaqt ham tan olishmagan. Knyazliklar – udellarda (Si, Lu, Sunn, Sao va b.) boshqaruvning byurokratik tizimi kiritiladi. Asta-sekinlik bilan yozuv rivojlanadi. O'qimishli chinovnik – xizmatchilar qatlami tashkil topadi. Ushbu qatlam orasidan, o'z qo'liga nafaqat knyazlik boshqaruvi, balki yozuv madaniyatini ham monopolizatsiya qila boshlagan, siyosiy, falsafiy, diniy-etik tizim shakllanadi.

Ayrim falsafiy tizimlar diniy ta'limotlar rivojlanishining asosini tashkil qildi. Keyinchalik ular Xitoyning davlat dinlari bo'ladi – konfutsiylik va daosizm³⁰.

³⁰ Токарев С.А. Религия в истории народов мира. –М., 1965, 273-275-66.

Konfutsiylikda ruhlar, narigi dunyo to'g'risidagi ta'limotlar, g'ayritabiiy tasavvurlar to'g'risida ham kitoblar mavjud. Konfutsiylikning o'zi ham diniy marosimlarni bajargan va ularni albatta bajarishga undagan hamda o'rgatgan. U o'limidan so'ng ilohiylashtirilgan va imperatorning o'zi unga bag'ishlab diniy marosimlar o'tkazgan.

Qadimgi va yangi konfutsiylikda professional kohinlik yo'q edi. Marosimlarning o'tkazilishi davlat chinovniklari, oila va urug' boshliqlari zimmasiga yuklatilgan.

Konfutsiylik kulti uning mazmuni jihatidan oddiy, qonunlashtirilgan odatlarni tashkil qilib, ular qadimgi oila-urug' marosimlari asosida bunyodga kelgan.

Ular orasida ota-bobolar ruhiga sig'inish konfutsiychilik kultining asosiy mazmunidan biri edi. Ota-bobolar kulti Xitoy rasmiy dini bo'lmay, xitoy diniy topinishlar va marosimlarning asosiy qismi bo'lgan. Har bir oila o'zinig oilaviy ibodatxonasiga yoki sig'inish xonalariga ega bo'lib, oilaviy urf-odatlar, marosimlar o'tkaziladi. Har bir urug' – shi – o'zining urug' ibodatxonasi bo'lib, urug'ga asos solgan kishiga bag'ishlab quriladi. Ushbu ibodatxonalardagi qurbonliklar va duolar o'qilishi oila boshlig'i yoki urug' oqsoqollari bilan amalga oshiriladi. Qadimda uycha-ibodatxonalar qabrlar oldida qurilib, qurbonliklar keltirilgan. Xon sulolasi davriga kelib, ota-bobolar uchun ibodatxonalar (myao), odamlarning ijtimoiy ahvoliga qarab quriladi. Oddiy odamlar myao qura olmas edilar, qurbonliklarini o'zlarining uylarida keltirishardi. Chinovniklar bittadan myao, zodagonlar – uchttadan, knyazlar – beshtadan, imperator – yettita myaoga ega bo'lar edi.

Aytishlaricha, birlamchi davrda ibodatxonalarga o'likni aks ettirgan qo'g'irchoq yoki haykalni qo'yishgan. Keyinchalik qora tablichkalar qizil iyeroglif yozuvlari bilan qo'yila boshlagan. O'lgan insonning ruhini tablichkaga singdirish uchun qator marosimlar o'tkazilgan. Ular yillar davomida ham o'tkazilib, turli xil xotirali sanalarda ularni olib eslab turilgan.

Mavjud tuzumning mustahkamligi – konfutsiychilikning asosiy tamoyili edi. Bu patriarxal monarxiyaning mafkurasi bo‘lib, Xitoy feodalizmining asosiy mafkurasi edi.³¹

Xitoyda toza davlat dinidan tashqari, parallel ravishda boshqa din – daosizm vujudga keladi. Daosizm konfutsiychilikdan keskin farq qiladi. Dao dini o‘zining ibodatxonalariga, muqaddas kitoblariga, xizmatchi-kohinlariga ega edi. Dao kohinlari oilali va monaxlik darajasiga bo‘lingan. Dao iyerarxiyasi boshida oliy kohin yoki patriarx (tyan-shi) turgan. Uning sulolasi eramizning II asriga borib taqaladi. U ko‘pchilik daoslarga o‘xshab, oilaviy hayot kechiradi, lekin omma orasida hurmatga sazovor bo‘lgan edi. U nafaqat kohinlar ustidan, balki ruhlar ustidan ham hukmronlik qilgan, deb hisoblashardi. Tyan-shi rezidensiyasi, qarorgohi «Ajdarho – yo‘lbars» tog‘larida (Szensi provinsiyasi) joylashgan edi.

Dao kohini aslida folbin, muqaddas narsalar sotuvchi, sehrgarlik urf-odatlarini bajaruvchi edi. Konfutsiychilik urflaridan farqli, Dao kohinlari va monaxlari sehrli duolar va marosimlarni o‘tkazish, mantika bilan shug‘ullanish edi. Dao dini o‘ziga o‘ta ko‘p miqdorda xalq diniy topinishlarini singdirgan edi. Daoslar shamanlarning raqslarini ham ijro etishardi.

Bu ikki din bilan birgalikda Xitoyda uchinchi din keng ommabop bo‘ladi. Chetdan kirib kelishiga qaramay, buddizmni keng xalq ommasi qabul qiladi hamda Fo ta’limoti deb ataydi. Buddizm Xitoyga birinchi bo‘lib, eramizning I asrida xinayana ko‘rinishida kirib keladi, biroq u ko‘p ushlanib qolmaydi. Buddizmning ikkinchi bor paydo bo‘lishi maxayana formasida bo‘lib, u eramizning V asr boshlariga to‘g‘ri keladi. Shu vaqtdan e’tiboran, ko‘pgina quvg‘inliklar va tazyiqlarga qaramasdan, teng huquqli mamlakatdagi uchinchi din formasini oladi. Aslini olganda, haqiqiy buddistlar Xitoyda kamchilikni tashkil qiladi. Haqiqiylari Budda monaxlari hisoblanadi. Lekin qariyb barcha xitoyliklar Dao va konfutsiychilik bilan bir qatorda buddistlar urf-odatlarini ham bajarib kelishadi.

³¹ Рубинштейн Р.И. Древний Восток. –М., 1974, 155-б.

Budda monaxlariga ko‘pincha ko‘mish marosimlarini o‘tkazib berishda murojaat qilishadi.

Konfutsiychilik, daosizm va buddizmning tinch-osoyishta yashab kelishi bilan bir vaqtda ular o‘rtasida kurash boradi; bu kurash e‘tiqod uchun emas, balki siyosiy ko‘rinishni oladi. Konfutsiychilikdagi chinovniklar va daosizm kohinlari mansab uchun, siyosatdagi ta‘sir uchun, foyda oladigan joylar uchun raqobatlashishgan. Lao Szi ta‘limotiga qaraganda, Dao kohinlari, davlat ishlariga aralashib, hokimiyatni egallashga intilganlar. Xitoy hayotida shunday davrlar bo‘lganki, boshqa guruhlar ittifoqiga tayangan kohinlar, konfutsiychilik tarafdorlarini siqib chiqarib, hokimiyatni o‘z qo‘llariga olishgan. Hatto, yirik to‘ntarishlar ular qatnashuvisiz bo‘lmagan. Masalan, sof konfutsiychilikka asoslangan Xan sulolasi, qator dehqonlar qo‘zg‘oloni natijasida ag‘dariladi, ulardan eng kuchlisi «sariq belbog‘lilar» qo‘zg‘oloni edi.

Xitoy xudolari panteoni o‘ta ko‘p va murakkabdir. Unga boshqa dinlardan olingan xudolar va Xitoyning mahalliy ilohlari kirgan. Asosiy xudo bo‘lib, osmon imperatori Shan-di deb e‘tirof etilib, uni osmon – Ten bilan hamohanglikda ko‘rishadi. Biroq osmon kulti eski Xitoyda monopoliyalashtirilgan edi. Imperatordan tashqari biror bir kimsa osmon uchun qurbonlik qilishga haqqi yo‘q edi. Boshqa odamlar ikkinchi darajali xudolargagina qurbonlik qilishardi.

Konfutsiychilik va daosizmdagi xudolar o‘zaro chegaralanmagan. Ko‘pincha ular bir xilda bo‘lgan.

Ikkinchi darajali xudalardan – boylik xudosi Say – Sheyen; so‘ngra hunarmandlarga homiylik qiluvchi ilohlar. Alohida hududlarning homiylari, o‘lib ketgan buyuk shaxslar, chinovniklar, mandarinlar va hakoza ham muhim o‘rin egallashgan. Dehqonlar uchun asosiy o‘rinda dehqonchilik xudolari turgan. Xitoyliklarning topinishida ajdarholarning o‘rni baland: ko‘p sonli ruh-ajdarholar (lun-shen) yomg‘ir va suv manbalarini boshqargan. Ajdarholardan kattasi Lun-van

(«ajdarholar knyazi») imperator bilan bogʻlangan va uning kultini imperatorning oʻzi boshqargan.³²

Dehqonchilik Xitoy iqtisodi asosini tashkil qilgan va unga alohida davlat ahamiyat bergan. Dehqonchilik kulti koʻpgina xalqlarda sof dehqon xarakterda edi; xitoyliklarda rasmiy davlat kulti jihatlarini oladi. Ushbu kultning bosh obyekti Shenun («Ilohiy dehqon») boʻlib, u afsonaviy imperatordan biri edi hamda unga dehqonchilikni paydo qilishgan deb qarashgan. Unga alohida qurbonlik keltiradigan joyni Pekinda qurishib, imperator bayramona qurbonliklarni oʻzi keltirgan. Har bahorning boshlarida muhim davlat tantanalari boʻlib, u birinchi yer haydash marosimi edi. Imperatorning oʻzi eng hurmatli zodagonlar qurshovida, yerning muqaddas hisoblangan uchastkasida omoch bilan yer hayday boshlagan.

Xalq ishonchlari va kultlarida tu-di – mahalliy ruhlarning oʻziga xos oʻrinlari bor. Ularga atab kichik-kichik ibodatxonachalar qurilishi; ularga yomgʻir yogʻishi, hosilning moʻl-koʻlligi, turli ofatlardan saqlashi haqida sigʻinishgan. Har bir shaharda oʻz shahar homiysi Chen-xuan hurmatlangan. Imperator Xitoyida urush xudosi – Guan-dini eʼzozlangan.

Sehrgarlik marosimlari orasida Geo – mantika tizimi alohida ahamiyat kasb etgan. Geomantika – yerning xususiyatlari, aniqrogʻi, joy, atrof-muhitning xususiyatlari haqidagi fol koʻrishlar edi. Xitoycha fen-shuy («shamol va suv»). Aqidalarga koʻra har bir oy yaxshi va yomon kuchlar taʼsirida boʻladi. Maʼlum bir koʻrinishga ega boʻlgan qandaydir bir tepalik hamma narsaga taʼsir koʻrsatadi. U bilan qoʻshni boʻlgan har qanday tirik yoki oʻlik jonzotlarga, predmet, narsalarga taʼsir koʻrsatadi. Ayrim vaqtlarda Xitoy tarixida butun boshli shahar va qishloqlar boʻsh, egasiz qoladi; fen-shuy kohinlari bu yerlik aholiga joyning nomaqbul ekanligini, yoki, aksincha, maʼlum bir joylar ijobiy taʼsir koʻrsatishini aytib, u joylar odamga serob boʻlgan. Ayniqsa, koʻmish marosimi bilan bogʻliq joyning fen-shuyini bilish kerak boʻlgan, chunki ota-bobolarni yaxshi joyga koʻmish kerak edi. Shuning zamirida Dao kohinlari va folbinlari orasidan alohida professiya –

³² История Востока. Восток в древности. Т. I. –М., 1997, 432-433-бб.

fen-shuy bo'yicha mutaxassislar chiqishadi. Ularning o'rgatuvchilari bo'yicha xitoyliklar ko'pincha o'zlarining o'lgan qarindoshlarini «baxtsiz» qabrdan, «baxtliroq» qabrga olib qo'yadilar.³³

Fen-shuy tizimidan tashqari mantikaning boshqa turlari qo'llanilgan. Turli xil fol ochish usullari bor edi. Masalan, savol qog'oz bo'lagiga yoziladi, tezlikda ibodatxona mehrobida yoqib yuboriladi, kohin esa javobni qumga yozadi.

Xitoyliklarda dao tasavvurlari bilan bog'liq va saqlanib qolgan qadimgi ishonishlar mavjud bo'lib, unda iffatli holda homilador bo'lishlik to'g'risidagi totemistik qarashlar bor edi. Ular birinchi imperatorlar bilan bog'liq afsonalarga taqaladi: Fu-si imperatorning onasi, afsonaga ko'ra, uni, bahaybat odamning qadamini bosganda homilador bo'lganligi aytiladi; imperator Shen-nun – tog' ruhi, imperator Xuan-de – chaqmoq yorug'ligidan, imperator Yao – qizil ajdarhodan, faylasuf Lao-Szi – uchar yulduzdan va h.k. paydo bo'lishgan, degan tasavvurlar mavjud.

Dao kultida oxiratdagi hayot to'g'risidagi tasavvurlar katta rol o'ynagan. Daoslarning diniy tasavvurlariga ko'ra, har bir odamda ikkita jon bo'ladi: si – tanadan ajralmaydigan hayot val in – tanadan ajraladigan jon. O'limdan so'ng lin go'y (chiziq) ga, ya'ni mashhur bo'lmagan odam bo'lsa; yoki shenga (iloh), agar u hamma hurmat qiladigan odam bo'lsa, aylanadi. Boylar, mashhurlar, ilmli odamlar, mandarinlarning ruhlari shenga o'tadi. O'lgan buyuk insonlarning ruhlari konfutsiychilikda ham, daosizmda ham ahamiyatli edi. Ota-bobolar ruhiga kabi ularga ham qurbonliklar keltirishgan.

Qachonlardir qurbonliklarning haqiqiysi keltirilar edi, lekin katta xarajatlarga tushmaslik uchun, Xitoy dinida o'ziga xos simvolizm erta vujudga keladi: Haqiqiy narsalar o'rniga, ularning qog'ozdan qilingan tasvirlari (yegulik va pullar qog'ozdan yasalgan) qurbonlikka keltirilgan. Maxsus savdogarlar ushbu qog'ozlar bilan savdo qilishgan.

³³ Лиллиан Ту. Фэн-шуй. –София, 2006, 16-17-66.

Xitoy dinini tavsiflashga harakat qilsak, uning, avvlambor, o'ziga xosligi ko'zga tashlanadi. Xitoyliklar mistikaga, asketizmga o'ta kam ixlos qilishadi. Bu ularning dinida va, ayniqsa, konfutsiychilikda namoyon bo'ladi. Bu din qat'iy yozilgan marosimlarning bajarilishiga qaratilgan. Marosimlar o'ta vazmin holatda o'tadi. Ilohlar bilan mistik muloqot ayrim kohin-folbinlar (daos) tomonidan bajarilgan. Har qanday diniy fanatizm, asketizm, tanani halokatli azoblash, orgaistik harakatlar Xitoy diniga ziddir³⁴.

Xitoyda hududiy xususiyatlarni hisobga olib, asosiy dinlar quyidagilar:

- buddizm;
- daosizm;
- lamaizm;
- konfutsiylilik;
- islom;
- katolik;
- protestantlik.

Aytilganlardan faqat dao konfessional guruh boshqa davlatlarning xuddi shunday diniy tashkilotlari bilan tashqi munosabatlarni qo'llab quvvatlamaydi.

Xitoyning diniy tuzilishi Shan-In davrida asoslangan, ya'ni Hindistonda oriy an'analari yuzaga kelgan vaqtda In dindorlari xudolarning katta ro'yxatiga ega edi. Xitoyliklar bu davrda o'z payg'ambarlariga qonli qurbonliklarni, shu jumladan, odamlarni ham qurbonlik keltirishni afzal bilishgan. Bunday holat yer sharining deyarli barcha burchagida amalga oshirilgan. Uzoq vaqt o'tib, diniy tojni Shandi ilohiyoti egalladi. Inliklar uni nafaqat ilohiy xudo, balki o'zlarining avlodi deb bilishdi. Shandi inlik xudojo'ylar fikricha, o'z xalqining farovonligi to'g'risida qayg'urgan. Shandiga hosilni ko'paytirish va harbiy zarurat masalalari bo'yicha ko'proq murojaat qilishgan. In sulolasi hukmdorlarini, ya'ni Shandi xudosi avlodini katta qabrlarda quroli va otlari, xotini va xizmatkorlari, ro'zg'or buyumlari va yaxshi ovqat zahiralari bilan dafn etishgan. O'lgan Vanlar nomiga

³⁴ Токарев С.А. Религия в истории народов мира. –М., 1965, 280-294.

qurbonliklar keltirish kuni xitoy dindorlari tomonidan qanchadir odamlar sonini qurbonlikka so‘rash iltijo qilingan. Shandidan tashqari oliy ilohiyotga real tarixiy personajlar ham kirgan:

- Budda;
- Lao-Szi;
- Konfutsiy.

Birinchi o‘ringa xitoyliklar Konfutsiyni qo‘yishgan, uning sharafiga yirik shaharlarda ibodatxonalar qurilgan. Bunday ibodatxonalarning soni o‘sha davrlarda bir yarim mingtani tashkil etgan. Budda, Konfutsiy, Lao-Szidan tashqari xitoyliklarning xudolari quyidagilar hisoblanishgan:

- donishmand Xuandi;
- uning izdoshi Fusi;
- Badxisatva va Amitaba buddasi;
- Maytreyya;
- urush xudosi Gundi;
- Buyuk Nefrit imperatori Yuykxai Shandi;
- kambag‘allar xudosi gudi-sheni;
- oddiy shaharliklar xudosi.

Oddiy odamlarni himoyalagan: har qanday xavfsizliklar va xatarlardan, baxtsizliklardan himoyalagan. Xitoy ibodatxonalarida, ilohiy sudlarda arbitr bo‘lib chiqishlari mumkin edi.

Aytilganlardan tashqari, yana boshqa xudolar ham mavjud edi:

- Szyan-taygun – baliqchilar himoyachisi;
- Lu Ban – duradgorlar himoyachisi;
- Yao-van – tabib va o‘tlar himoyachisi;
- Fusi – jodugarlar himoyachisi;
- Dou-mu – dengizchilar himoyachisi;
- Nyu-van, Ma-van, Chju-van – uy hayvonlari himoyachisi.³⁵

³⁵ Гросс П.Талисмания и мифология древнего мира – Ростов-на-Дону, 2007, 150-152-66.

Ao-Bin. Xitoy mifologiyasida oliy mavjudot, odamlarga dengiz suvlaridan kelgan, Xuagay yulduzi himoyachisi. Dindorlar Ao-Binni Lun Vanning uchinchi o'g'li deb hisoblashgan. Oddiy odamlar esa uni odamga aylanuvchi mavjudot deb bilishgan. Ao-Bin har doim dengiz maxluqiga minib yurgan va qo'lida nayza ushlab yurgan.

Bay-Di. Xitoyliklarda Bay-Di G'arbning hukmdori va himoyachisi sanalgan. Boshqa tamoyillar bilan quyidagilar shug'ullangan:

- sharq – Tay-xao
- janub – Yan-di
- shimol – Xey-di
- markaz – xuandi.

Ba'zan xitoyliklar xudodan qo'rqib oq hukmdor yoki oq imperator deb atashgan.

Byan-xe. Byan xe – zargarlar himoyachisi. U ham qachonlardir real tarixiy personaj bo'lgan. Afsonaga ko'ra ikkita knyaz – Li-van va U-van Byan-xeni qalloblikda ayblab, sud va tekshirishlarsiz uni oldin bir oyog'ini, keyin ikkinchisini chopib tashlashni buyurishadi. Xitoyni Ven-van boshqargan davrlarda Byan-xe zargarlar himoyachisi bo'ladi.

Guan-in. Guan-In – ilohiy mavjudot – uni o'z nomi bilan atagan har qanday odamni baxtsizlik va xatardan qutqarishga tayyor edi. Xitoyliklarning tasavvurida Guan-in – ayol. Tasvirlarda bu ilohiy mavjudotni ko'proq majnuntol shoxlari, ko'za, kitob yoki arqon ko'tarib turganini ko'rish mumkin. Majnuntol uning mag'rurligidan, ko'za esa adashgan qalblarga yordam berishdan, kitob esa uning donoligidan, qo'lidagi arqon esa qutqarish timsolidir.

Guymu. Yo'lbars boshli, ajdarho oyoqli, barcha shaytonlarning onasi. Uning uyi tumanli tog' – Syaoyuy tepasida edi. Quyosh botganidan keyin Guymu qornidan yuzlab shaytonlarni chiqargan. Odam o'lgandan keyin ruhini tozalash bilan shug'ullangan. Hayot va o'lim hukmdori bo'lgan.

Danay Fujen. Xonim buyuk buvi Danay Fujen tugʻruqlarda ishtirok etuvchi ilohiy mavjudot sanalgan. Tekshirilmagan maʼlumotlarga koʻra Danay Fujenning Chen familiyasi ayol boʻlgan. Eramizning 766-yilda Fudjouda tugʻilgan. Ilohiy xonim Guan-inning barmogʻidan taralgan nurdan tugʻilgan.

Diszan-van. Diszan-van – Yerosti podsholigi hukmdori. Doʻzaxni nazorat qilgan. U yerda katta alanga atrofida yurib, pushaymon boʻlgan odamlarni izlagan. Ularni bu yerdan olib ketib, abadiy joyga keltirgan.

Dou-shen. Qora chechak bilan bogʻliq bitta boʻlsa ham ilohiy mavjudot mavjud boʻlgan. Buning homiysi Dou-shen edi. Uning obrazini adashgan yoʻllar chorrahasida uchratish mumkin. U baʼzan ayol, baʼzan erkak koʻrinishida kelgan. Lekin har safar uning yuzi chechak bilan qoplangan boʻlgan. Dou-shen toʻgʻri oʻlimga hukm qilishgan odamlar hukmdori boʻlgan.

Ajdarho. Xitoy mifologiyasida – suvda tugʻilgan va bir umr u bilan bogʻliq ilohiy mavjudot. Unga katta va kichik koʻllar, daryolar, oqimlar, dengiz va okeanlar boʻysungan. Ajdarho baxt timsoli hisoblangan, shu bilan birga u ob-havoni boshqaradi. Faqat ajdarho qora bulutlarni u yoki bu tomonga hayday olgan va tonnalab suvni jonli va jonsiz narsalarga oqizishi mumkin edi.³⁶

Xitoyliklar oʻzlarining xavfsizliklari uchun, yaʼni mistiklari va boshqalari oʻzlarini «qurollarning aka-ukalari» deb atashgan.

Bu hujumdan himoyalaniishning eng oddiy yoʻli edi. Bu ularning shaharlari xavfsizligi uchun ham zarur ediki, buni alohida taʼkidlash joiz.

Ularning uyida 6 ta katta tosh turgan. Shuningdek, ular tarakanlarga qarshi dixlofasdek qurol oʻylab topishgan.

Mistiklar asosan rasmlarida yoʻlbarslarni tasvirlashgan. Bu ularning eng koʻp ishlatiladigan tilsimi edi.

Qadimgi xitoyliklar deyarli barcha muhim planetalarni bilishgan. Chjun Kuy ularning eng asosiy xudolaridan edi.

³⁶ Гросс П.Талисмания и мифология древнего мира – Ростов-на-Дону, 2007, 168-174-66.

Omad tugunchasi. Bu ham xitoyliklarda tumor hisoblangan. U odamlarga omad keltiradi deb ishonishgan.

Fil. Xitoyda bu juda qiziqarli hisoblanadi. U uyning janubi-sharq tomoniga qo'yilgan. U pul chaqiradi deya ishonishgan.

Karp. Karp (baliq) odamlarga kuch beradi, deya ishonishgan. U tumor xitoyliklar uyida muqaddas ajdar bilan birga turgan.

Xot'ey. U boylik va omad belgisi bo'lgan. Ular Xitoyning biror qismiga 30 marta taqillatib urushgan. U qanday yashash kerakligini o'rgatadi deb bilishgan.

Toshbaqa. U donolik va taraqqiyot belgisi hisoblangan. Fanda u Fen-Shuy so'zi bilan ifoda etilgan. Uning joyi uyning shimoliy tomonida turgani yaxshi deb hisoblashgan.

Oltin baliqlar. U muvaffaqiyat belgisi, kuch bag'ishlovchi ramz hisoblangan. Xitoyliklarda oltin baliqlar belgisi eng yuqori o'rindagi tumor edi.

Qurbaqa. U xitoyliklarda buyuklik ramzi hisoblanadi. O'lmaslik ramzi. U ham muvaffaqiyat belgisidir.

Ajdarlar. Ular Xitoyda doim omadli ishlash va buyuklik ramzi hisoblangan.

Donishmandlar. Ular ham tumor sifatida ishlatiladigan erkak xo'jayinlar hisoblangan. Ular eshik og'asi sifatida ishlatilgan.

«**Mashhurlik**» **iyeroglifi.** U odamlar orasida mashhurlik qozonishga va avtoritetning yuqori bo'lishiga yordam bergan.

«**Omad**» **iyeroglifi.** U uzoq kutilgan omadning kelishiga va uning himoyasiga yordam bergan. U yaqin kishilarga sovg'a qilingan. Undan do'stlik yoki sevgi javobi bilinib turgan.

«**Olov**» **iyeroglifi.** U ham kutilgan voqeaning tezroq sodir bo'lishiga ta'sir etgan.

«**Daraxt**» **iyeroglifi.** U xitoyliklarda to'g'rilik ramzi va hayotiy kuchning qayta tiklanishi ramzi hisoblangan.

«**Boylik**» **iyeroglifi.** U pul keltiradi degan ma'noda ishlatilgan. Ishning yurishib ketishiga yordam bergan.

Ajdar. U qadimdan Xitoyda omad belgisi hisoblangan. U omad kelishini tezlashtirish uchun uylarga chizilgan.

Pul daraxti. U ham boylik keltiruvchi belgi hisoblangan. Uning barglari metall tangalardan iborat.

Ajdar bilan Feniks. U ham omad va boylik keltiruvchi belgi hisoblangan. Feniks janubda joylashgan. Uning yordamida muvaffaqiyatga erishilgan.

Imperator toji. U imperator bosh kiyimi ma'nosida ham ishlatilgan. U ham boylik va omad keltiradi.

Shamol musiqasi. U qadimgi xitoyliklarda kayfiyatni ko'tarish va omad keltirish uchun ishlatilgan.

Xo'roz. Bir vaqtning o'zida bir qancha ma'noda:

- olov;
- geografik janub;
- mashhurlik.

U ham doim omad, mashhurlik belgisidir.

Xursandchilik daraxti. U ham boylik va omad belgisidir. Shuningdek:

- xursandchilik;
- oila;
- bardamlilik belgisi.

Ikki boyqush. U ham Xitoyda donishmandlik ramzidir. Uning yordamida xitoyliklar bir vaqtning o'zida bir qancha bilimga ega bo'lish mumkin.

Ajdarlar pagoda bilan. U ham almashtirib ishlatiladigan Xitoy tumori. U shu o'rinda xot'ey bilan bir xilda. U omad keltirgan.

Ajdar boshli toshbaqa. U ham energiyaning oshishiga va odamlarning faoliyati tezlanishiga yordam beradi.

Chjuan Syuj. Markaziy hukmdor Xuan – Dening nabirasi – Chjuan – Syuyni qadimgi xitoyliklar uni o'zlarining birinchi hukmdori qatorida ko'radilar.

Chju-Jun. Chju-Jun – Janubiy dengiz va olov xudosi. Quyosh xudosi Yandining yordamchisi.

Chjun-Kuy. Qadimda xitoyliklar uni o‘zlarining uylari xudosi deyishgan.
Chjunyao. Bu xitoyliklarda janubdagi eng yorqin yulduz xudosidir.
Chjen-ubey-szi. U Shimolning buyuk xo‘jayini.
Chuan Shen. Qasos xudosi va himoyachisi xitoyliklarda shunday atalgan.
Chshu jun. U xudolar uyi panteonida yuqori o‘rinda turgan va olov xudosi hisoblangan.
Chen Xuan. Shaharlar xudosi hisoblangan.
Shan Di. U xudolar orasida eng yuqori o‘rinda edi. Xristianlikdan ham zabardast edi.
Shou sin. Uzoq umr kafolati, hayot belgisi hisoblangan.
Erlan. U odamlarni suv ofatlaridan saqlagan.³⁷

II-BOB.

Qadimgi antic dunyo mifologiyasi va sig‘inish tushunchasi

³⁷ Гросс П.Талисмания и мифология древнего мира – Ростов-на-Дону, 2007, 175-186-66.

(Qadimgi Gretsiya misolida)

Greklar dinining tarixiy ildizlari to'g'risidagi masala hozirgacha muammoligicha qolmoqda. Ushbu dinning elementlari, taxminlarcha, umumhind-yevropa davriga borib taqalib, tekshirib ko'rilganda, ma'lumotlar juda ozlikni tashkil qiladi. Ular ko'p bo'lmagan, ayrim xudolarning nomlari bilan bog'liq bo'lib, ularning etimologiyasi bir-biriga yaqindir: masalan, Zevs // sanskritda Dyaus // rimlik Yupiter // germanlarning Tiu, Uranos // sanskritda Varuna. Bunday tushunchalardan ko'p ma'lumotlar olib bo'lmaydi.

Krit-miken davri dini to'g'risida to'xtalsak, diniy kult obyektlari ko'zga ko'ringan joyni – ikkitalik oybolta oladi. Taxminlarcha, biror bir asosiy fetish yoki qandaydir bir xudoning simvolini aks ettirgan. Bunday oyboltalardan ko'plab topilgan, lekin razmerlari jihatidan juda katta yoki juda kichkina: ularni qurol sifatida ishlatib bo'lmas edi. Ushbu oybolta kulti egeyliklarni Kichik Osiyo xalqlari bilan bog'lab turgan, shekilli, xetlarda bunday oyboltalar xudo Teshubning belgisi bo'lgan.

Egeyliklar ikkitalik qalqonni ham hurmatlab, sakkiz shaklidagi bu qalqonlar Krit topilmalarida ko'plab uchraydi.

Hayvonlar kulti ham uchragan. Ular orasida, birinchi o'rinda ho'kiz turgan. Bu haqda ko'plab ho'kizlarning tasvirlari, ho'kiz jangi ko'rinishlari tushirilgan tamg'alar uchraydi. Muhrlardagi yarim odam, yarim ho'kiz ko'rinishlari, Krit «labirinti»dagi Minotavrni eslatadi. Ilonlar kulti to'g'risidagi ularning ko'p sonli tasvirlari, jumladan, ayollarning qo'lida ilonlarning ushlab turgan ko'rinishlari topilgan bo'lib, muqaddas ilonlarning kohin ayollari yoki ilonlar ma'budasining statuetkalari deb bilishimiz mumkin. Qushlarni ham ilohiylashtirganlar, ayniqsa, kaparlarni. Geraldik uslubidagi hayvonlarning ko'rinishlari ham bizgacha yetib kelgan.

Antrapomorf ilohalar bo'lib, ular ko'pincha ayollar obrazida uchratiladi. Ayol figuralari tez-tez topinish tasvirlarida ko'rinadi. O'qib chiqilgan minoy

yozuvlarida ayrim xudolarning ismlari klassik Gretsiyada xudolar nomlari bilan o'xshab ketadi: Artemida, Poseydon, Germes, Gera, Zevs, Gestiya va boshqalar.

Quyosh yoki oy kultining mavjudligiga g'ildiraklar tasvirlarining mavjudligi dalolat beradi. Toshlar va muqaddas daraxtlar kulti bo'lgan. Qandaydir bir diniy tasavvurlar bilan g'orlar bog'liq bo'lib, y yerda qisman odamlar ko'milgan, qisman diniy marosimlar o'tkazilgan. Alohida ibodatxonalar bo'lmagan; marosimlar ochiq osmon ostida o'tkazilgan; kohin va kohin ayollar bo'lgan.

Krit-miken dinining sohiblari to'g'risidagi ma'lumotlar shulardan iborat. Ulardan ushbu din formasi va xarakteri qandayligini bilish mumkin.

Krit-miken madaniyatining sohiblari grek-axeylar bo'lib, ularning klassik davrdagi greklarga qanday munosabati borligi noaniqdir. Balki Ioniya, keyinchalik doriy qabilalarining bosqini ta'sir qiladi. Miken madaniyati halokatga uchraydi.

Shuning uchun Krit-miken dinini grek dinining ilk bosqichi deb bo'lmaydi. Grek dini murakkab bir butunlikni tashkil qilib, tashkil etayotgan qismlari turli tarixiy ildizlarga ega. Biroq krit-miken elementlarining bir qanchasi unda saqlanib qolgan. Bularning barchasini shved tadqiqotchisi Martin Nilson va ingliz tarixchisi Jorj Tomson ko'rsatib berishgan.³⁸

Greklar dinining o'rganilish chegarasi qadimdan boshlanib, er. old. I ming yillikning boshidan, to eramizning IV asrigacha, ya'ni xristianlikning g'alabasigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Shunga qaramasdan, dinning tarixiy rivojlanishini butunligicha kuzatib bo'lmaydi. Agar Gomerining poemalarini ilk, Pavsaniyning «Elladaga tavsif» asarini so'nggi greklar dinining etapi deb qaralsa-da, manbalarning sinchkovlik bilan o'rganilishi bu holatni oxirigacha aniqlab bermaydi. Masalan, Gomer eposi arxaik elementlar bilan birga murakkab va modifikatsiyalashgan tasavvurlarga ega, boshqa tomondan esa Pavsonif, Plutarx, Lukian va boshqa so'nggi avtorlar asarlarida topinishlar va marosimlar o'ta arxaik formalarini ko'ramiz.

³⁸ Древняя Греция. Под ред. Струве В.В. –М., 1956, 32-35-бб.

Qadimgi grek dinida o'ta ibtido davr topinishlaridan bo'lgan totemizmning sust, lekin yetarlicha qoldiqlarini kuzatsa bo'ladi. Ayniqsa, mifologiya va marosimlarda ko'ringan. Masalan, mirmidonyan qabilasi chumolilardan kelib chiqqanligi; Afinaning asoschisi ilonboshli Kekrop bo'lganligi; Zevs esa tog' ho'kizga, oqqushga, oltin yomg'irga aylanganligi to'g'risidagi afsonalar mavjud. Ko'pgina xudolar antropomorf yoki qaysidir bir hayvonga bog'liqligi ko'rsatiladi: masalan, Appalon – bo'ri; Artemida – ona ayiq yoki bug'u; Germes – qo'y; Gera – sigir yoki echki va b. Bu yerdan esa ayrim jonivor turlariga tabu qo'yilishini ham ko'ramiz: Lakonikadagi Poseydon ko'lidagi baliqlar, Pegey yaqinidagi tog'dagi toshbaqalarga.

Bundan tashqari, qadimgi hunarmandchilik kultining qoldiqlari ham saqlanib qolgan. Eng yorqin namunalardan – eramizning II asriga har yili axeyaliklar Patrasida Artemida Lafriyaga bag'ishlab bayramlar o'tkazilgan. Bayramning birinchi kunida kohin ayol bug'ularga qo'shilgan aravaga o'tirib, tantanali yurish qiladi. Ikkinchi kuni misli ko'rilmagan qurbonliklar qilinadi: qurbonlik joyiga tirik yovvoyi hayvonlar – bug'ular, qobonlar, ayiqlar, bo'rilar, tog' echkilarini, shuningdek, uy hayvonlari va parrandalarni hamda daraxt mevalarini bir joyga uyib, uning barchasini yoqib yuborishgan.

Eng qadimgi hunarmandchilik kultlari bilan birga ob-havo sehrgarligi marosmlari ham bog'liq edi. Birlamchi davrda bu marosimlarning sof sehrgarlik xarakteri xudolar obrazi bilan tusib qo'yilib, bu marosimlar endi xudolarga bag'ishlangan, biroq bu kultlar aniq ko'rinib turadi. Masalan, Pavsaniyning davrida ushbu marosimlar ham o'tkazilgan. Masalan, Mefanax (Korinfika) shaharchasida Liviyaning issiq shamolini quvish uchun qo'yidagicha marosim o'tkazilar edi: ikkita odam oq xo'rozni olib, uni ikkiga bo'lib, ikki tomonga yarimtadan xo'rozni olib chopishgan, uzumzorni aylanib kelib qo'yishgan. Sikiondan uncha uzoq bo'lmagan joyda ham «shamolni yumshatish» uchun marosim o'tkazilgan: kechasi to'rtta chuqur ustida «Medeya duolari» o'qilgan. Undanda kengroq ravishda yomg'irni chaqirish marosimlari o'tkazilgan. Likosura (Arkadiya) yaqinida

qurgʻoqchilik vaqtida Likeylik Zevsning kohini suvga eman shoxini tashlaydi; koʻtarilayotgan bugʻdan bulutning paydo boʻlishini va yomgʻir yogʻishini kutgan, bu vaqtda u sigʻingan va qurbonliklar keltirgan.

Grek dinining eng qadimgi qatlamiga tabiatning mayda ruhlariga ishonish ham kirgan: suv va oʻrmon nimfalari – nayada, driada, togʻ ruhlari va boshqalarga.

Greklarda zarar keltiruvchi sehrgarlikka ishonish eng qadimgi davrdan yetib kelgan. Sehrgarlikning ushbu turini yerosti yovuz xudolari bilan bogʻlab tasvirlashgan. Ular orasida birinchi oʻrinda Gekata turgan. Uning nomi bilan biror odamni oʻldirmoqchi boʻlishsa, qargʻaganlar. Qargʻishlar va duolar qoʻrqinchli marosimlar bilan olib borilgan. Biroq zarar keltiruvchi sehrgarlikka katta ahamiyat bermaganlar. Shunisi xarakterliki, grek afsonalari jodugar va yalmogʻizlarni qariyb bilmagan. Kirkea va Medeya obrazlari boshqa xalqlardan olingan deb, taxmin qilinadi.³⁹

Diniy-sehrgarlik topinishlarning davolash sohasi ham katta ahamiyat kasb etadi. Hatto, raesional tibbiyotning yutuqlarida (Gippokrat va b.) ham tabiblik urf-odatlarini, xudolar-davolovchilar kultlari saqlanib qolgan edi. Ular qatorida Asklepiy va uning oʻgʻli Maxan, Apollon, Dionis, Demetra, Gerakl, Alefiaray, Pan va koʻplab mahalliy ilohlar; buloqlar nimfalari – Anigrada, Ionida. Koʻpincha ular mahalliy ilohlar boʻlib, gʻayritabiiy tabiblar obrazida uchraydi.

Dinning oʻta arxaik formalariga, erkaklar maxfiy ittifoqlariga borib taqaladigan erkaklar kulti qoldiqlari kiradi. Ayrim vaqtlarda erkaklar kulti parrallel ravishda ayollarning marosimlari bilan qoʻshilib ketgan. Xuddi shunday bayramlardan biri Demetra sharafiga boʻlib, uni faqatgina erkaklar oʻtkazishgan, ayollar esa alohida toʻplanishib, maʼbudani olqishlaganlar. Lakonika sohillaridagi Ares ibodatxonalaridan birida sof erkaklar bayramlari oʻtkazilib, ayollar u yerga qoʻyilmagan. Greklarning mashhur milliy oʻyinlari oʻz ibtidosini, balki mana shu erkaklar ittifoqidan olgandir. Ushbu oʻyinlar – Olimpiya, nemiy, istmiy, pifiy –

³⁹ Токарев С.А. Религия в истории народов мира. –М., 1965, 448-449-66.

shak-shubhasiz diniy marosimlar bilan bog'liq bo'lib, avval boshqa ayollar u yerga qo'yilmagan.

Sof ayollar kulti ham bo'lgan, u yerlarga erkaklar qo'yilmagan: xuddi shunday Demetra, Kora, Dionis kabilarning mahalliy kultlari mavjud edi.

Greklarning ko'mish marosimlari eng qadimgi o'tmishga ega bo'lib, ular o'lganlarni yerga yoki maqbaraga ko'mishgan. Ushbu odat krit-miken davriga borib taqalib, faqatgina qisqa muddatga ioniyaliklar olib kelgan krematsiyaga almashadi.

Greklarda marhumning oldidagi oxirgi qarzini bajo keltirish katta ahamiyat kasb etgan. O'liklarga bo'lgan munosabat muhim rol o'ynagan. Greklar o'limdan qo'rqmasalar-da, biroq o'lganlaridan keyin itlarga yem bo'lishidan juda cho'chiganlar. Shunday tasavvurlar Gomer eposlarida o'z aksini topgan: masalan, o'layotgan Gektorning Axillga qilgan iltimosini eslasak («Meni miromidonlik itlarga yem bo'lishimga yo'l qo'yma!») va Gektorning otasi Axillning oldiga yashirincha boradi hamda o'g'lining jasadini o'ta katta to'lov evaziga olib ketib, ko'mishi kerakligini aytadi.

Greklar o'lganlar soyalarini oziq-ovqatga muhtoj bo'lishiga ishonganlar. Shuning uchun ular o'liklarni boqish uchun qurbonliklar qilishgan.

Ko'mish kulti greklar oila-urug'chilik dinining asosiy qismini tashkil etib, marhumni ko'mish uchun uning qarindoshlari va zurriyodlari zimmasiga yuklangan.

Urug'chilik qoldiqlari bilan birga oilaviy o'chog' kulti ham saqlangan. Muqaddas xonadon o'chog'i ayol ilohasi Testiya timsolida namoyon bo'ladi. O'choqning ayolga qiyoslangan timsoli ko'pchilik xalqlarning dinida matriarxat qoldiqlari deb qaraladi.⁴⁰

Urug'chilik tuzumining yemirilishi zaminida hamda aristokratik urug'larning ajralib chiqishi natijasida, Gretsiyaga xos bo'lgan dinning yangi formasi: «qahramonlar»ning aristokratik kulti vujudga keladi.

⁴⁰ Токарев С.А. Религия в истории народов мира. –М., 1965, 450-452-66.

Adabiyotda xudoga topinishning susayishi natijasida, qahramonlar kulti paydo bo'ldi, degan farazlar mavjud. Lekin bu fikrga qo'shilib bo'lmaydi. Arxaik tilda o'lgan odamning qabri ustiga «qahramon» so'zi yozilar edi.

Birlamchi davrda qahramonlar deb, alohida urug'larning ruhi rahnomalariga aytishar edi.

Gretsiya bo'ylab keng mashhurlikni qozongan Gerakl edi. U tarixiy shaxs bo'masa-da, u quyosh xudosi bilan qadimgi «afsonalar»da solishtiriladi. Gerakl – qahramon-eponim Geraklidlar urug'ining (davriy qabilasi) asoschisi bo'lib, Sparta podsholarining ikki sulolasi undan kelib chiqqan. «Geraklidlar yurishi» doriylar tomonidan Peloponessning katta qismini bosib olinishiga olib kelgan; er. avv. XII-XI asrdagi real voqea hisoblanadi. Aynan mana shu voqealar Gretsiya bo'ylab Geraklning dovruq'ini yoyadi; u tomonidan sodir etilgan qahramonliklar to'g'risida afsonalar tarqaladi. Geraklning bunday ko'tarilishi shu darajaga borib yetadiki, go'yoki u osmonga ko'tariladi va xudolarning biriga aylandi. Ushbu mifda Geraklning umumellin kulti predmetiga aylanganligi ko'rinadi.⁴¹

Umuman olganda, urug'chilik tuzumining yemirilishi bilan va huquqiy jamoalarning vujudga kelishi bilan greklar dinining markaziy o'rnida mahalliy jamoa patronlari – qahramonlar va xudolar turadi. Mahalliy jamoa kulti antik davrning oxirigacha greklar dinining xarakterli xususiyatlaridan biri edi.

Xuddi shunday, Pavsaniy mahalliy kultlarni sanab o'tadi: Feniya qahramon Ifikl (Geraklning akasi), Feysoyadagi (Arkadiya) Fesoya nimfalari, Figaliyadagi Evrinomalar, Megalopoldagi (Arkadiya) shamol xudosi Borey, Fespiyadagi Erot, Gelikondagi lin va h.k.

Ushbu mahalliy kultlarning har joyida topinishlarning arxaik formalari – fetishizm qoldiqlari – toshlar, daryolar, buloqlar, tog'larga topinish saqlanib qolgan edi. Psosfidada mahalliy Erimand daryosiga topinib, unga atab ibodatxona qurilgan; Orxomenda muqaddas toshlarga; Xeroneyliklar Zevsning skipetri deb qaralgan muqaddas nayzaga; Delfada alohida topinish toshiga sig'inishgan. Bu kabi lokal

⁴¹ Словарь античности. –М., 1989, 129-б.

fetishlar keyinchalik o'zlarining ko'rinishini saqlagan holda umumgrek xudolari bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, Fespiyada ishlov berilmagan tosh Erot xudosining tasviri hisoblangan. Sikionda alohida piramida Meylikiya Zevsining simvoli, ustunlar esa ma'buda Artemidani tasvirlagan. BETILlarga – ishlov berilgan toshlarga sig'inish ko'pincha mahalliy kultlar orasida tarqalgan edi.

Qadimgi jamaoviy kultlarda hosildorlik xudolariga, dehqonchilik va chorvachilik ilohlariga topinish katta rol o'ynagan. Mashhur Elevsinlik misteriyalar avval boshda mahalliy dehqonchilik ilohlar, avvlambor, Demetra ilohi edi. Sof dehqonchilik bo'lgan Demetra kulti Figaliyada ham bo'lib, unga atab qonsiz qurbonliklar keltirishgan: mevalar, uzum, asal uyalari, endi qirqilgan qo'y juni – ularning barchasini qurbon keltirish joyiga qo'yib, ustidan zaytun yog'i quyilgan. Demetraga atab ushbu qurbonlik butun Fegaliya jamoasi tomonidan keltirilgan. Hosildorlikning mo'l-ko'l bo'lishi uchun sehrgarlik vositalarini Tiforiya aholisi (Fokida) bajarganlar: tifoeyliklar Fivadagi Zet va Amfion qabridan tuproqni o'g'irlab, o'zlarining yerlariga – Antiopa qabriga olib kelishga uringanlar; bu bilan Fiva yerlaridagi hosil o'z yerlariga o'tishiga ishonganlar; biroq fivaliklar bunday o'g'rilikka yo'l qo'ymaslik uchun maqbarani astoydil qo'riqlashgan. Yana shu narsa ma'lumki, umumellin xudolari ko'pchilik holda dehqonchilik va chorvachilik homiylarining jihatlarini saqlab qolishgan.

Barcha ko'rib o'tilgan greklarning diniy topinishlari va marosimlari, ko'pincha xalq ommasi, dehqonlar orasida saqlangan bo'lib, u o'zi bilan dinning ilk formalari qoldiqlarini namoyon etib, asosan, ibtidoiy jamoaning yemirilishi davriga taalluqli bo'lgan. Klassik davrdagi quldorchilik respublikalarining gullashi davridagi dinning hukmron formalari, albatta, polislar xudo-kohinlari edi.

Ushbu kult rasmiy davlat xarakteriga ega bo'lib, barcha fuqarolar unga topinishga siyosiy majbur edilar. Bu munosabat bilan grek polisleri hech qanday ekinlikka yo'l qo'yishmagan. Umuman olganda, xudolarga ham, miflarga ham skeptik yondashsa bo'lar edi; xudolar to'g'risida qiziqarli voqealar aytilsa, ular ustidan hazillashsa ham bo'lar edi, biroq xudolar sharafiga uyushtiriladigan

majburiy marosimlardan bosh tortish yoki ularga qatnashmaslik; xudolarga nisbatan hurmatsizlik ko'rsatish jazolanar edi. Bunga yorqin namuna sifatida Suqrotning ayblanishi va qatl etilishi edi. U «xudolarni hurmat» qilmaslikda va yangi xudolarni yaratishda ayblanganligi chiqarilgan hukmda aytilgan.

Polislarning xudo-homiylari turlicha edi. Afina yaqinidagi Falerda – qahramon Falerni (rivoyatlarga ko'ra, Arganovtlar yurishining qatnashchisi), Afinaning o'zida esa – Teseyni, uning otasi Egeyni va Attikaning alohida jamoalari homiylari: Erexfeý, But, Pirifoy, Akadem va boshqalarga topinishgan. Qahramon – homiylarga bag'ishlab ibodatxona – geroonlar qurilgan, ularning har birida muqaddas maydoni bo'lib – temenos, u yerda jamoaviy bayramlar va qurbonliklar bo'lib turgan.

Ayrim shaharlarda umumgrek panteonining mahalliy homiylari va xudolariga topinishgan. Ularning ko'pchiligi birlamchi davrda mahalliy patronlar bo'lishgan, keyinchalik u yoki bu sabablarga ko'ra, umummilliy xudolar rangiga ko'tariladi. Masalan, Asklepiy Epidavr xudosi, Artemida. Arkadiya ma'budasi, Gera Miken va Argos homiysi bo'lganlar. Greklar ko'pincha o'zlarining shahar patronlarini umummilliy xudolar bilan bog'lab ko'rsatmoqchi bo'ladi. Bunda mahalliy patron nomlari xudoning epitetiga aylantirilar edi. Masalan, Ismeniya daryosi ilohi Ismeniya Appolloni; Beotiya jamoalarining homiysi, tog' ilohi – Ptoý Appolloni va h.k. Zevsning ko'p sonli epitetlari birlamchi davrda mustaqil mahalliy xudolar bo'lgan: Gipat Zevs – Gipat tog'i xudosi, Lafistiy Zevs – Lafistion tog'i ko'rinishi, Krokeat Zevs – Krokea shahri mahalliy homiysi.

Umumellin panteoni vujudga kelishining o'zi uzoq o'tmishga – Miken podsholigi davriga borib taqaladi. Gomer davrida greklarning madaniy jamoasi, ayniqsa, axeyliklar umumgrek xudolari – olimpiyaliklarni hurmatlashgan. Bunga sabab axeyliklar va ioniyaliklar tomonidan Bolqon yarim oroli, Egeý orolining bosib olinishi va kolonizatsiya qilinish natijasida xalqlarning ko'chishi edi. Umummilliy panteonni yuzaga keltirishda epik poeziya va uning yaratuvchilari aedalarining roli muhimdir.

Buyuk Olimpiya xudolari panteonining vujudga kelishi to'g'risidagi masala o'ta murakkabdir. Ushbu xudolar obrazlari murakkab bo'lib, ularning evolyutsiyasi ham uzoq davom etgan. Tadqiqotchilarning fikricha, ayrim Olimpiya xudolari qadimgi ellinlargacha bo'lgan krit-miken xudolari kultini namoyon qilishadi.

Xuddi shunday, Gera – asosiy ma'buda, Zevsning rafiqasi – Mikenning qadimgi homiysi – ma'buda sigir obrazida bo'lgan bo'lib, Shliman qazishmalarida topilgan edi. Gera argiveyanlar (argosliklar) homiysi sifatida Argolidada alohida hurmat qozongan, u haqda miflar yaratilgan.

Poseydon Pelloponessning qadimgi dengiz xudosi bo'lib, unga baliqchilar topinishgan. U bir qancha bor Miken tekstlarida esga olinadi. Uning kulti ioniyaliklar va dorenlar tomonidan ulug'lanib, Tenar burunida unga atab ibodatxona quriladi, Lakonika dengiz ittifoqi markazi edi. U otlarning ham homiysi bo'lgan. Keyinchalik tarqalgan Poseydon kulti o'ziga qator mahalliy kultlarni qamrab olib, oldingi o'ringa chiqadi. Masalan, Onxest shahrida (Beotiya) mahalliy qahramon Onxest ulug'lagan, keyinchalik esa u Poseydonning o'g'li deb e'tirof etilgan: u yerda Poseydon Onxestiyning haykali va ibodatxonasi yaratilgan.

Afina qadimgi ma'buda hisoblanib, shaharlar va shahar istehkomlari homiysi sanalgan. Bunday homiy-ma'buda har bir shaharda bo'lib, turdosh nom bilan atalgan. Afina nomi keyinchalik keng tarqalib ketadi. Uning boshqa bir ismi Pallada – epiteti bo'lib, «nayza silkituvchi» («Potryasitelnisa kopya»), yana bir ismi Poliada (Shaharlik, Polis himoyachisi) edi. Pavsaniy Afinaning 50 tagacha epitetlarini eslab o'tgan. Uning davrida butun Gretsiya bo'yicha eng e'zozlangan ma'buda Afina bo'lgan. Unga atab 73 ta ibodatxona qurilgan. Ular polislarning sitodellarida qurilgan edi. Klassik mifologiyaga ko'ra, Afina – ma'buda jangchi ko'rinishida, butun qurol-aslahalari bilan tasvirlangan. Shu bilan birgalikda totemistik tomonlari ham aks ettirilgan: boyo'g'li, qalqon ostidagi ilonlar; egnida - echki terisi, zaytun daraxti.

Ma'buda Artemida grek xudolari ichida juda qadrlangan: unga bag'ishlangan ibodatxonalar soni 80 ga yaqin bo'lib, Gretsiya xudolari ichida

birinchi o‘rinni egallagan. Gomer eposlarida Artemida axeyliklarga dushmanlashgan xudo sifatida ko‘rsatilgan. Shuning uchun Artemida kultini Kichik Osiyo (asosiy ibodatxona - Efesda) da tarqalgan, deb hisoblanadi, chunki u hosildorlik homiysi edi; Gretsiyaning Yevropa qismiga tarqaladi. Bunga, aksincha, Gretsiyadan Kichik Osiyoga Artemida kulti tarqalgan, degan farazlar mavjud. Arkadiyada Artemida qadimgi mahalliy iloha bo‘lib, ayiq bilan bog‘liq bo‘lgan ov ma’budasi edi.

Artemida klassik mifologiyada va ikonagrafiyada bokira ovchi – ma’buda ko‘rinishida, o‘zining hamrohi – bug‘u bilan tasvirlanadi. Artemidaning oy bilan bog‘lanishi sun’iy mifologiya tuzilmasi na topinishlarda va na kultlarda o‘z aksini topadi. Aksincha, Artemidaning mahalliy epitetlarda aks etishi ko‘plab uchratiladi. Pavsaniy ushbu epitetlarning 40 ga yaqinini sanab o‘tadi. Ular qatorida sof geografik epitetlar (Bravronalik Artemida, Lampeyalik, Fereylik, Alfeya, Stimfaliyalik va h.k. Artemida), shuningdek mustaqil ilohalarning nomlari bilan bog‘liq (Artemida Evrinoma, Diktina, Ifigeniya, Issoriya, Limnatida, Orfis va b.) epitetlar mavjud edi. Bu esa, Artemida kulti butun Gretsiya bo‘ylab tarqalganligini va bir qator mahalliy kultlarni «singdirib» yuborganligini ko‘rsatadi.

Appolon (Feb) grek mifologiyasidagi va dinidagi eng murakkab va noaniq obraz bo‘lib, o‘ziga xos o‘rinni egallagan. Appolon kultining kelib chiqishi bo‘yicha hozirgacha bahsli holatlar mavjud. Professor A.F.Losev ushbu tadqiqotga mufassal izoh beradi⁴².

Ushbu obraz tarixi Artemida obrazi bilan bog‘liq: klassik mifologiyada ikkala xudolar aka-singil hisoblanib, Latona (Leta)ning Zevsdan bo‘lgan bolalari deb ko‘rsatilinadi. Ayrim tadqiqotchilar Appolonne Artemida singari qadimgi arxadlik xudolar – cho‘ponlar homiysi deb e’tirof etishadi. Biroq ko‘pchilikning fikricha, uning ilohi kelgindi, kelib chiqishi bo‘yicha Kichik Osiyolik bo‘lib, klassik davrda u mahalliy grek kultlari bilan qorishib ketgan. Appolon ismini turlicha talqin etishgan: Podalar homiysi, Halok etuvchi va boshqalar. B.Grozniy

⁴² Лосев А.Ф. Античная мифология в и историческом развитии. -М, 1957, -Б.70.

tomonidan xett yozuvlarining o'qib chiqarilishi bilan, Apulunas ismli xudo borligi ma'lum bo'ladi. Grozniy bu ismni semitlarniki, bobillarniki deb aytib, darvoza ma'nosini anglatganligini e'tirof etadi. Gomer eposlarida Appolon Artemida shekilli, axeyliklarning yovuz xudosi, trolliklarning homiysi deb ko'rsatiladi. Miken yozuvlarida esa u umuman eslanilmaydi. Keyinchalik Appolon kulti ioniyaliklar tomonidan Gretsiyaga kirib keladi. Demos orolida Appolonning umumioniya ibodatxonasi qad ko'taradi. Gretsiyaning klassik davridagi unga topinishi markazi Delfada bo'lib, u yerda mashhur avliyoxona bor edi.

Klassik davrda Appolon Gretsiya xudolari orasida eng mashhuri edi; uning kelib chiqishi butunlay unutilgan edi. Ayrimlar uni ellinlar milliy ruhining ko'rinishi hisoblaganlar. Unga atab turli viloyatlarda 50 ga yaqin ibodatxonalar qurilgan. Appolonga turli xil funksiyalarni bajarilishi ko'rsatiladi: kelajakni ko'ra bilish (delfalik va boshqa orakullar); san'at va fan homiysi Appolon Muzaget, ya'ni to'qqizta ilohaning yo'l boshchisi; Appolon Kifared – kifarada kuy chaluvchi; Appolon Pean – davolovchi, Asklepiy bilan raqobatda bo'lgan; turli xil badbaxtliklardan tozalovchi; yorug'lik xudosi – dunyoni tenglikda saqlab turuvchi.

Asklepiy tabib – xudo obrazi ancha soddaroq bo'lib, sof grek zaminida yaralgan. Avvalboshda mahalliy xudo – Epidavr homiysi bo'lsa, keyinchalik Gretsiyadagi eng mashhur xudo hisoblanadi. Unga atab 38 ta ibodatxonalar quriladi. Xuddi shunday mahalliy xudolardan cho'ponlar xudosi Pan bo'lib, u Arkadiyada paydo bo'lgan.⁴³

Aksincha, sof sharqona kelib chiqishi bilan bizga Afrodita ma'lum. Miken davrida ushbu ma'buda to'g'risida hech qanday ma'lumot yo'q. Gomer bo'yicha u trolliklar tomonida bo'lib, axeyaliklarga qarshi kurashgan. Uning ismi epitet, dengiz ko'pigidan tug'ilgan, degan afsonalar mavjud. Uning boshqa ismi – Kiprida. Uning kultining qadimgi markazi Kipr oroli ekanligiga ishoradir. Osiyolik (semitlik) xudo Adonis bilan bo'lgan. Afroditaning mifologik bog'liqligi, yana bir bor uni Kichik Osiyodagi ayol hosildorlik ma'budasi ekanligini ko'rsatadi.

⁴³ История Востока. Восток в древности. В шести томах, том I. Стр. 328.

Tomson Afroditaning finikiyalik Astarta deb hisoblaydi. Greklarda Afrodita go'zallik, muhabbat, ideallashtirilgan ayol sifatidagi ma'budaga aylanadi. Mifologiya Afroditaning Erotning – yosh xudo – sevgi xudosining onasi sifatida ko'rsatadi.

Frakiyalik Ares xudosi Gomer davridayoq o'zlashtirilgan bo'lib, greklarda urush xudosiga aylanadi.

Alohida xudolar guruhi bo'lib, ular odamlarning madaniy hayotini aks ettirishgan. Xuddi shunday Gefest – olov va temirchilik hunarining xudosi. U ham avvalboshda Lemnos orolida yoki Likiyada mahalliy ilohlardan biri bo'lgan bo'lishi mumkin. Gretsiyaning o'zida ushbu kult tarqalmagan, lekin mifologiyada cho'loq xudoning o'rnini o'ziga yarashadir.

Gestiya – oilaviy o'choq ma'budasi.

Germes – toshlar uyumi yoki tosh ustun timsoli, uni ko'pincha odamboshli tosh stela ko'rinishida aks ettirishgan. Yo'llar va yo'lovchilar homiysi Hermes savdo xudosiga, mifologiyada – «xudolar xabarchisi» va «ruhlar yo'l ko'rsatuvchisi» sifatida ko'rinadi.

Zevs obrazi – Olimp tog'ining bosh xudosi, «xudolar va insonlarning otasi» sifatidagi murakkab obrazdir. Unda ham turli mahalliy xudolar ko'rinishini jamlanmasi aks etadi. Zevs kultining bir qancha turli markazlari bo'lib, u haqda turli mif sikllari mavjud; asosiylari Krit va Fessaliya. Krit orolida Zevsning tug'ilishi haqidagi afsonalar mahalliy g'orlar kulti bilan bog'liq bo'lib, u Qadimgi Fessaliyaning yomg'ir va hosildorlik xudosi ham edi. Fessaliya dalalarini sug'orayotgan yomg'ir bulutlari qorli Olimpdan kelar edi. Mahalliy cho'ponlar va dehqonlar bu ulug'vor tog'da o'zlarining bosh xudosining joyi deb biladilar. Fessaliya bir qancha grek qabilalarining eng qadimgi vatani edi. Ularning Fessaliyadan butun Gretsiya bo'ylab tarqalishi, Zevs kultining keng tarqalishiga hamda bu xudoning krit-miken momaqaldiroq xudosi bilan asta-sekin qo'shib ketishi natijasida uning umumellin panteonining bosh xudosi, Olimp tog'ining bosh xudosi bo'lishiga olib keladi. Zevsning ham 50 ga yaqin epitetlari bo'lib,

ularning ko'pchiligi bajariladigan funksiyasiga qarab berilgan (Zevs Xtoniy – hosildorlikni beruvchi yer osti xudosi, Gerkey – to'siqlar himoyachisi, Kseniy – chet elliklar homiysi, giyetiy – yomg'ir olib keluvchi, Leksat – tug'diruvchi, Plusiy – badavlat, Mayraget – taqdirlar yurituvchisi va h.k.). Boshqalari geografik ahamiyatini ko'rsatadi (Olimpiyalik, imitlik, nemeyalik, itomlik, lariseylik Zevs va h.k.). Zevs nomining o'zi porlayotgan, nur taratayotgan osmon ma'nosini bergan.

Grek xudolaridan ayrimlari qadimdan ma'lum bo'lsa-da, biroq ancha so'nggi davrda ahamiyat kasb eta boshladilar. Ayniqsa, dehqonchilikka oid xudolar – Demetra, Kora, Dionis. Miken yozuvlarida ularni uchratmaymiz. Gomer poemalarida esa qisman. Ular klassik davrga kelib tanila boshlaydi.

Dionis, Frako-frigiya ildizlariga ega bo'lib, uzumchilik va vino ishlab chiqarish xudo – homiysi edi.

Hosildorlik ma'budasi Demetra o'zining qizi Persefona (Kora) bilan birgalikda sof grek ma'budalari bo'lib, g'alla o'simliklari ilohalari edi. Ularning kulti Elevsinda eng muhim hudud hisoblangan.

Yer osti xudolari Aid va Gekata umumgrek kultida ommaviy xarakterda bo'lmasa-da, lekin qora jodugarlikda sezilarli o'rinni egallagan. Aidning maxsus kulti Elidada, Gekataniki esa Egina orolida mavjud edi.

Sikl dostonlarda ko'pincha xalq og'zida aytilib yurilgan miflarning ma'lum bir qismi bayon etiladi. Shu bilan birga bir doston voqeaning boshlanishi haqida gapirsa, ikkinchisi uning keyingi qismini davom qildiradi. Chunonchi, Troya sikliga kirgan «Kipriya» poemasi Troya urushining sabablari, ya'ni «Iliada» dostoni voqeasiga qadar bo'lib o'tgan hodisalar tasvir etilgandir. Shu dostonning hikoya qilinishiga qaraganda kunlardan bir kun Yer odamzodning ko'pligidan nihoyat ezilib ketganligi to'g'risida ma'budlarga zorlanadi. Yerning nolasini eshitgan Zevs odam bolasiga qiron keltirish maqsadida urush olovini yoqishga qaror beradi. Shundan keyin ma'budlar hukmroni o'z qizi Yelenani bunyod etadi va dengiz ma'budasi Fetidani Fessaliya podshohi Peleyga xotinlikka uzatadi. Tantanali to'yga adovat ma'budasi Eridadan tashqari Olimp tog'ining hamma

ma'bud va ma'budalari taklif etilgan. Bunday adolatsizlikdan qattiq ranjigan Erida «sohibjamolga» degan so'z yozilmish oltin olmani bildirmasdan bazmgoh ahllari orasiga tashlaydi. Bu «adovat olmasi» Olimp tog'ining ulug' ma'budalari Gera, Afina va Afroditalar o'rtasida darhol ixtilof tug'diradi. Zevs bu janjalni Troya yaqinidagi Ida tog'i etagida mol boqib yurgan Paris degan podachining izmiga havola qiladi. Germes uchala ma'budani bir nafasda Paris huzuriga boshlab keladi. Ma'budalarning har biri turli va'dalar bilan Parisni o'zlariga og'dirmoqchi bo'ladilar. Paris olmani dunyodagi eng latif xotinga yetishtirishni va'da qilgan go'zallik ma'budasiga tutadi. Shundan keyin Afrodita Parisning hamda Troya xalqining bir umrlik homiysi bo'lib qoladi. Gera bilan Afina esa ularning abadiy dushmaniga aylanadilar.

Shu orada Peley bilan Fetidadan Axill ham dunyoga keladi. Yuqorida bayon qilganimizdek, Fetida o'z farzandiga mangu hayot bag'ishlash niyatida, uni tovonidan ushlab jahannam daryosi o'tida cho'miltirib oladi. Lekin o't tegmagan tovon uning vujudidagi birdan-bir ojiz yer bo'lib qoladi. Ma'budlarning amriga ko'ra, Axill navqiron vaqtlarida urushda shahid bo'lishi lozim edi. Shu sababli Fetida o'z o'g'lini Skiros orolining podshohi Likomed saroyiga, uning qizlari orasiga yashirib qo'yadi.

Bir qancha vaqt o'tgach, Paris Troya podshohi Priamning o'g'li ekanligi aniqlanadi, endilikda shahzodalik martabasiga erishgan go'zal yigit Afrodita va'da qilgan husnkor xotinni axtarib safarga jo'naydi. Sparta podshohi Menelayning uyida mehmon bo'lib turganida, uning rafiqasi Yelenani ko'rib, unga oshiq bo'lib qoladi. Afrodita va'da qilgan mahbuba xuddi ana shuning o'zi ekanligiga aslo shubha qilmasdan, Yelenani olib qochadi.

«Kipriya» dostonining keyingi voqealari Agamemnon boshchiligidagi yunon podshohlarining Troya urushiga o'tlanish taraddudlariga bag'ishlangandir.

Rivoyatlarning ta'biriga ko'ra, bu urushga Axill qatnashmasa, yunonlar muqarrar mag'lubiyatga uchrashlari kerak edi. Hiylagar Odissey turli ayyorliklar ishlatib Axillni topadi. Nihoyat, yunon lashkarlari yo'lga chiqadilar. Avlida

shahrida Agamemnon bilmasdan ma'buda Artemidaning kiyigini ovlaydi. Sardorning qilmishidan g'azablangan ma'buda shamollarni to'xtatib yunon lashkarlariga vabo yuboradi, lashkargoh ahli shamol bo'lmaganligidan yo'lga chiqolmay anchagacha Avlidada qolib ketadi. Lashkarlar orasida o'lat boshlanadi, norozilik ko'tariladi. Kohin Kalxas Agamemnonning go'zal qizi Ifigeniyani Artemidaga qurbon qilmaguncha balolarning daf bo'lmasligini aytadi. Ma'budlarning xohishidan o'tolmagan sardor sevikli qizini qurbon qilishga majbur. Shundan keyin yunonlar nihoyat Troya shahriga yetib keladilar, urush boshlanadi. Xullas, «Kipriya» dostonida Troya urushining boshlanishidan tortib, o'n yil davomida bo'lib o'tgan voqealar tasvir etiladi va «Iliada» dostonidagi «Axillning g'azabi» mojarolariga kelib tugaydi.

Har ikkala dostonida yuqorida ko'rganimiz, bosh qahramonlardan tashqari, yana birmuncha ikkinchi darajali shaxslar bor. Bularning hammasi tutgan o'rinlaridan qat'iy nazar, yorqin bo'yoqlarda tasvir etilgan va o'zlarining tabiatlari, qiyofalari, xatti-harakatlari bilan bir-birlaridan tubdan ajralib turadilar. Chunonchi, Agamemnonning xulqida, ravish-raftorida anchagina takabburlik, dimog'dorlik bor; Menelay – umuman botirtabiat bo'lishiga qaramay, birmuncha mujmal, irodasi sustroq odam; Diomed – haddan tashqari jo'shqin, bag'ayrat yigit; Nestor – hayotning achchiq-chuchuklarini ko'raverib ko'zi pishib qolgan dono va nuroniy mo'ysafid; Paris – shahvoniy nafsining bandasi, o'ziga bino qo'ygan xudbin va olifta; Gektor – bahodirlikda Axilldan qolishmaydigan, or-nomusni har narsadan afzal ko'radigan, rafiqasiga vafodor, farzandiga mehribon, ajoyib inson; nihoyat, azamat o'g'illaridan ajralib dog'u hasratda bukchaygan keksa Priam, hokazo va hokazolar. Qahramonlarni turli-tuman qiyofada tavsif qilish mahorati hatto Penelopaning xushtorlari obrazida ham juda yaqqol ko'rinadi.

Hap ikkala poemada bir talay ayollar obrazi ham bor. Bular orasida yuksak san'atkorlik harorati bilan chizilganlari Andromaxa bilan Penelopadir. Biz dostonlarni o'qir ekanmiz, kishilik jamiyatining o'sha ibtidoiy davrlarida ham latofat, sadoqat, iffat cho'qqisida turgan shu qadar go'zal siymolar bo'lganligini

ko‘rib ko‘zimiz quvonadi, dilimiz shodlikni his qiladi. Gektorning vafodor rafiqasi Andromaxaning butun hayoti g‘am-g‘ussaga to‘lib-toshgan. Uning ona yurti yunonlar tomonidan tor-mor qilinganda otasi, og‘alari dushman qo‘lida o‘ladilar, sal kunda asir olingan opasi ham dunyodan o‘tadi. Ekdilikda yakka-yu yagona himoyachisi Gektordan ajralib qolish Andromaxaning yuragiga qo‘rquv, vahima soladi, eri o‘lgandan keyin sevikli o‘g‘lining ham nobud bo‘lishi va o‘zining boshiga mislsiz kulfatlar tushuvi uning dardiga yana dard qo‘shadi.

Sadoqat, vafodorlik g‘oyalari Penelopa obrazida yana ham chuqurroq, yana ham ko‘rkamroq tarannum etilgandir. Penelopa yigirma yil mobaynida judolikda yashaydi, ammo shunchalar uzoqqa cho‘zilgan hijron dardi vafodor rafiqaning qalbidagi sadoqat o‘tini aslo so‘ndira olgan emas. Odisseyning o‘rnini, martabasini egallash niyatida Penelopaga ishqiboz bo‘lib qolgan yigitlar malikaning boshiga ne ne kunlarni solmaydilar... Biroq Penelopa o‘z erining eson-omon qaytib kelishiga bir nafas ham shubha qilmaydi. G‘animlariga qarshi ochiqdan-ochiq kurasha olmagan bu ayol, o‘z nomusini himoya qilib, turli-tuman hiylalar o‘ylab topadi, masalan, keksayib qolgan qaynatasiga tobutpo‘sh to‘qish niyatida ekanini va shu tobutpo‘sh bitmaguncha erga tegmaslik bahonasi bilan xushtorlarining talablarini paysalga solib keladi. Va’daga binoan, Penelopa astoydil qadalib o‘tirib kun bo‘yi shu ishni to‘qiydi; kechasi bilan to‘qilgan enni yana so‘kib tashlaydi; shu tariqa rosa uch yil o‘tib bu tadbiri fosh bo‘lgach, omilkor malika yana boshqa-boshqa hiylalarni o‘ylab chiqaradi. Fursatni o‘tkazish maqsadida ishlatilgan bu xildagi hiylalarning eng oxirgisi kamalakbozlikdir. Penelopaning bu qarori hayotning uzluksiz zarbalaridan tinka-madori qurigan va noilojlikdan o‘zini taqdir ixtiyoriga topshirgan bir notavonning umidsizligi emas. Odisseyi hamma erkaklardan afzal ko‘rgan bu vafodor rafika o‘zining oxirgi sharti bilan raqiblarini tahqir etmoqchi, masxara qilmoqchi bo‘ladi.

Sadoqat, nazokat va latofat bilan birga Penelopaning tabiatida ajoyib salobat, vazminlik ham bor, biz uning xatti-harakatida hech qanday shoshma-shosharlik, o‘ylamasdan ish qilish kayfiyatlarini ko‘rmaympz. Odissey benomus

xushtorlarning hammasini o'ldirib, xotini bilan uchrashganida, Penelopa intizor qilgan erining bag'riga jon holatda otilmaydi. Kulfatlarni ko'ra-ko'ra ehtiyotkor bo'lib qolgan jafokash ayol, makkorlikdan cho'chib, notanish odamni turli yo'sinlarda gapga solib ko'radi, nihoyat, qarshisida turgan xaloskorning chindan ham o'z eri ekanligiga qanoat hosil etgach, u bilan qovushadi.

Gomer o'z asarida zamonasi kishilarining yaramas, bevafo xotinlar to'g'risidagi tushunchalarini Yelena, Klitemnestra kabi ayollar obrazida ifoda etgan bo'lsa, yaxshi xotinlar haqidagi olijanob va eng yuksak orzularini Penelopa qiyofasida mujassamlashtiradi. Shu tufayli asrlar o'tishi va odam bolasining go'zallik haqidagi tushunchalarning o'zgarishiga qaramay, ko'hna tarixning to'zonli qatlamlari to shu kunga qadar bu husnkor ayolning jamolini bizdan yashirolmay keladi. Hozirgi zamona bilan bu asarlar yaratilgan davr o'rtasida ming-ming yillik masofalar bo'lishiga qaramay, Gomerining mohir qo'li bilan chizilgan bu ajoyib siymo, ayol kishining ruhiy go'zalligi va ulug'vorligining mujassam ifodasi, sadoqat va vafodorlikning nodir namunasi sifatida hamon bizni maftun etadi.

Qadim zamonlarda odamlarning havoda uchishni orzu qilganlarini, bu orzular Poeton, Dedal va Ikar afsonalarida o'zining ifodasini topganligini misol keltirib, insonning jur'at va jasoratini, tabiat kuchlarini zabt etish ishtiyoqini qanotlantirishda qadimgi miflarning mohiyati nechog'li zo'r bo'lganligini qayd qilib o'tadi.

Yunon mifologiyasining ming-ming yillik tarixi bor. Shu uzoq muddat davomida ijtimoiy ongning o'sishi bilan miflar ham o'zgardi, yangidan-yangi mazmun kasb etdi. Yunon kishisi ibtidoiy qabilachilik sharoitlarida yashar ekan, tevarak-atrofdagi tabiiy hodisalarning hammasini jonli his qilib, shularga sig'inadi, ulardan madad tilaydi, yovuz kuchlarni moyil qilish uchun qurbonlar tuhfa qiladi. Xullas, tabiat hodisalari qarshisida ibtidoiy insonning butun hayoti qo'rquv va tahlikada o'tgan. Keyin-keyin qabilachilik tuzumining yemirila borishi va harbiy aristokrat tabaqalarning kuchayishi natijasida tobora qashshoqlanib ketayotgan

quyi tabaqaning ahvoli yana og'irlashadi: ilgarigi vahimalar ustiga boylarning zulmi kelib qo'shiladi. Bu holat qadimgi insonning diniy e'tiqodlarini ham timomila o'zgartirib yuboradi. Endi uning tasavvuri yer yuzining hukmronlari qabilida butunlay odam qiyofasida bo'lgan falak hukmronlari – Olimp ma'budlarini yaratadi. Yangi ma'budlar ham podshohlarga o'xshab butun koinotni o'zlarining mulklari qilib olishgan.

Zevsning rafiqasi Gera – osmon ma'budasi, ma'budlar malikasi, homilador xotinlar, kelin-kuyovlar rahnamosi. Zevsning bosh xotini Geradan boshqa ma'budalardan ko'rgan bir qancha farzandlari ikkinchi darajali ma'budlar qatoriga kiradilar.

Zulmat ma'budasi Latonadan tug'ilgan o'g'li Apollon – yorug'lik, san'at, she'riyat va muzika ma'budi, ulug' kohin hamda buyuk yoyandoz, uning singlisi Artemida – qamar ma'budasi, o'rmonlar va o'rmonlarda yashovchi jonivorlar malikasi, charchashni bilmaydigan ajoyib sayyoda; Zevsning miyasidan bunyodga kelgan dono va ma'suma Afina – shaharlar homiysi; Olimp sultonining zebo qizi Afrodita.⁴⁴

Ma'budlarni odam qiyofasida tasavvur etish, o'z navbatida mifologiyani haqiqiy hayotga yaqinlashtirdi va uning obrazlariga chinakam hayotiylik bag'ishladi. Yunon mifologiyasining bemisl boyligi, obrazlarining nafisligi, butun insoniyat tarixi davomida kitobxonning diqqatini o'ziga jalb etib keldi, yunon adabiyoti, yunon san'atiga esa behad-behisob porloq mavzular hadya qildi. Darhaqiqat, o'sha uzoq o'tmishning dostonnavislari ham, dramatik shoirlari ham, lirik tuyg'ularning kuychilari ham ushbu buloqdan suv ichganlar, ushbu «zamin»dan ilhom olganlar; ulug' rassomlar, haykaltaroshlar ham o'z asarlarida asosan shu «xazina» afsonalarini qimmatbaho real obrazlarga ko'chirdilar, ularni asrlarga doston qildilar. «Iliada» va «Odessey» dostonlarining mavzusi ham shu manbadan olingandir.⁴⁵

⁴⁴ Алимухамедов А. Антик адабиёт тарихи. –Т., 1975, 18-б.

⁴⁵ Алимухамедов А. Антик адабиёт тарихи. –Т., 1975, 62-б.

Demetra gimnida, hosilot ma'budasining qizi Persefonaning yo'qolishi hikoya qilinadi. Persefona dugonalari bilan o'tloqda gul terib yurganida nogahon yer yoriladi-yu, jahannam hukmroni Aid paydo bo'lib, go'zal qizni olib qochadi. Demetra dunyoni charx urib, sevikli farzandini nechog'lik axtarmasin, uni hech yerdan topolmaydi. Keyinchalik butun iztiroblarining aybdori Aid ekanligini bilgach, ma'budlarga achchiq qilib Olimp tog'ini tark etadi va yer yuziga tushib, Attika viloyatidagi Elivsin shahrining podshohi Keley xonadoniga enaga bo'lib yollanadi. Podshohning yangi to'g'ilgan o'g'li Demofont dilpora ma'budaga ovunchoq bo'ladi. Bolani bir umr o'limdan xalos qilish niyatida Demetra kechalari yashirincha uni o'tda kuydirib toblaydi. Bu ishdan voqif bo'lib qolgan malika Metanira enagani og'ir jinoyatda ayblaydi. Bunday da'vodan qattiq ranjigan ma'buda Elivsin aholisiga o'zining sirlarini ochib, kattakon bir ibodatxona qurishni buyuradi va ibodatxona bitgach, Demetra tun-kunlarini o'sha yerda dog'u hasratda o'tkazadi. Shu orada o'z homiysidan ayrilgan yer asta-sekin qurib-qaqrab hosil bermay qo'yadi. Bu ahvoldan tashvishlangan ma'budlar Demetraning ko'nglini olish uchun bir bitimga keladilar. Bu bitimga ko'ra Persefona yilning uchdan bir qismini yer osti saltanatida, Aid bilan birlikda o'tkazishi, qolgan qismini onasining huzurida kechirishi lozim. Shundan keyin Demetra qizi bilan Olimp tog'iga qaytadi, yer yana hosilga kirib ketadi.

Afroditaga aytilgan gimnda go'zallik ma'budasining troyalik cho'pon yigit Anxisga bo'lgan muhabbati va bu muhabbatning samarasi o'laroq lotin xalqini yer yuziga taratgan Eneyning dunyoga kelishi bayon etiladi.

Asar baayni kichik bir muhabbatnomaga o'xshaydi, ishq tuyg'ulari, ma'budaning jamoli ajoyib san'atkorlik bilan chizilgandir. Binobarin, bu asar o'zining badiiy qimmati bilan to'plamdagi hamma gimnlardan yuqori turadi.

May va shod-xurramlik ma'budining ajoyib qudrati u qadar katta bo'lmagan «Dionis va qaroqchilar» degan gimnda ta'rif etilgan.

Dionis husnga to'lgan navqiron vaqtlarida dengiz qaroqchilari uni o'g'irlab ketadilar, bolaning badaliga katta jarima olish niyatida uni uzoq vaqt bandilikda

tutadilar. Dionis bir kun kema havoza-larida bosh-bosh uzum hosil qiladi, keyin sharobni sepib yuboradi-da, bir aylanib sher tusiga kiradi. Qaroqchilar dahshat ichida o'zlarini dengizga tashlaydilar va delfinlarga aylanib qoladilar.

Yuqorida ko'rgan asarlarimizning hammasi Gomer nomi bilan atalgan bo'lsa ham, ularning ulug' adib ijodiga hech qanday yaqinligi yo'q. Olimlarning tekshirishlari natijasida bu dostonlarning Gomerdan ancha keyin, taxminan, VII-V asrlarda, hatto undan ham so'ng yaratilganliklari aniqlangan. Ehtimol, qadimgi zamonlarda bu gimnlar ham «Iliada» va «Odessey» dostonlarini aytib yuruvchi rapsodlar davrasida yaratilgan-u, keyin shularning repertuaridan o'rin olib, «Gomer gimnlari» nomi ostida tarqalgan bo'lsa ajab emas.

«Gomer gimnlari» yunon mifologiyasi va dinini o'rganuvchi kishilar uchun juda qimmatbaho bir manbadir.⁴⁶

Greklar dinida «katta yoshdagi» xudolar – Kronos, Feya va Titanlar alohida o'rinni egallagan.

Ayrim grek xudolari abstrakt obrazlarni aks ettiradi. Masalan, Plutos (Pluton) boylik xudosi, Nemezida – qasos ma'budasi, Femida – adolat ma'budasi, Mayra – taqdir ma'budasi, Nika – g'alaba ma'budasi va boshqalar.

Gretsiya mifologiyasi o'rganishning murakkab obyekti hisoblanadi. Mifologiyadagi barcha narsalar ham dinga taalluqli emas, lekin barcha narsani ham mif deb bo'lmaydi. Odatda grek mifologiyasi deganda, murakkab va keng bir butunlik tushunilib, bu yerda tarixiy afsona va asotirlar, ertak sujetlari, adabiy novellalar, afsonaviy mavzulardagi erkin variatsiyalar kiradi.

Haqiqiy afsonalar orasida, avvalambor, totemistik miflar bo'lib, ular arxaik qatlamni tashkil etadi. Totemistik asosga ko'p sonli metamorfoz sujetlar – odamlarning hayvonlarga, o'simliklarga yoki jonsiz predmetlarga aylanishi kirgan; shunday hikoyalar Ovidiyning «Metamorfozlar» poetik qayta ishlov berilgan asarida yetib kelgan: Miniy qizlarining ko'rshapalaklarga aylanishi, Tirren kemasozlarining delfinlarga, yigitcha Giasintning giasent guliga, Narsissning

⁴⁶ Алимухамедов А. Антик адабиёт тарихи. –Т., 1975, 103-б.

narsiss guliga, Dafnaning lavrga, Aedonaning bulbulga, Araxnaning o'rgimchakka, Siringa nimfasining nayga va hokazolarga aylanib qolishini ko'rsatadi.

Demetra, Persefona, Triptolem, Yakx, Dionis to'g'risidagi dehqonchilik miflari o'ta xarakterli bo'lib, ular ekin ekish, don, g'allaning unib chiqishini ko'rsatibgina qolmay, dehqonchilik kulti bilan bog'liq Emvsin va boshqa misteriyalarning mifologiyalashuvidagi marosimiy amaliyotni ko'rsatadi.⁴⁷

Mifologiyaning eng qadimgi elementi bo'lib, tabiat ko'rinishlarini aks ettirish. Mifologik maktabning eski qarashlari faqat aks ettirishda deb biladi, biroq bu qarashlar bir tomonlama va noto'g'ridir. Lekin bu element grek mifologiyasining asosiy qismini tashkil etadi.

Zevs obrazida momaqalldiroq xususiyatini, Poseydon obrazida – dengiz, Osmon (Uran), Yer (Geya), Quyosh (Gelios), Oy (Selena) – mifologik jihatdan odamsimon mavjudot bo'lib, lekin dinda hech qanday rol o'ynamagan. Xuddi shu tarzda qudratli, antropomorf mavjudotlar – Burey, Zefir, Not va boshqalar shamol xudosi Eolga bo'ysunadigan mifologik shqmolni gavdalantiradi.

Diniy hayotda yana bir muhim ahamiyat kasb etadigan holat – yer tabiatining elementlarini mifologik jonlantirib ko'rsatish edi: daryolar, buloqlar, tog'lar, daraxtlar va boshqalar; ular odatda antropomorf tasvirlangan.

Greklarning xalq sig'inishlarida kosmogonik tematika yetarlicha o'ringa ega emas edi. Kosmogonik miflar Gesiodning qayta ishlanmalarida bizgacha yetib kelgan. Mif evolyuesiya sxemasida qurilgan va ilohiy motivning yo'qligi ko'rinadi. Ibtidoiy Xaosdan Yer (Geya), Zulmat (Ereb), Tun, keyin Yorug'lik, Efir, Kunduz, Osmon, Dengiz va boshqa tabiatning buyuk kuchlari tug'iladi. Osmon (Uran) va Yerdan xudolarning katta avlodi – kronos va tetanlar, ulardan esa Zevs va Olimpning boshqa xudolari tug'iladi.

Grek mifologiyasida antropogonik motiv yo'q, insonlarning kelib chiqishi to'g'risidagi savolga aniq javob ola olmaymiz. Birgina afsonaga qaraganda, titan

⁴⁷ Женщина в мифах и легендах. Энциклопедический словарь. –Т., 1992.

Prometey insonni yaratadi. Har holda grek mifologiyasida xudolar dunyoni yoki insonni yaratuvchilar deb hisoblanmaydi.

Xudo – yaratuvchi gʻoyasi grek mifologiyasiga yot tushuncha boʻlsa-da, madaniy qahramonlarning obrazlari alohida oʻrinni egallaydi. Madaniy qahramonlar sifatida xudolar, titanlar va boshqa yarim ilohiy mavjudotlar koʻrinadi. Afina maʼbudasiga zaytun daraxti madaniyatini kiritish va ayollar chorvachiligini yuritish; Demetra – gʻalla oʻsimliklari madaniyati; Dionis – uzumchilik va vino ishlab chiqarish; Germes – oʻlchov va tarozilar, sonlar va yozuvni ixtiro etish; Appolon – insonlarni poeziyaga, musiqaga va boshqa sanʼat turlariga oʻrgatish masʼuliyati yuklatilgan. Madaniy qahramonning yana bir mifologik figurasi Prometey boʻlib, u insonlar doʻsti va homiysi; u insonlarga ong, bilim, olovni beradi; ularni chorvachilikka, dehqonchilikka, kemasozlikka, dengizchilikka, metallarga ishlov berishga, sanoqqa, yozuvga, tabobat ishiga oʻrgatadi. Oʻzining insonga boʻlgan homiyligi bilan Prometey, Zevsning gʻazabiga uchraydi va ming yillik qatlga hukm qilinadi (uni uzoq Kavkazdagi qoyalardan biriga zanjirband qilib, har kuni Zevsning burguti uning jigarini choʻqib chiqadi, bir kechada esa u yana tiklanadi), koʻp yillar oʻtgach, Gerakl uni bu azobdan qutqaradi.⁴⁸

Madaniy qahramonlar obrazlariga yaqin, ayrim vaqtlarda esa ular bilan ajratilinmaydigan yarim afsonaviy – yarim tarixiy figuralar boʻlib, ular qonunchilik, shaharsozlik asoschilari, boshqa tomondan esa rassomlar, ashulachi va shoirlar ham edi. Ushbu qahramonlarning birinchi tipiga: Tesey (Attika xalqini fillarga, fratriyalarga va urugʻlarga boʻlgan, tabaqalar va professiyalarga ajratgan), Likurg (Spartaning mashhur qonunshunosi), Kadm (Fiva asoschisi). Ikkinchi tipi: buyuk rassomlar, shoirlar, kashfiyotchilar. Masalan, afsona va asotirlardagi ixtirochi Dedal, rassom Pigmalion, qoʻshiqchilar Orfey, Arion va Gomer.

Ayrim miflar shunisi bilan qiziqarliki, ularda ijtimoiy hayot va qadimgi urf-odatlarining unutilayotgan formalari saqlanib qolgan. Xuddi shu asnoda Orest

⁴⁸ Кун Н.А. Легенды и мифы Древней Греции. –М., 1955, 87-б.

ustidan o'tkazilgan sud to'g'risidagi mifni eslash joiz: Orest o'zining onasini otasining qasdini olish uchun o'ldiradi. Bu yerda onalar huquqini ota huquqiga o'tishning tarixiy holatini ko'ramiz.

Diniy mifologiyaning asosini kult miflarida ko'ramiz. Ular u yoki bu diniy marosimlar bilan bog'liq bo'lib, muqaddas tekstlar sifatida namoyon bo'ladi. Marosimlarning o'zi u mifologik hikoyalarni o'yin sifatida ko'rsatadi. Masalan, Gera-Nimfa va Gera-Teliya to'g'risidagi miflar, har yilgi Gera haykalini muqaddas buloqda cho'miltirish (Argolida) bilan ko'rsatiladi. Yosh Zevsning tarbiyasi va u tomonidan olimpiya o'yinlarining joriy etilishi kabilar.

Grek mifologiyasida bir qator chetdan kirib kelgan mifologik sujetlar va motivlar mavjud. Bu yerda bobilliklardan olingan suv toshqini to'g'risidagi mifni hamda Sharqdan kelgan (Dionis, Kabiralar va b.) miflarni misol qila olamiz.

Mifologiya bilan greklarning go'zal va boy eposlarni aralashtirib yubormaslik kerak, bu qiyin, albatta. Argonavtlar yurishlari, Troya urushi to'g'risida, Odisseyning sarguzashtlari, Fivalik podsholar (Edip va b.) to'g'risidagi miflarni aslida tarixiy afsonalar, o'zida real tarixiy hodisalarni jamlagan hikoyalar deb bilsa bo'ladi.

Grek mifologiyasida ertak elementlari ham bo'lib, turli maxluqlar va fantastik mavjudotlar – kikloplar, kentavrlar, Skilla va Xaribda, Meduza va Garpiyalar ko'proq ertak janriga moyildir.

Grek mifologiyasi murakkab va bir qancha elementlar turli-tumanligi bilan ajralib tursa-da, umumiy bir xususiyati bor, bu yuqori badiiy obrazlarning borligi hisoblanadi. Ushbu badiylik greklar mifologik obrazlarining chuqur gumanizmga o'z aksini topgan. Ushbu gumanizm antropomorfizmga o'z ifodasini topib, qahramonlarga va xudolarga odam ko'rinishini berishda isbotlanadi. Ellada xudolari va qahramonlari insonlarning barcha jihatlarini o'zida jamlagan. Boqiy hayotgina insonlar va xudolar o'rtasidagi farqni ko'rsatadi.

Grek mifologiyasining ko'zga tashlanayotgan jihatlari, ularning sof xalq tilida emas, balki she'riy tarzda va hatto falsafiy qayta ishlov berilishi bilan Gomer

va Gesiod poemalarida yetib kelishi bilan bizgacha yetib kelishi edi. Boshqa tomondan esa mifologik material klassik Elladaning go‘zal tasviriy san’atida ham o‘z aksini topadi – Fidiy, Praksitel, Polignot va boshqalarning ijodida. Miflarni xalq tiliga yaqinroq qilib, tarixchi Gerodot va geograf Pavsaniy talqin etishadi.

Qanday bo‘lmasin, grek mifologiyasi antik san’at va adabiyotga o‘zining salmoqli hissasini qo‘shadi; boshqa tomondan esa adabiyot va san’at mifologiyada o‘zining chuqur izini qoldiradi: obrazlarning hayotiyliigi va yorqinligi diniy fantaziyaning emas, balki grek xalqining badiiy talantidan darak beradi.

Greklarda kult formalari sodda. Kultning odatiy bir tomoni, bu – qurbonlik keltirishdir. Qurbonlik keltirishning razmerlari va murakkablik darajasi turlicha bo‘lgan. Qurbonlikning eng sodda formasi – xudolarga atab, yerga yoki olovga vino sachratish edi. Xudolarga g‘alla, mevalar, yog‘ va boshqalarni qurbonlikka keltirishgan. Qurbonlikning murakkab va qimmatbaho formasi bo‘lib, hayvonlarni, ayrim hollarda katta miqdordagi hayvonlarni qurbonlik qilish edi. Eng muhim va tantanali holatlarda gekatomba (100 qurbonlik hayvonlar) keltirilgan. Ayrim miflardan uzoq o‘tmishda odamlarni ham qurbon qilishganlari aytilgan, lekin bu holat bahsli. Qurbonlik xarakteri kimga keltirilayotganligiga ham bog‘liq edi. Olimp xudolariga odatda oq tusdagi hayvonlar, yer osti xudolariga – qora tusdagi hayvonlar qurbonlik qilingan. Oxirgilarini butunligicha yoqib yuborishgan yoki yerga ko‘mganlar. O‘lganlarga atalgan in’omlar ham yerga qo‘yilgan yoki ko‘milgan. Qahramonlarga qilingan qurbonliklar yoqilgan. Olimp xudolariga taqdim qilinayotgan hayvon go‘shlari, marosim qatnashchilari tomonidan iste’mol qilingan.

Kultning boshqa elementlari: mehroblarga gulchambarlar qo‘yish, xudolar haykallarini bezash, ularni yuvish, tantanali prosessiyalar, muqaddas madhiyalar va duolarni kuylash, ayrim hollarda diniy raqslar ijro etish.

Shahar xudo – homiylari sharafiga qilinadigan marosimlar, davlatning yuqori mansabdor shaxslari tomonidan bajarilgan. Marosimlarning eng muhimlari

umumxalq bayramlariga aylangan: Afinadagi katta va kichik Panafineya, Feneyadagi (Beobiya) germey o'yinlari. Ularda kohinlar ham qatnashgan.

Jamoaviy kultdan tashqari, xususiy, xonadon kultlari bo'lgan. Marosimlari oddiy; oila va urug' oqsoqollari tomonidan bajarilgan.

Gretsiyada kohinlik alohida korporatsiyani yoki yopiq tabaqani tashkil etmagan. Kohinlar ibodatxonalardagi alohida xudolarning xizmatkorlari hisoblanishgan. Ularning zimmasiga xudo kultiga har kunlik xizmatni bajo keltirish; doimiy qurbonliklar keltirish, xudo haykalini bezash, diniy tahorat va boshqalar kirgan. Ayrim hollarda kohinlar fol ochish, oldinni ko'ra bilish va tabiblik bilan shug'ullanganlar. Kohin mansabi umrbod va hatto nasliy, avloddan avlodga meros o'tib kelgan. Ko'pincha kohinlar qisqa vaqtga saylanganlar: ayrim hollarda, masalan, Olimpiyada bir oy muddatga. Kohinlarni saylash eski aristokratiya qo'lida bo'lib, ular asosan kohinlarni mashhur urug' vakillaridan saylaganlar. Kohinlardan tozalik, jismoniy kamchiliksizlarsiz bo'lishliklari, soflik talab qilingan. Ayrim hollarda kohinlik mansablari ayollar tomonidan bajarilgan. Ularga qo'yilgan talablar yanada qattiqroq bo'lgan.

Grek quldorchilik polislarida kohinlarning o'zni, Sharq despotik davlatlari va ulardagi kohinlarning zulmidan farqli, ular hech qanday hokimiyatga ega emas edilar.

Ibodatxonalar o'zlarining xo'jaligiga ega bo'lganlar. Eng ko'zga ko'ringan ibodatxonalarda ko'plab boyliklar, qimmatbaho anjomlar saqlanib, ular alohida shaxslarga va davlatga tegishli bo'lgan. Masalan, Afina dengiz ittifoqining g'aznasi avval Delosdagi Appolon ibodatxonasida, keyinchalik Afina Parfenonida saqlangan. Biroq ibodatxonalar o'zlarining shaxsiy boyliklari bo'lib, xayriya va to'lovlardan to'plangan edi. Eramizdan avvalgi IV asrda Delfdagi ibodatxonada 10 ming talant pul bor edi. Ibodatxona kohinlari o'zlarining qo'llaridagi pullarni ko'pincha xususiy shaxslarga va ayrim shaharlarga ma'lum miqdordagi pul evaziga qarz berganlar. Shunday qilib, ibodatxonalar o'ziga xos banklarga aylanib, kohinlar esa sudxo'rga aylangan.

Gretsiyada siyosiy birlik bo'lmaganidek, markazlashgan kult ham yo'q edi. Mahalliy va jamoa kultlari asosiy tarqoqlikni ko'rsatadi. Shunday bo'lsa-da, ayrim kult markazlari keng, umumgrek ahamiyatiga ega bo'lib qoladi. Delfdagi Appolon, Olimpiyadagi Zevs, Elevsindagi Demetra, Epidavrdagi Asklepiy ibodatxonalari shular jumlasidandir. Boshqa ibodatxonalar bir muncha torroq ahamiyat kasb etib, alohida grek qabilalari yoki hududiy birlashmalarining to'planishi edi. Bu kultlarning o'choqlari jamoa va polis chegaralardan o'sib chiqib, to mashhur oldindan ko'ra bilish joyi (Delf) yoki o'yin va musobaqalar o'tkaziladigan joy (Olimpiya) yoki davo topilgan joylarga (Epidavr) aylanadi. Grajdanlarning bu joylarga kelishi ixtiyoriy edi. Kohinlar esa bu yerlardan foyda olish va topinuvchilarning sonini ko'paytirish uchun turli usullardan foydalanishgan.

Xuddi shunday, Delfdagi ibodatxona kohinlari grek polislaridagi siyosiy holatni yaxshi bilganlari uchun, ularga murojaat qilgan ichki va tashqi davlat xizmatchilariga foydali maslahatlar berganlar. Biroq kohinlar ko'pchilik holda umummilliy masalalarni tushunish darajasida emas edi. Ikkala raqobatchi shaharlar, polislar, davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni murosaga keltirish o'rniga, aksincha, siyosiy xatoliklarga yo'l qo'yib qo'yadilar. Masalan, eronliklarning Elladaga kirib kelishida antipatriotik pozitsiyani egallaydilar; V asrdagi o'zaro urushda pelloponessliklar tomonida turib, dushmanlashgan tomonlarni yarastirmaydi.

Greklarning milliy birligini tashkil etishda Olimpiyadagi Zevs ibodatxonasi ijobiy rol o'ynaydi. Bu yerda umumellin Olimpiya o'yinlari o'tkazilar edi. Bu o'yinlar to'rt yilda bir marta bo'lib o'tib, nafaqat greklarning madaniy yaqinlashuvi, balki ma'lum ma'noda siyosiy kelishmovchiliklarni bartaraf etishga yordam bergan. O'yinlar o'tkazilayotgan vaqtda o'zaro urushlar to'xtatilgan va tinchlik sulhlari tuzilgan.⁴⁹

⁴⁹ Токарев С.А. Религия в истории народов мира. –М., 1965, 452-468-66.

XULOSA

Dunyoning turli burchaklarida, jumladan, Misr, Mesopotamiya, Finikiya, Falastin, Hindiston, Xitoy, shuningdek, Gretsiyaning Beotiya, Argolida, Fessaliya, Attika hududlarida, Egey arxipelagi orollarida afsonalar birin-ketin vujudga kelgan; o'ziga xos diniy dunyoqarash tizimini yaratgan.

Qadimgi dunyoning barcha xalqlaridagi afsona va asotirlar va ular zaminida paydo bo'lgan epik poemalar qaysidir bir ma'noda insonlarning tabiiy, tarixiy, ijtimoiy, siyosiy hayotini, turmush tarzini, urf-odatlarini, marosimlarini ifoda etadi. Bunga yaqqol misol qilib, Hindiston tarixidagi ilk yozma manba – vedalarni; «Mahabxarata» va «Ramayana» epik dostonlarini, Mesopotamiyadagi «Gilgamesh» eposini, Gretsiyadagi «Iliada» va «Odisseya» dostonlarini ko'rib o'tamiz.

Ko'plab mifologik xudolar va qahramon ilohlar obrazlarini qadimgi va antik san'at yodgorliklarida uchratamiz.

Mavzu bo'yicha malakaviy bitiruv ishini yozishdan maqsad – qadimgi dunyo tarixi, ayniqsa, uning mifologiyasi va sig'inish tushunchalariga qiziqish bildirgan o'quvchilarni ular bilan tanishtirish; o'zbek tilidagi adabiyotlarning kamchiligi o'rni ozroq bo'lsa-da, to'ldirish edi.

Umuman olganda, qadimgi dunyo mifologiyasi bilan tanishish zamonaviy tarixchilar bilim darajasini oshiradi. Mifologiyani bilish – tarix, til va adabiyot, san'at sohalaridagi o'qituvchilar, shuningdek, talabalar, maktab o'quvchilarining estetik va badiiy saviyasini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Алимухамедов А. Антик адабиёт тарихи. –Т., 1975.
2. Гросс П. Талисмания и мифология Древнего Мира. Ростов-на-Дону, 2007.
3. Древняя Греция. Под ред. Струве В.В. –М., 1956.
4. Женщина в мифах и легендах. Энциклопедический словарь. –Т., 1992.
5. История Востока. Восток в древности. В шести томах, том I. –М., 2002.
6. История Древнего Востока. Под ред. Кузищина В.И. –М., 1979.
7. Косидовский З. Когда Солнце было богом. –М., 1978.
8. Кун Н.А. Легенды и мифы Древней Греции. –М., 1955.
9. Лиллиан Ту. Фэн-шуй. –София, 2006.
10. Лосев А.Ф. Античная мифология в и историческом развитии. -М, 1957.
11. Овчинникова А.Г. Легенды и мифы древнего Востока. –Санкт-Петербург, 2002.
12. Рубинштейн Р.И. Древний Восток. –М., 1974.
13. Словарь античности. –М., 1989.
14. Токарев С.А. Религия в истории народов мира. –М., 1965.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Tarix-falsafa fakulteti

**Arxeologiya, qadimgi dunyo tarixi va
etnografiya kafedrası**

Axadov Sherzod Alisherovich

**QADIMGI DUNYO MIFOLOGIYASI
VA SIG‘INISH TUSHUNCHA
MADANIYATI**

5220100 – Tarix bakalavriat ta’lim yo‘nalishi

Malakaviy bitiruv ishi

Ilmiy rahbar Djurakulova D.M.

SAMARQAND – 2011